

I.X.Shoyev, Sh.X.Bahronov

SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR

O'quv qo'llanma



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Tarix va yuridik” fakulteti

**“Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy
fanlar” kafedrası**

**Izzatullo Xusenovich Shoyev,
Sherzod Xolmurodovich Bahronov**

SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR

O‘quv qo‘llanma

60420100 – “Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha)” ta’limi
yo‘nalishi bakalavrlari uchun mo‘ljallangan

Toshkent – 2024

UO‘K 342.56:34.07(075.32)

KBK 67.7

Sh58

Shoyev I.X., Bahronov Sh.X.

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. O‘quv qo‘llanma. I.X. Shoyev, Sh.X. Bahronov. – T.: “Afzalzoda books” nashriyoti, 2024-y. – 220 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60420100 – “Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha)” ta‘lim yo‘nalishi bakalavrlari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanmaning maqsadi talabalarning o‘z mutaxassisliklari to‘g‘risida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi, huquqni muhofaza qilish organlar fanining umumiy tavsifi, O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi sudlar hamjamiyati, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalari, O‘zbekiston Respublikasi bojxona va soliq organlari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining huquqiy maqomi, shuningdek, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va xalqaro standartlar mazmunini ochib berish hisoblanadi.

O‘quv qo‘llanma o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, mutaxassislar, magistr va bakalavr talabalari hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

N.B. Maxmudova – Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchilar:

G‘.A. Yangiyev – Buxoro davlat universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

F.M. Bafoyev – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2024-yil 2-iyuldagi 452-U-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan. Qayd qilish raqami 452-71.

ISBN 978-9910-8830-9-5

© I.X.Shoyev, Sh.X.Bahronov, 2024

© “Afzalzoda books” nashriyoti, 2024

Ushbu o'quv qo'llanmada huquqni muhofaza qilish faoliyati tushunchasi, huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlari (funktsiyalari) va ularni amalga oshiruvchi organlarning umumiy tavsifi, «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining tushunchasi, mazmuni va yuridik fanlar tizimida tutgan o'rni, huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risidagi qonunchilik, hokimiyatlar bo'linishi tizimida sud hokimiyati, mustaqil O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi, odil sudlov va uning demokratik tamoyillari, sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirish, sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish, konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi va uning asoslari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi va uning vakolatlari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi apparati, uning funksiyasi va shakllanish tartibi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari, ularning turlari, mazmuni, yuridik ahamiyati va tuzilishi, O'zbekiston Respublikasi sud tizimida Oliy sudining tutgan o'rni, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi, tuzilishi va vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi, Prezidiumi va hay'atlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining apparati, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalari va vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy maktabi, O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi, Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari va prinsiplari, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tuzilishi va tizimi, prokuror nazorati va prokurorning asosiy vazifalari, prokuratura organlari xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini tashkil etilishi va uning faoliyatining asosiy prinsiplari, Ichki ishlar organlarining vazifalari va huquqlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatini tashkil etilishi va faoliyatining asosiy prinsiplari, Davlat xavfsizlik organlarining vazifalari va huquqlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi faoliyatining huquqiy asoslari, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi vakolatlari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasida xizmat o'tashning tartibi va shartlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari, adliya organlari va muassasalari tizimi, Respublika sud-ekspertiza markazining asosiy vazifalari va huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi o'rni, Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari,

O'zbekiston Respublikasi bojxona qo'mitasining tashkil etilishi, uning vazifalari, funksiyalari va huquqlari, O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasining tashkil etilishi, uning vazifalari, funksiyalari va huquqlari, Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etilishining zarurati va jamiyatdagi ahamiyati, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy faoliyat yo'nalishlari va vakolatlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining huquq va majburiyatlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida xizmatni o'tash tartibi va shartlari, huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etishning xalqaro standartlari tushunchasi va ahamiyati, huquqni muhofaza qilish faoliyatining xorijiy tajribasi, huquqni muhofaza qilishni tashkil etishning xalqaro standartlarini O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish va boshqa masalalar yoritib berilgan.

O'quv qo'llanma huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilarga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va barcha davlat xizmatchilariga, shuningdek, huquqni muhofaza qilish sohasiga qiziquvchi keng kitobxonlar doirasiga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarda huquqni muhofaza qilish organlari bilan huquqiy munosabatga kirishish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

KIRISH

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan ta'lim berishning asosiy maqsadi talabalar, bo'lajak huquqshunoslar ongida huquqni muhofaza qilish faoliyati va uni amalga oshiruvchi davlat organlari haqida aniq tassavvur (tushunchani) shakllantirishdan iboratdir. Bunday organlar qatoriga sud, prokuratura organlari, ichki ishlar va xavfsizlik organlari, milliy gvardiya, adliya organlari, bojxona va soliq organlari, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi kabi organlar kiradi. Tabiiyki, bunda asosiy e'tibor sudlarga qaratilgan, chunki bu organlar shunday vakolatlarga egaki, bu vakolatlarning majmuyi ularni davlat hokimiyatining mustaqil bo'g'ini – **sud hokimiyati** deb atash uchun asos bo'ladi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanidan ta'lim berish huquqni muhofaza qilish tushunchasi, uning asosiy yo'nalishlari, sud hokimiyati, konstitutsiyaviy nazorat, odil sudlov va uni amalga oshiruvchi organlar, sudlarning ichki tuzilishi va vakolatlari, prokuror nazorati va prokuratura, jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish, advokatura va huquqiy yordam ko'rsatishning boshqa shakllari to'g'risida bilim olishni ko'zda tutadi. Bunday bilimlar talabalarning o'quv muassasasini yakunlaganlaridan so'ng huquqiy faoliyatning barcha jabhalarida kelgusi amaliyotlari uchun zarurdir.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining maqsadi – huquqshunos talabalarga huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish mexanizmi, shuningdek, ularni amalga oshiruvchi tashkilotlar haqida ma'lumotlar berishdan iborat. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanida ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar o'rganiladi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanini o'zlashtirish quyidagilarga yo'naltirilgan:

- O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarning tashkil etilishiga oid asosiy tushunchalar; huquqni muhofaza qilish organlari vakolatlarining o'ziga xos xususiyatlari; odil sudlov va uning demokratik asoslari; Adliya vazirligi va uning tarkibiy tuzilmalari; prokuratura organlari va prokuror nazoratining mazmuni; ichki ishlar va xavfsizlik organlari, milliy gvardiya faoliyatining tashkil etilishi; bojxona va soliq organlarining faoliyati; shuningdek, xorijiy

mamlakatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida bilimlarni shakllantirish;

- O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini, ularning asosiy yo'nalishlarini va faoliyat prinsiplarini o'zlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan va umume'tirof etilgan inson va fuqarolarning huquqlari va odil sudlovning tamoyillari o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini, adolatli huquqni muhofaza qilish tizimini ta'minlash borasidagi strategik masalalarning to'la amalga oshirilishi aslida shunga olib kelishi kerakki, bunda sud hokimiyati davlat hokimiyatining boshqa shakllari – ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlar singari obro'li, ishonchli va to'la huquqli bo'ladi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning oliy maqsadi – inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblangan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni, bir so'z bilan aytganda yangi O'zbekistonni barpo etish uchun mustahkam konstitutsiyaviy zamin yaratdi.

Asosiy qonunimizning o'zida belgilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakat butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi va to'g'ridan to'g'ri amal qilishi (15-modda) haqidagi prinsip alohida ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning oldingi tahriridan asosiy farqlovchi jihatlaridan biri ham aynan uning normalarini davlat organlarining huquqni qo'llash amaliyotida, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan to'g'ri qo'llash imkoniyatining mavjudligidir. Bu o'z navbatida huquqiy davlatning muhim va asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizning konstitutsiyaviy rivojlanish yo'lidagi muhim qadamlardan biri – bu shubhasiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi Farmoni asosida **“O'zbekiston–2030” strategiyasining** qabul qilinishi bo'ldi.

Ushbu strategiya 5 ta ustuvor yo'nalish hamda 100 ta maqsaddan iborat bo'lib, 4-yo'nalish qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish masalalariga

bag'ishlangan. Mazkur strategiyada qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar doirasida sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish (86-maqсад), huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish (87-maqсад) kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni bilan qabul qilingan **"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"** II yo'nalishi "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish"ga qaratilgan bo'lib, unda belgilanga 17-maqсад bevosita huquqni muhofaza qilish organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirilgan¹. Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti doirasida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining tashkil etilishi, huquqiy asoslarini takomillashtirishga yo'naltirilgan asoslariga qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar uzluksiz qabul qilinayotganligi hamda yangilanayotganligi o'quv kursini o'rganishda muayyan qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun o'qituvchilar oldida materialni maksimal oqilona va talabalar o'zlashtirishi uchun uslubiy jihatdan soddalashtirilgan holda yetkazish vazifasi turibdi.

¹.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallanganYangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. www.lex.uz

1-MAVZU: «SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR» FANINING UMUMIY TAVSIFI

Reja:

- 1.1. Huquqni muhofaza qilish faoliyati tushunchasi.
- 1.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yoʻnalishlari (funktsiyalari) va ularni amalga oshiruvchi organlarning umumiy tavsifi.
- 1.3. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining tushunchasi, mazmuni va yuridik fanlar tizimida tutgan oʻrni.
- 1.4. Huquqni muhofaza qilish organlari toʻgʻrisidagi qonunchilik.

1.1. Huquqni muhofaza qilish faoliyati tushunchasi

Huquqni muhofaza qilish faoliyati – maxsus vakolatli organlarning jismoniy, yuridik shaxslar va davlatning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek, qonunga muvofiq va unda belgilangan tartibga soʻzsiz rioya qilgan holda yuridik taʼsir choralarini qoʻllash orqali qonuniylikni va huquq-tartibotni taʼminlashga yoʻnaltirilgan faoliyati.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar – qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilish, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashdan iborat boʻlgan asosiy vazifasini bajaradigan maxsus vakolatli organlar.

Adabiyotlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati hamda ularni tavsiflovchi belgilar toʻgʻrisida yagona fikr yoʻq. Ayrim mualliflar "Huquqni muhofaza qiluvchi organlar" tushunchasiga keng va har tomonlama yondashganlar, ularning fikricha huquqni muhofaza qilish organlariga barcha vazirliklar, davlat qoʻmitalari va boshqa ijro organlarini kiritish mumkin, sud, prokuratura, hamda advokatura va notariat toʻgʻrisida gapirmasa ham boʻladi, chunki yuqorida sanab oʻtilgan organlarning barchasi huquqni muhofaza qilish hamda qoʻriqlashda oʻz oʻrniga ega.

Davlat organlari turli xil masalalarni hal qiladilar, yaʼni iqtisodiyot faoliyatini taʼminlash, tashqi siyosatni amalga oshirish, ilm-fan rivojiga sharoit yaratib berish, taʼlim, fan, madaniyat, mudofaa qobiliyatini taʼminlash v.b.

Har bir davlat organi oʻz vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bilan bir qatorda qonuniylikni taʼminlash, inson huquqlari va

erkinliklarini himoya qilish, davlat va nodavlat tashkilotlari, mehnat kollektivlarini huquq va qonuniy manfaatlarini qo‘riqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi bir qator huquqni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni ham amalga oshiradilar.

Davlat va jamiyatdagi institutlarning huquqni muhofaza qilish yo‘nalishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z o‘rnini topgan. Xususan, Konstitutsiyaning 13-moddasida: "O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" deyilgan.

V.M.Semyonov huquqni muhofaza qilish organlarini quyidagicha ta’riflaydi: huquqni muhofaza qilish organlari – bu davlat organlari va jamoat tashkilotlari bo‘lib, ular o‘z faoliyatini qonun hamda demokratik printsiplarga asoslangan holda amalga oshiradilar, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minlaydilar, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq va erkinliklarini himoya qiladilar, huquqbuzarlikning oldini olish va qonun hamda huquqiy tartibotni buzgan shaxslarga davlatning majburlov yoki jamiyatning ta’sir choralarini qo‘llaydilar.

Ushbu tushuncha o‘zining mohiyatiga ko‘ra barcha davlat organlariga tegishlidir, chunki sanab o‘tilgan funksiyalar ularning barchasiga xosdir.

Ushbu tushunchaning asosini qonuniylik hamda huquqiy tartibot tashkil etadi. 1992-yil qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qonuniylik va huquqiy tartibot iboralari ko‘p ishlatilgan, aniqrog‘i 121-moddaning 2-qismida: "Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin" deyilgan. Qonuniylik va huquqiy tartibot O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 24-42, 43-54 hamda boshqa moddalarda ham ko‘rsatilgan va kafolatlangan.

Ushbu bobda huquqni muhofaza qilish faoliyati hamda "huquqni muhofaza qiluvchi organlar" tushunchasining umumiy masalalari ko‘rilayotgan ekan, bu yerda ushbu masala yuzasidan izlanishlar olib borgan bir qator mualliflarning qarashlari, fikrlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ushbu masalaga yondashuvlar hamda qarashlar turlichadir.

Masalan, **A.P. Rijakovning** fikricha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bo'lib, qonunga muvofiq jismoniy (yuridik) shaxslarning hamda davlatning huquq hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi hamda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlovchi muassasa, mansabdor shaxs yoki boshqa shaxslar (masalan, sudya, tergovchi, yuridik yordam ko'rsatuvchi fuqaro) hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ushbu tushuncha yetarli darajada to'liq bo'lmay, unda faqatgina huquqni muhofaza qilish faoliyatining ayrim elementlari to'g'risida gap boradi.

V.N.Galuzoning fikricha: "har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ o'z ichiga alohida elementlarni olgan murakkab tashkiliy tizimni aks ettiradi. Ushbu tizim zahirida, odatda, Rossiya Federatsiyasining federativ tuzumi, uning ma'muriy hududiy bo'linishi hamda harbiy-ma'muriy bo'linishi yotadi".

Ushbu fikrni **B.N.Gabrishidze** asosli ravishda tanqid qilib, davlatning harbiy-ma'muriy bo'linishi hech qanday vaziyatda huquqni muhofaza qilish organlarining butun tizimiga ta'sir ko'rsatmasligini ta'kidlaydi.

Quyidagicha ta'rif ham mavjud: "Huquqni muhofaza qilish organlari sohaviy faoliyati xususiyati bo'yicha alohida mustaqil davlat organlari guruhini tashkil etib, ular oldilariga aniq bir maqsadni qo'yadilar".

Yuqoridagi ta'rif o'zining qisqaligidan "**ajratilgan**" deganda nimani nazarda tutishi hamda "**sohaviy faoliyat**" nimani anglatishi haqida tug'iladigan savollarga javob bermaydi. Adabiyotlarda shunday ta'rif ham borki, unda asosan "Huquqni muhofaza qilish organlari" atamasi "**terilgan**", "**yig'ma**" hisoblanadi.

Unda bir necha davlat organi birlashgan bo'lib, xususiyatiga ko'ra ular huquqni muhofaza qilish sohasida qonun bilan belgilangan vakolati doirasida shaxs, jamiyat, davlat manfaatlari, huquq va erkinliklarini qo'riqlash bo'yicha ixtisoslashgan holda faoliyat olib boradilar yoki huquqni muhofaza qilish funksiyasi bilan boshqa funksiyalarni birgalikda amalga oshiradilar.

Ushbu ta'rif tanqid qilingan bo'lib, bizning fikrimizcha bu tanqid asoslidir. Chunki bu yerda ushbu guruhlarining printsiplari qanday ekanligi, fuqarolar, jamiyat, davlat manfaatlari, huquq va erkinliklarini

himoya qilishga ixtisoslashgan organlar qaysilar ekanligi aniq yoritib o'tilmagan.

K.F.Gutsenko va **M.A.Kovalyovlarning** huquqni muhofaza qilish faoliyati mazmuni va xususiyatlariga taalluqli fikrlari bizda qiziqish uyg'otadi.

Huquqiy tartibot organlari tushunchasi bilan huquqni muhofaza qilish organlari tushunchasi bir-biriga yaqin hisoblanadi. Ushbu tushunchalar o'xshash bo'lgani bilan ular aynan bir tushuncha degan fikr uyg'otmasligi kerak. Chunki har qanday huquqiy tartibot organi huquqni muhofaza qilish organi emas. Aytib o'tish joizki, huquqni muhofaza qilish organlari safiga huquqiy tartibot organlaridan bir qismini kiritib bo'lmaydi.

U yoki bu davlat organini huquqni muhofaza qilish organlari safiga qo'shishda amal qiladigan talablarni anglashda "huquqni muhofaza qilish faoliyati" deb nom olgan faoliyatning xususiyatlarini aniqlash kerak. Ushbu tushuncha nisbatan yosh tushuncha hisoblanib, amaldagi huquqshunoslikka 50-yillar oxiri - 60-yillar boshlarida kirib kelganligi sababli boshqa atama va tushunchalarga qaraganda "**murg'ak**" deyish o'rinli bo'ladi. Uning atrofida faol tortishuvlar kechmoqda, turlicha fikrlar bildirilmoqda. Ammo hozirgi amaldagi qonunchiligimizda bu haqda aniq ko'rsatmalar yo'q.

Davlat faoliyatini ko'rib chiqayotgan mavjud doktrinalar aniq xususiyatlarga ega. Ulardan biri shunda ko'rinadiki, bunday faoliyat har qanday usul bilan amalga oshmaydi, balki faqat huquqiy ta'sir chorasi qo'llangandagina namoyon bo'ladi. Unga qonun bilan yo'l qo'yilgan davlatning majburlov hamda jazolash usullarini kiritishimiz mumkin. Masalan, jinoyat sodir etilgan taqdirda, unga nisbatan jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jazo yoki qonunda belgilangan boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llaniladi; jinoiy javobgarlik keltirib chiqarmagan holda moddiy zarar yetkazilganda, zararni qoplash majburiyati yuklanadi; agar shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilmagan bo'lsa, aytaylik biron-bir xizmat yoki mahsulot tayyorlash lozim darajada bajarilmasa, u holda moddiy sanksiya qo'llaniladi; shaxs avtotransport vositasini mast holda boshqargan taqdirda, unga nisbatan jarima qo'llanishi yoki haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilinishi va h.k.

Huquqiy ta'sir choralarning huquqqa xilof harakatlarni ogohlantirish, ularni profilaktika qilish turlariga katta ahamiyat berilgan.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatining ikkinchi ahamiyatli belgisi huquqiy ta'sir choralari qo'llashda qonun yoki boshqa huquqiy me'yorlarda ko'rsatilgan shartlarga to'la mos kelishidir. Faqat ulargina huquqiy ta'sir choralari qo'llashga asos bo'la oladilar. Shunday ta'sir chorasini qo'llovchi organ qonunga aniq, puxta amal qilishga majbur. Masalan, agar qonunga asosan birinchi marta bezorilik jinoyatini sodir etganlik uchun eng kam oylik ish haqining 50 barobaridan 100 barobarigacha jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq jazosi qo'llaniladigan bo'lsa, u holda yuqoridagi ta'sir choralari faqat shu chegaralarda qo'llanilishi lozim.

Uchinchidan, huquqni muhofaza qilish faoliyatiga xos belgilardan biri shundaki, u faqat qonunda belgilangan ma'lum tartibga amal qilgan holda amalga oshiriladi. Misol uchun jinoiy jazoni belgilaydigan yoki undan ozod qiladigan yoxud sudlanuvchini oqlaydigan sud hukmi faqat protsessual normalarda belgilangan tartibda sud muhokamasida ish holatlari to'la, har tomonlama xolisona muhokama qilingandan keyingina chiqariladi. Bunday muhokama maslahatxonada maslahatlashuv sir saqlangan va boshqa tartib-qoidalariga rioya qilgan holda o'tkaziladi. Qonunda boshqa huquqbuzarliklarni hal qilishning o'z tartib-qoidalari belgilangan. Mulkiy, meros, ishdan bo'shatilganlik to'g'risidagi va boshqa nizolarni ham hal qilishning o'ziga xos tegishli tartib-qoidalari mavjud. Xulosa qilib aytganda u yoki bu huquqiy ta'sir chorasini qo'llash yoki qo'llamaslikka qaror qilish uchun qonunda majburiy ravishda amal qilish lozim bo'lgan aniq qoidalar o'rnatilgan. Ularni buzganlik qarorni noqonuniy hamda haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatining oxirgi belgisi shuki, faoliyatni amalga oshirish, avvalo, maxsus vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlariga yuklatiladi va ular o'z navbatida tegishli ravishda tayyorlangan xodimlar - aksariyat holda yuristlar va boshqa sohalarni egallagan mutaxassislariga ega bo'ladilar. Ularning ixtiyoriga moddiy va texnik vositalar beriladi. Bunday davlat organlarini tashkil etish va ularning faoliyati alohida qonunda belgilanadi va shu bilan bir qatorda muhim masalalarni hal etishning protsessual tartibi ham mavjud. Bularning barchasi huquqni muhofaza qilish organlariga tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun huquqiy ta'sir choralari qo'llashga qaror qilishida tezkorlik, asoslilik, qonuniylik va adolatni ta'minlash uchun zarur.

Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib huquqni muhofaza qilish deb hisoblanayotgan faoliyat tushunchasini aniqlash mumkin. Keltirilgan belgilar va ularga berilgan qisqacha sharhlardan ko'rinib turibdiki, huquqni muhofaza qilish faoliyatiga shunday davlat faoliyatini kiritish mumkinki, unda maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari qonunga hamda belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda huquqni muhofaza qilish maqsadida huquqiy ta'sir chorasini qo'llaydilar.

Bu tushunchada asosan huquqni muhofaza qiluvchi davlat faoliyati haqida gap boradi. Biroq bunday faoliyat faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki barcha davlat organlari tomonidan u yoki bu darajada amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan barcha tushuncha va ta'riflarni tahlil qilib, huquqni muhofaza qilish faoliyati – bu davlat va uning nomidan maxsus vakolatli organlarning qonun bilan belgilangan tartibda huquqiy ta'sir chorasini qo'llash orqali qonuniylikni, huquqiy tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va boshqa fuqarolik birlashma-larining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, fuqarolarni huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatdir deyish, mumkin.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatining belgilari quyidagilar:

1) ushbu faoliyat maxsus vakolatlarga ega bo'lgan sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi;

2) sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati huquq, shaxs, jamiyat va davlatni jinoiy va boshqa tajovuzlardan himoya qilishga yo'naltirilgan;

3) faoliyatning qonunga qat'iy muvofiqligi;

4) sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida davlat majburov choralari yoki yuridik ta'sir choralari qo'llash;

5) yuridik ta'sir choralari qonunga qat'iy rioya qilgan holda qo'llaniladi, qonun ushbu choralar qo'llanilishining asoslarini ham, muayyan holatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aniq choralarni ham belgilaydi;

6) sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar qarorlarining majburiyligi.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan hamda huquqiy davlat qurilayotgan hozirgi davrda jamiyat va davlat hayotida huquqni muhofaza qilish organlarining ahamiyati va roli oshib boradi. Shunday

ekan, ko'pgina davlat organlari hamda maxsus organlarning huquqni muhofaza qilish faoliyati ham oshib boradi.

1.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlari (funktsiyalari) va ularni amalga oshiruvchi organlarning umumiy tavsifi

Umuman olganda, **funksiyalar** – u yoki bu organ, tashkilot, shuningdek, jamoat birlashmalari faoliyatining asosiy, bosh yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

Huquqni muhofaza qilish sohasidagi funksiyalar to'g'risidagi masala davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi va jinoyat protsessi sohalarida ish olib boruvchi olimlar va tadqiqotchilarning diqqatini tortadi.

Funksiyalarning eng umumiy ko'rinishi – u yoki bu organ, tashkilot, shuningdek, jamoat birlashmalari faoliyati shakllari va tizimlarining asosiy, bosh yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

I.L.Bachiloning monografiyasida davlat organlari funksiyalarining tabiati va xususiyati to'g'risidagi tadqiqotlari yoritilgan. Bunda muallif boshqaruv organlari funksiyalarining bir-biri bilan o'zaro aloqadorligi hamda huquqiy maqomini belgilovchi va tashkiliy huquqiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda almashib turishga asoslanganligini e'tirof etadi. Ushbu organlar boshqaruv ob'ektlarini siyosiy - iqtisodiy, rejali, uslubiy, moddiy, texnikaviy, mehnat va boshqa resurslar bilan ta'minlaydi, ya'ni, ularning oldida turgan boshqaruv tizimining vazifalarini belgilab beradi.

Ushbu tadqiqotlar boshqaruv organlarini tushunishda juda muhim bo'lgan holatlarni o'zida aks ettiradi. Funksiyalar davlat organi faoliyatining mazmunini yetarli darajada aniqlashtirib beradi. Huquqni muhofaza qilish organlari funksiyalari haqida turli xil fikrlar mavjud va ular quyidagilar.

Huquqni muhofaza qilish faoliyati o'zining mazmuniga ko'ra bir tomonlama emas. Uning ko'p qirraligi esa mazkur davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, mazmunini aniqlashda bajariladigan turli xil ijtimoiy funksiyalarda namoyon bo'ladi.

Sudlov va huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy funksiyalari:

- konstitutsiyaviy nazorat;
- odil sudlov;

- sud qarorlarini ijro etish;
- sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash;
- prokuror nazorati;
- jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish;
- jinoyat ishlari bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish va himoya qilish.

1. Konstitutsiyaviy nazorat – bu davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy ko'rsatmalarga zid bo'lgan huquqiy hujjatlarini va xatti-harakatlarini aniqlash, shuningdek, aniqlangan chetga chiqishlarni bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rish orqali Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlashga qaratilgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining funksiyasi. Bu funktsiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi zimmasiga yuklatilgan.

2. Odil sudlov deganda, qonunga va u bilan belgilangan tartibga qat'iy rioya qilgan holda jinoyat, ma'muriy, fuqarolik va iqtisodiy ishlarini ko'rib chiqish orqali turli nizolarni hal qilish tushuniladi. Odil sudlovni amalga oshirish funksiyasi sudlarga yuklatilgan. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

3. Sud qarorlarini ijro etish O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga ko'ra, Sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

4. Sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash – bu sudlov faoliyati, uning kadrlar zaxirasini shakllantirish, sudlar, adliya organlari va muassasalarining moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, ular faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun tegishli choralarni ko'rish. Ushbu funktsiyani amalga oshirish bir qator organlar zimmasiga yuklatilgan. Sud hokimiyati organlarini rivojlantirish jamg'armasi va byudjetdan tashqari Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi.

5. Prokuror nazorati deganda, huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan (funktsiyalaridan) biri, ya'ni qonun buzilish holatlarini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish, aybdor shaxslarni qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortish orqali qonunlarni aniq ijro etish va bir xilda qo'llash ustidan nazorat olib borish bo'yicha davlat nomidan maxsus vakolatli mansabdor shaxslar – prokurorlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tushuniladi.

6. Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish – bu maxsus vakolatli mansabdor shaxslar (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror) tomonidan protsessual qonuniga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshiriladigan hamda jinoyat sodir etishda aybdor bo’lgan shaxslarni aniqlash va fosh etishga, shuningdek, jinoyatning kelib chiqish sabablarini, sodir qilinishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlashga yo’naltirilgan faoliyatdir. Jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish ikkita shaklda amalga oshiriladi: surishtiruv va dastlabki tergov.

7. Jinoyat ishlari bo’yicha yuridik yordam ko’rsatish va himoya qilish advokatlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug’ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko’ngilli, kasbiy birlashmalarini o’z ichiga oladigan advokatura institutining asosiy vazifasidir. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, advokatura O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko’rsatadi.

1.3. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining tushunchasi, mazmuni va yuridik fanlar tizimida tutgan o’rni

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining tushunchasi va mazmuni.

Fan yoki o’quv kursining predmetini aniqlash, ilmiy bilimlar mazmunini tashkil etuvchi bilish jarayonining chegaralarini aniqlash, ushbu ilmiy tarmoq mazmunini o’rganish bilan bog’liq.

Avvalambor shuni ta’kidlash joizki, mazkur o’quv fani huquqiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi va boshqa huquq sohalari huquqiy tarmoq sifatida e’tirof etiladi, lekin mazkur fanni huquqiy tarmoq sifatida e’tirof etib bo’lmaydi. Chunki bu fan huquqning boshqa o’ziga xos tarmoqlari tarkibidan tashkil topgan ixtisoslashgan o’quv kursi bo’lib hisoblanadi. Biroq "Huquqni muhofaza qilish organlari" fani davlat va huquq sohasidagi barcha tadqiqotchilar uchun o’ta foydali va muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur o’quv fani murakkab va mukammal xarakterga egadir.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani predmetining mazmuni huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari, shuningdek, mazkur faoliyatda ishtirok etish uchun jalb etilgan ayrim nodavlat tashkilotlar to’g’risidagi

ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ularning orasida nafaqat huquqni muhofaza qilish to'g'risidagi ma'lumotlar, balki uning aniq yo'nalishlari (vazifalari) to'g'risida, shuningdek, ma'lum bir organlar yoki tashkilotlarni tuzish haqida, ularning tuzilishi, o'zaro aloqadorligi va bir-biriga bog'liqligi, ularning asosiy vakolatlari va vazifalari hamda butun davlat mexanizmi to'g'risidagi va bir-biri bilan o'zaro munosabatlari haqidagi ma'lumotlar markaziy o'rin egallaydi. Shu bilan birga tegishli organlar xodimlarini tayinlash va tavsiya etish tartibi, shuningdek, ularni javobgarlikka tortish asoslari va tartibiga juda katta e'tibor beriladi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani – huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, ularni tashkil etish hamda huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiradigan davlat organlarining tizimini o'rganuvchi yuridik fan hisoblanadi.

Ushbu tizimga kiruvchi davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari amalga oshiradigan faoliyati yuzasidan bir qator maqsadlarni ko'zlaydi.

Bu maqsadlar quyidagilardan iborat:

- 1.Qonun ustuvorligi va huquq-tartibotni ta'minlash;
- 2.Ijtimoiy adolatni ta'minlash;
- 3.Fuqaroviy tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash;
- 4.Jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurash olib borishni ta'minlash;
- 5.Fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tarbiyalash va shakllantirishni ta'minlash.

Yuqorida sanab o'tilgan umumiy maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan davlat tashkilotlariga:

- 1.Sud.
- 2.Prokuratura.
- 3.Adliya.
- 4.Jinoyat ishlarini tergov qiluvchi organlar.
- 5.Notariat kabi tashkilotlar kiradi.

O'zining mohiyatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatura - huquqiy instituti ham yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishish uchun faoliyat yuritadi.

Yuqorida qayd etilgan tashkilotlar va muassasalar davlatning umumiy qonunchiligiga rioya qilish bilan birga o'zining ichki qonunlariga ham bo'ysunadilar. Ular maqsadlariga erishish uchun aniq

vazifalarni amalga oshiradilar. Shu bilan birga ular davlat bilan jamiyatning huquqni muhofaza qilish va huquqni qo'riqlash faoliyatlarida o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Mazkur fanning maqsadi – huquqshunos talabalarga huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish mexanizmi, shuningdek, ularni amalga oshiruvchi tashkilotlar haqida ma'lumotlar berishdan iborat. "Huquqni muhofaza qilish organlari" fanida ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar o'rganiladi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining predmeti xorijiy mamlakatlarning sud va prokuratura organlarining tamoyillarini, vazifalarini, tuzilishini belgilovchi huquqiy normalarni, shuningdek, har bir mamlakatning umumiy qonunchiligida yuzaga keladigan o'ziga xos tarixiy sharoitlari va sabablarini o'rganadi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining mazmuni quyidagi bo'limlardan iborat:

1) Huquqni muhofaza qilish organlari fanining asosiy tushunchasi, predmeti va xususiyatlari, huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risida qonunchilik bo'limi;

2) O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati, shuningdek, sud tizimini tashkil etish, sud korpusini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va umumiy yurisdiksiyadagi sudlar;

3) Odil sudlov va uning asosiy tamoyillari;

4) Sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy texnik jihatdan ta'minlash faoliyati;

5) Prokuratura va prokuror nazorati;

6) Jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishni amalga oshiruvchi organlar;

7) Yuridik xizmat ko'rsatuvchi organlar, ularni tashkil etish va ularning vazifalari;

8) Xorijiy mamlakatlarning sud, prokuratura va boshqa huquq-tartibotni ta'minlovchi organlar.

Oxirgi yillarda "Huquqni muhofaza qilish organlari" fani mazmuni va tizimi yuzasidan bir qancha izlanishlar olib borilmoqda. Rossiya Federatsiyasida oxirgi yillarda nashr etilgan ayrim darsliklarda huquqni muhofaza qilish organlari qatoriga kiruvchi Hisob palatasi, FVV (Favqulodda vaziyatlar vazirligi), Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza

qilish vazirligi, Statistika, Standartlashtirish, Meterologiya davlat qo'mitalari tashkil etilgan.

Shubhasiz ushbu organlar davlat mexanizmida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak huquqshunoslar uchun yuqorida qayd etilgan organlarni tashkil etish yuzasidagi masalalarni o'rganish kerak, lekin "Huquqni muhofaza qilish organlari" fanida emas, balki Konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi fanlari ushbu organlarga ko'proq e'tibor beradi. Bu esa bo'lajak huquqshunoslarga mazkur organlarni yanada chuqurroq o'rganish uchun imkoniyat yaratadi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining yuridik fanlar tizimida tutgan o'rni.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» – yuridik fan emas, balki o'quv fani bo'lib, u talabalarga huquqni muhofaza qilish sohasida boshlang'ich bilimlarni beradi, lekin ushbu bilimlar boshqa o'quv fanlarida aniq va kengroq beriladi. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani o'zining predmetiga ega va yuridik fanlar tizimida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda bu fan boshqa yuridik fanlar bilan ma'lum bir munosabatda va aloqadadir.

Avvalambor, bularning orasida davlat va huquqni kelib chiqishi va mohiyatini, ularning harakatlanish mexanizmini rivojlanishini o'rganuvchi "davlat va huquq nazariyasi" fanini ko'rsatib o'tish lozim. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani davlat va huquq nazariyasida belgilangan tushunchalarga ya'ni davlat, uning funktsiya va vazifalari, mexanizmi hamda huquq, huquq ijodkorligi, huquqiy norma, huquqni anglash, qonuniylik va hokazolarga tayanadi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani "Davlat va huquq tarixi" yuridik fani bilan ham chambarchas bog'liqdir. Sud, prokuratura, adliya, ichki ishlar va advokatura organlarining tashkil etilishi va ularning faoliyati bilan bog'liq masalalarni bilish uchun tarixiy jihatdan yondashish kerak. Shuningdek, aniq huquqiy jarayonlarni statistikada emas, balki tarixiy hodisalar manzarasida, to'plangan yuridik tajribalarni xorijiy mamlakatlar tajribalari bilan taqqoslash orqali o'rganish lozim. Bunday ma'lumotlarni o'rganish o'zimizning va xorijiy tarixni bilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani "Konstitutsiyaviy huquq" fani bilan bog'liqligi shundaki, unda huquqni muhofaza qilish organlarining barcha davlat organlari tizimidagi o'rni va

roli haqida umumiy tavsif berilgan. Bundan tashqari ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarning xususiyatlari va tuzilishi, hamda faoliyati bilan bog'liq bo'lgan konstitutsiyaviy tamoyillari va boshqa ko'plab masalalar yoritib berilgan. Yuqorida ko'rsatilgan masalalarni ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar asosida amalga oshiriladi.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani "Ma'muriy huquq" fani bilan bog'liqligi. Bu fanda barcha davlat boshqaruv organlarining vakolati va tizimiga oid normalar o'rganiladi. Ushbu bog'liqlik, avvalambor O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va unga bo'ysunuvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarda ko'rinadi. "Ma'muriy huquq" fanida ko'rsatilgan organlar davlat boshqaruvining butun tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga unda tegishli qilmishlar uchun ma'muriy javobgarlikni qo'llash to'g'risidagi asosiy qoidalar o'rganiladi.

Mazkur fan "Jinoyat huquqi" va "Jinoyat protsessual huquqi" fanlari bilan har tomonlama aloqador. Ushbu fanlar inson va fuqarolarning hayoti, sog'lig'iga qarshi jinoyatlarga, terrorizm, iqtisodiy va boshqa jinoiy huquqbuzarliklarga qarshi kurash, shuningdek, jinoyatlarni fosh etishning protsessual tartibi, jinoyatni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish va bunday shaxslarga nisbatan huquqiy ta'sir etish choralarini qo'llashga oid masalalarni o'zida ifodalaydi.

Huquqni muhofaza qilish organlarini tashkil etish, ular tomonidan bajariladigan faoliyatning mazmuni va amalga oshiriladigan aniq harakatlarning tartibi (jarayoni)ga ma'lum miqdorda bog'liqdir. Aksincha: tashkiliy faoliyatning mazmuniga doir masalalarni hal qilishga, aniqrog'i, prokuror bilan tergovchi, prokuror bilan sud hamda ayblanuvchining himoyachisi - advokati bilan tergovchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday bo'lishi va amalda qanday bo'layotganiga bog'liq.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani "Soliq huquqi" bilan ham ma'lum aloqada bo'lib, xususan, huquqni muhofaza qilish faoliyatida o'z-o'zini boshqarish sub'ektlari, ya'ni soliq organlari bilan aloqadordir. Ular soliq sohasiga oid huquqbuzarliklarni fosh etadi va bartaraf etadi. Bundan tashqari ular soliq va yig'implarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlaydi, shuningdek, soliq va yig'implarni to'lashdan

bo'yin tovlagan yuridik va jismoniy shaxslarni aniqlab, ularni javobgarlikka tortadilar.

«Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» o'quv fani sifatida "Fuqarolik protsessi" fani bilan ham chambarchas bog'liq. Bu fan huquqni muhofaza qilish organlaridan biri bo'lgan sudlarning faoliyati bilan bevosita aloqada, lekin bu sudlar mulkiy va ayrim nomulkiy nizoli ishlarni – fuqarolik ishlarini ko'rib chiqadi va hal qiladi.

Bundan tashqari yuridik oliygohlarning yuqori bosqichida ta'lim olayotgan talabalarga "Prokuror nazorati" fani ham o'tilmoqda. Bu fan – «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining ma'lum bir mavzusi bo'lmish prokuratura va uning organlariga bog'liq qo'shimcha ma'lumotlar beradi. Ushbu ma'lumotlar prokuraturani tashkil etish asoslari haqida ma'lum tushunchalarni kengaytirib beradi, ya'ni prokuror nazorati va prokuratura faoliyatining boshqa yo'nalishlarini amalga oshirish mazmuni, shakli va uslublari haqidadir. Shunday qilib, «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani boshqa huquqiy tarmoqlar va yuridik fanlar bilan aloqadorligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni yakunlash mumkin.

1.4. Huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risidagi qonunchilik

O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risidagi qonunchilik «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani manbalari bazasini tashkil etadi va ko'pgina normativ hujjatlardan iborat. Ushbu normativ hujjatlar ularning predmeti (mazmuni), shakli (manbalar turlari) va ularning yuridik ahamiyati bo'yicha tasniflanishi mumkin.

Huquqiy tartibga solishning predmeti bo'yicha quyidagi normativ hujjatlar ajratiladi:

1) universal normativ hujjatlar (umumiy tusdagi) – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro hujjatlar:

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (qo'shilish sanasi: 30.09.1991-y.);

1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt (qo'shilish sanasi: 31.08.1995-y.);

1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktga doir fakultativ bayonnoma (qo'shilish sanasi: 31.08.1995-y., kuchga kirgan sanasi: 28.12.1995-y.);

1958-yil 10-iyunda imzolangan Chet el mamlakatlari hakamlik qarorlarini e'tirof etish va ijro etish to'g'risidagi Nyu-York Konvensiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrda 184-I-son Qarori bilan ratifikatsiya qilingan);

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 1995-yil 26-mayda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Konvensiyasi;

1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiya (1997-yil 28-martdagi o'zgartirishlar bilan);

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan joyatchilikka qarshi konvensiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 30-avgustdagi 536-II-son Qarori bilan ratifikatsiya qilingan);

Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya va Yakunlovchi Bayonnoma (qo'shilish sanasi: 12.12.2003-y.);

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 576-II-son Qarori); Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) (O'zbekiston Respublikasi mazkur hujjatga 2008-yil 7-iyuldagi O'RQ-158-son Qonun bilan qo'shilgan) va boshqalar.

2) maxsus qonun hujjatlari, ular quyidagilarga bo'linadi:

sud hokimiyati, odil sudlov va sudlar to'g'risidagi hujjatlar ("Sudlar to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunlar);

sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash va ushbu ta'minotni amalga oshiruvchi organlar to'g'risidagi hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi 2001-yil 29-avgustdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi 258-II-son Qonuni);

prokuror nazorati va prokuratura organlari to'g'risidagi hujjatlar ("Prokuratura to'g'risida"gi Qonun);

jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish ishlarini tashkil etish hamda ushbu ishlarni amalga oshiruvchi organlar to'g'risidagi hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi va "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunlar);

yuridik yordamni tashkil etish to'g'risidagi hujjatlar ("Advokatura to'g'risida"gi va "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlar).

Shakli (manbalarning turi) bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi turlarga bo'linadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasining qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va normativ-huquqiy mazmunga ega bo'lgan farmoyishlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari ularning yuridik kuchi bo'yicha tasniflanishiga asos sifatida xizmat qiladilar.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha tasniflanishi amaldagi qonun ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Barcha boshqa masalalar bo'yicha hujjatlar kabi huquqni muhofaza qiluvchi organlar to'g'risidagi huquqiy hujjatlar aniq ierarxiya tuzilishni tashkil etadilar.

YODDA SAQLANG!!! Normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha quyidagi ierarxiyasi o'rnatilgan:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 6) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari;
- 7) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy qarorlari².

2023-yil 30-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari", XXIII bobi "Sud hokimiyati" va XXIV bobi "Advokatura", XXV bobi "Prokuratura" «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani uchun eng ahamiyatlidir.

² O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun. 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son, 6-modda.

Turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha o'zaro nisbati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organning vakolatiga va maqomiga, shuningdek, hujjatlarning turlariga muvofiq belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjat o'ziga qaraganda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shart.

Normativ-huquqiy hujjatlar bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idorasining ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idorasining normativ-huquqiy hujjatiga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganlar «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani huquqni muhofaza qilish organlari to'g'risidagi qonunchilikni o'rganish natijalariga asoslangan keng nazariy va normativ bazasiga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Nazorat uchun savollar

1. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fani metodlarini tushuntirib bering?

2. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining boshqa jinoyat-huquqiy fanlar tizimidagi o'rnini tushuntirib bering?

3. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining boshqa jinoyat-huquqiy fanlar bilan bog'liqligi tushuntiring. Ushbu fanlarga misol keltiring?

4. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining predmeti va tizimini tushuntirib bering?

5. Nima sababdan huquqni muhofaza qilish organlarning tashkil etilishini, tuzilishini va vakolatlarini, birinchi navbatda, ularga yuklatilgan funksiyalar belgilaydi?

2-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUD TIZIMI

Reja:

- 2.1. Hokimiyatlar bo‘linishi tizimida sud hokimiyati.
- 2.2. Mustaqil O‘zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi.
- 2.3. Odil sudlov va uning demokratik tamoyillari.
- 2.4. Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirish. Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish.

2.1. Hokimiyatlar bo‘linish tizimida sud hokimiyati

Hokimiyatlar bo‘linish prinsipi davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirishda davlat hokimiyatining organlari bir-birini tiyib turishi va muvozanatni saqlash mexanizmining o‘rnatilishini nazarda tutadi,

O'zbekiston	Respublikasi
Konstitutsiyasining	11-moddasiga
ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi".	

qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining mustaqil harakat qilishini va mustahkam aloqada ishlashini ta'minlaydi.

“Sud hokimiyati” tushunchasining shakllanishi masalasi alohida diqqat-e'tiborni o'ziga qaratadi. Sud hokimiyatini nazariy jihatdan o'rganish, jumladan uning mavjud bo'lishi yoki yo'qligi masalasini aniqlash, ushbu hokimiyat tarmog'ini sud tizimi bilan tenglashtirishga yo'l qo'ymaslik zarurati tufayli qiyinlashadi. Darhaqiqat, “sud hokimiyati” tushunchasi ko'pincha sud tizimi bilan tenglashtiriladi. Holbuki, sud tizimining mavjud bo'lishi sud hokimiyatining alohida hokimiyat tarmog'i sifatida mavjudligini ko'rsatmaydi. Chunki sud hokimiyatiga ta'rif berishning zaruriy qismlar sifatida qonun tomonidan taqdim etilgan vakolatlarni amalga oshirishda mustaqillik va erkinlik kabi tushunchalar xizmat qiladi.

Sud hokimiyatini muayyan vazifani amalga oshiradigan va mustaqil faoliyat sohasiga ega bo'lgan hokimiyatning mustaqil tarmog'i sifatida ta'riflaydigan quyidagi belgilarni ajratadilar:

1) sud hokimiyati to'g'risida gap yuritish insonning **“erkinlik hududini”** qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar aralashishdan

haqiqiy himoya qilishga imkoniyat beradigan vakolatlar sudga taqdim etilgan holdagina mumkin;

2) sud tizimida yangi sifat paydo bo'lishi, ya'ni uning sud hokimiyatiga aylanishi, ushbu tizimning **mustaqil ishlab turish** shartlarining mavjud bo'lishini talab qiladi;

3) sud hokimiyatining "avtonomligi" faqat nisbiy bo'lishi mumkin, chunki mazkur hokimiyat boshqa hokimiyatlar bilan o'zaro bog'lamasdan o'z faoliyatini samarali amalga oshira olmaydi: sud tomonidan hal etiladigan nizolar doirasi qonun (ya'ni qonun chiqaruvchi hokimiyatining qarorlari) bilan aniqlanadi, sud qarorlarining hamma uchun majburiy kuchini amalga oshirish aksariyat hollarda **ijro etuvchi** hokimiyat organlarining ayrim harakatlarini talab qiladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda shakllantirilgan sud hokimiyatining belgilari:

Birinchi belgi. Konstitutsiyaning 106-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sud hokimiyatining **ikkinchi belgisi** – ushbu hokimiyat mustaqil ishlab turish shartlarining mavjud bo'lishi. Mazkur belgi maxsus vakolatli mustaqil organ hisoblanadigan va sudlar faoliyatini moliyaviy va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash vazifasini bajaradigan organ tashkil etilishi orqali amaliyotga tatbiq etildi.

Sud hokimiyatining **uchinchi belgisi** sud hokimiyatining "avtonomligi" nisbiy tusga egaligi. Bu belgi asos quyidagi ikki qismdan iborat:

1) inson huquq va erkinliklarining minimumini mustahkamlaydigan xalqaro hujjatlarni davlat tomonidan ratifikatsiya qilish va shu orqali ushbu hujjatlarni huquq manbalar ierarxiyasining eng yuqori darajasiga qo'yish. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 60 tadan ortiq asosiy hujjatga qo'shildi, BMT tomonidan bu sohada qabul qilingan 6 ta **asosiy xalqaro shartnoma** qatnashchisiga aylandi.

2) sudlarda konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasi paydo bo'lishi va mazkur vazifaga asosan sud hokimiyati qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ular konstitutsiyaga zid bo'lganligi sababli bekor qilish huquqiga ega bo'lishi. Konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasini Konstitutsiyaviy sud amalga oshiradi. Ushbu sud qonun

chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radi va xulosalar beradi.

Yuqorida keltirilgan sud hokimiyatining umumiy ta‘rifi mazkur tushunchaning ko‘p qirrali ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kungacha sud hokimiyatining tushunchasi va mohiyati, sud hokimiyatining hokimiyat tarmoqlarining bo‘linishi tizimida, xususan, hokimiyatlar bir-birini tiyib turish va muvozanatni saqlash mexanizmida o‘rni, sud hokimiyatini amalga oshirishning shakllari, inson huquqlarini himoya qilishda sud hokimiyatining roli kabi masalalar ko‘plab tadqiqotlarning mazmuni sifatida xizmat qiladi.

Sud hokimiyati tushunchasining ayrim ta‘riflari orasida quyidagi ta‘rifni ajratish o‘rinli.

“Sud hokimiyati alohida protsessual shaklida odil sudlovni amalga oshirish va ijro uchun majburiy bo‘lgan qarorlarni qabul qilish orqali jamiyatda vujudga kelgan huquqiy tisdagi nizolarni hal qilish bo‘yicha sudlarga taqdim etilgan maxsus vakolat hisoblanadi.

Shunday qilib, sud hokimiyatining tushunchasi quyidagi ikkita qismdan iborat:

- **birinchidan**, ushbu hokimiyat maxsus ta‘sis qilingan organlar – sudlar tomonidan amalga oshiriladi;

- **ikkinchidan**, mazkur organlar faqat ularga xos bo‘lgan vakolatlar va ta‘sir choralar qo‘llash imkoniyatlarga ega (belgilangan protsessual shakllarga qat‘iy rioya qilgan holda hamda protsessual va moddiy qonun me‘yorlarining talablariga muvofiq ular vakolatiga kiritilgan ishlarni hal qilish bo‘yicha tegishli vakolatlar).

Ushbu belgilar o‘zaro aloqali va o‘zaro bog‘liqdir, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas.

O‘zbekiston qonunchiligida sud hokimiyati amalga oshirilishining quyidagi shakllari mustahkamlangan:

1. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘rish;

2. Sudga qadar ish yuritish ustidan nazorat qilish (ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish; amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rish va b.q.);

3. Sud hujjatlarining (hal qiluv qarori, hukm, ajrim, qarorlarning) ijro etilishini ta‘minlashga, shuningdek, haqamlik sudlarining hal qiluv qarorlari bo‘yicha ijro varaqalari berishga doir ishlarni ko‘rish;

4. Qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berish;

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish;

6. Sudlar faoliyatini tashkiliy jihatidan ta'minlashda, sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etishda ishtirok etish;

7. Odil sudlovni amalga oshirish. Odil sudlov fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy ishlarni hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish va hal qilish orqali amalga oshiriladi.

Sud hokimiyatini amalga oshirishning asosiy shakli sud ishlarini yuritishdir, ya'ni taraflarning teng huquqliligi va ish yuritishning tortishuv prinsiplariga asoslangan odil sudlovdir. Odil sudlov adolat talablariga javob bersa va huquqlarning tiklanishini ta'minlay olsa odil sudlov bo'ladi.

Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar (hal qiluv qarori, hukm, ajrim, qaror) barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi shart (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasi).

Sud tomonidan qabul qilinadigan qarorlar nafaqat davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun, balki sudning o'zi uchun ham majburiydir, sud qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish faqat apellyatsiya va kassatsiya tartibida tegishli sud instansiyalari tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

2.2. Mustaqil O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi

O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1) Rossiyaga qo'shib olinishidan oldin O'zbekistonda (Turkiston o'lkasida) sud hokimiyati;

2) chor Rossiyasi davrida O'zbekistonda (Turkiston o'lkasida) sud hokimiyati;

3) Oktyabr revolyutsiyasidan so'ng, lekin O'zbekiston SSR tashkil etilishidan oldin O'zbekistonning (Turkistonning) sud hokimiyati;

4) O'zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kirgan davridagi sud hokimiyati;

5) O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sud hokimiyati.

Sud hokimiyatining O'zbekiston hududida rivojlanishi va shakllanishining ko'rsatilgan har bir bosqichini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Birinchi bosqich – Rossiyaga qo'shib olinishidan oldin O'zbekistonda (Turkiston o'lkasida) sud hokimiyati. Rossiyaga qo'shib olinishdan oldin O'rta Osiyo uchta feodal davlatlar o'rtasida bo'lingan edi: Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligi.

Xon va amir ularning hokimiyatlariga xavf tug'diradigan xatti-harakatlar bo'yicha jinoyat ishlarini ko'rib, sud hokimiyatini amalga oshirishgan.

Qozi-kalon (qozi-kuzzat), ya'ni oliy sudya "odil sudlovni" amalga oshirishda xon va amirning o'ng qo'li bo'lgan. U bir vaqtning o'zida ham diniy, ham sud hokimiyatini amalga oshirgan. Rasmiy hujjatlarda u "odil sudlov tayanchi (ustuni)" deb nomlangan.

Shariat qonunlariga rioya etgan **qozi sudlari** hamda xalq urf-odat normalari bo'yicha o'z qarorlarini qabul qiladigan **biy sudlari** O'zbekiston hududida deyarli **13 asr** davomida o'z faoliyatini amalga oshirgan.

Qozikalon xonlik, amirlikning barcha qozilariga rahbarlik qilgan. U yangi tayinlanayotgan qozilarning nomzodlarini xon, amirga tasdiqlash uchun taqdim etish, shuningdek, ularni attestatsiyadan o'tkazish huquqiga ham ega bo'lgan.

Qozi-kalon murakkab jinoyat va fuqarolik ishlarini, shuningdek, xonlik, amirlikning poytaxti doirasida vujudga kelgan barcha ishlarni ko'rgan. Joylarda sud hokimiyatini qozilar amalga oshirgan. Qozilar tomonidan ishlar og'zaki va oshkora ko'rilib, shariat yozma normalariga asosan hal qilingan, shariat bo'yicha qozining qarori ustidan bek, xon yoki amirga shikoyat qilish mumkin bo'lgan.

Tergov va prokuratura organlari yo'q bo'lganligi sababli, qozi jinoyat ishlarini o'zi hech qanday dastlabki tergovsiz ko'rib chiqardi.

Sud vazifalarini qozi-askari (harbiy sudya) harbiy xizmatchilar va bek huzuridagi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni ko'rgan.

Ikkinchi bosqich – chor Rossiyasi davrida O'zbekistonda (Turkiston o'lkasida) sud hokimiyati. 1865-yil 6-avgustdagi Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi vaqtincha nizom mahalliy sudning tuzilishiga daxldor bo'lgan chor hukumatining birinchi hujjatidir. Mazkur nizomga muvofiq, qozi sudlari harbiy gubernatorlarga

bo'ysundirilgan. Qozikalon, qoziaskari mansablari yo'q qilingan va ularning o'rniga aholi tomonidan uch yilga saylanadigan yagona qozilar sudi joriy etilib, har bir qozi uchastkasining chegaralari belgilangan.

Da'voning bahosi 100 rublgacha bo'lgan fuqarolik ishlari **uchastka qozi sudiga** tegishli bo'lgan, qolgan jinoyat va fuqarolik ishlari esa vaqti-vaqti bilan yig'iladigan qozilar qurultoylarida ko'rilgan. Qozilar qurultoyining hukmlari kollegial tartibda chiqarilganligi tufayli uzil-kesil bo'lib, ularning ustidan shikoyat qilish mumkin bo'lmagan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha har ikkala taraf qarordan norozi bo'lgan holda chor sudiga murojaat qilish imkoniyati mavjud bo'lgan. Oila-nikoh ishlari bo'yicha qozi sudining qarorlari ustidan shikoyatlar uezd boshlig'iga berilardi, u esa ishni o'zi hal qilardi yoki uni harbiy gubernator ixtiyoriga taqdim etardi.

1886-yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom bilan "qozi sudlari" degan nom "**xalq sudlari**" degan nomga o'zgartirilgan. Biroq, ushbu sudlar avvalgiday biy sudlari va qozi sudlariga bo'linardi. So'ng ikkita sud instansiyalari o'rnatilgan: "xalq" sudyasi va uezd boshlig'i tomonidan chaqiriladigan "xalq" sudyalari qurultoyi. Bundan tashqari, uezd boshlig'i hukm yoki qaror ijrosini to'xtatishga va viloyat sudiga shikoyat qilish uchun ishni prokurorga yuborishga haqli bo'lgan. Ya'ni ish yuqori turuvchi instantsiya sudi tomonidan ko'rib chiqilishi uchun apellyatsiya shikoyatining mavjudligi talab etilmagan. Uezd boshlig'ining qarori ishni yuborish uchun faktik asos bo'lgan.

"Xalq" sudlarining hukmlari va qarorlari ustidan uezd boshlig'iga shikoyat qilish mumkin edi, u esa hukm yoki qaror ijrosini to'xtatishga haqli bo'lib, shikoyatni, o'z navbatida, "xalq" sudyalari qurultoyiga ko'rib chiqish uchun taqdim etardi. Qurultoy muayyan tumandagi sudyalarning uchdan ikki qismidan iborat bo'lgan. Shunday qilib, "xalq" sudyalari qurultoyi faktik apellyatsiya instansiyasi bo'lgan. Qurultoy huquqlari doirasidan chiqmagan holda qabul qilingan qurultoy qarorlari uzil-kesil bo'lgan.

1867-yilda hozirgi O'zbekiston hududida birinchi **chor sudlari** tashkil etilgan. Uezd sudlari birinchi instansiya sudlari bo'lgan va kelishtiruvchi sudyalarining huquqlaridan foydalangan. Hukmlar uzil-kesil va uzil-kesil bo'lmagan toifalarga bo'linardi. Uezd sudyalarining uzil-kesil bo'lmagan hukm va qarorlar ustidan viloyat boshqarmalarga shikoyat qilinardi.

Viloyat boshqarmalar viloyat sudlarning tashkil etilishiga qadar sud vazifalarini bajarardi. Ular sud sifatida uezd sudyalarining ishlarini apellyatsiya tartibida ko‘rardi.

1867-yildagi nizom loyihasi bo‘yicha viloyat mahkamalarining qaror va hukmlari ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatlari senat tomonidan ko‘rilardi. Biroq Turkiston general-gubernatori 1878-yilda hakamlik qurultoyi huquqlari asosida qabul qilingan viloyat mahkamalarining qarorlarini kassatsiya tartibida ko‘rish huquqini noqonuniy ravishda egalladi. General-gubernator devonxonasining xizmatchilari ishlarning kassatsiya tartibida ko‘rilishining mazmunini o‘zlashtirmagan bo‘lib, butunlay to‘g‘ri bo‘lgan qarorlarni bekor qilish to‘g‘risidagi bildirgilarni tayyorlardi, noto‘g‘ri qarorlar ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini esa oqibatlarsiz qoldirardi.

General-gubernator viloyat mahkamaning qarorlarini bekor qilganida ishni takroriy ko‘rish uchun sud tarkibini o‘zi tayinlardi. Ta’ sis etilgan vaqtinchalik harbiy-sud komissiyalari harbiy va umumiy jinoyat ishlari bo‘yicha qaror qabul qilardi. Ularning hukmlari ustidan shikoyat qilish mumkin emas edi.

Kelishtiruvchi sudlari har bir uezd va Toshkent shaharda ta’ sis etilardi. Asosan ular diniy, siyosiy, mansab jinoyatlar, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, odam o‘ldirish, bosqinchilik va jinoyatlar bo‘yicha rus va mahalliy aholining vakillarini ayblash yuzasidan ishlarni ko‘rardi.

Kelishtiruvchi sudlarining hukm va qarorlari ustidan apellyatsiya shikoyatlari va prokuror protesti, shuningdek, xususiy shikoyatlar viloyat sudiga berilardi.

Viloyat sudlari sud palatasi va kelishtiruvchi sudlar qurultoyining huquq va majburiyatlarini o‘zida birlashtirardi. Viloyat sudlari oldin viloyat mahkamalari va kelishtiruvchi sudlar qurultoylari sudloviga tegishli bo‘lgan barcha ishlarni qo‘rardi. Bundan tashqari, ularga mahalliy aholining qozi va biy sudlari hukm va qarorlarini bekor qilish huquqi taqdim etilgan.

1898-yilda Turkistonda 1864-yildagi Sud nizomlari joriy etilgan. Sud nizomlarini qo‘llash to‘g‘risidagi vaqtinchalik qoidalariga muvofiq, uchastka va qo‘shimcha kelishtiruvchi sudlari; okrug sudlari; sud palatasi ta’ sis etilgan.

Uchastka va qo‘shimcha kelishtiruvchi sudlari sudlovga tegishliligi jinoyat va fuqarolik sud ish yurituvining nizomlari bilan belgilanadigan

jinoyat va fuqarolik ishlarini qoʻrardi. Ahvol huquqidan mahrum etishga yoki uni cheklashga olib kelmaydigan jinoyat va nojoʻya harakatlar toʻgʻrisidagi ishlar kelishtiruvchi sudya tomonidan koʻrilardi. Ularning qarorlari ustidan protest va shikoyatlar okrug sudiga berilardi.

Okrug sudlari ishlarni birinchi instantsiya sudi sifatida koʻrardi. Ishlar maslahatchilar ishtirokida koʻrilardi, maslahatchilar sifatida esa faxriy uchastka va qoʻshimcha kelishtiruvchi sudyalarning taklif etilishi mumkin edi. Okrug sudi tomonidan birinchi instantsiya sifatida koʻrilgan ishlar boʻyicha apellyatsiya instantsiyasi sud palatasi boʻlgan.

Sud palatasi 1899-yil 14-mayda Toshkentda tashkil etilgan. U birinchi instantsiya sudi sifatida qonunga muvofiq, uning sudloviga tegishli boʻlgan jinoyat va fuqarolik ishlarining eng muhim toifalarini koʻrgan. Uchastka sudlari tomonidan koʻrilgan ishlar boʻyicha sud palatasi kassatsiya instantsiyasi vazifalarini bajarardi. Kelishtiruvchi sudyalarning qurultoyi sifatida chiqarilgan okrug sudlarining uzil-kesil qaror va hukmlari ustidan berilgan protest va shikoyatlar yuzasidan ishlarni koʻrish boʻyicha senatning vazifalari ham sud palatasiga yuklatilgan edi. Sud palatasi katta rais, uchta podsholik sudyalari va uchta mahalliy faxriy kelishtiruvchi sudyalardan iborat boʻlgan.

Uchinchi bosqich – Oktyabr revolyutsiyasidan soʻng, lekin Oʻzbekiston SSR tashkil etilishidan oldin Oʻzbekistonning (Turkistonning) sud hokimiyati. 1921-yildan boshlab RKP(b) MK koʻrsatmalariga asosan, Turkistonda qozi sudlari institutining qisman tiklanishi boshlandi.

1921-yil 6-oktyabrdagi Qozi sudi toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq Fargʻona viloyatida yagona xalq sudi bilan birga qozi sudlari ham legallashtirilgan. Mazkur sudlarning birinchi instantsiyasi ishlarni yakka tartibda koʻrgan qozi boʻlgan. Ikkinchi - apellyatsiya instantsiyasi 2-5 kishidan iborat boʻlgan qozilar qurultoyi, kassatsiya instantsiyasi esa (qozi qurultoyi qarorlari ustidan kassatsiya tartibda shikoyat qilish uchun) viloyat yoki uezd adliya boʻlimining taqdimnomasi boʻyicha yoki xulosasi bilan ishlarni koʻrgan **ispolkom rayosati** boʻlgan.

Nizomga binoan, qozi taraflarning vujudga kelgan nizoni shariat boʻyicha hal qilinishiga rozi boʻlganligi haqidagi yozma arizasi boʻyicha ishlarni koʻrishga haqli edi. Taraflarning biri nizo ushbu tartibda koʻrib chiqilishiga rozi boʻlmagan holda sudlovga tegishlilik haqidagi masala qarori uzil-kesil hisoblangan alohida komissiyaga hal qilish uchun taqdim etilishi mumkin edi. Keyinchalik xalq qozilari va xalq

biylarining qaror va hukmlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'radigan apellyatsiya instantsiyasi xalq qozilari va xalq biylarining qurultoyi, kassatsiya instantsiyasi esa xalq sudlari kengashining musulmon bo'limi (mahkamaishariya) bo'lgan. Shikoyat qilish uchun belgilangan muddat qaror yoki hukm chiqarilgan kundan boshlab 15 kunlik muddatni tashkil etardi. Biroq ushbu tizim uzoq amal qilmagan edi. 1924-yilda apellyatsiya to'liq bekor qilingan edi, 1928-yilda esa qozi sudlari ham bekor qilingan edi.

Turkiston ASSRning 1923-yildagi Sud tuzilishi to'g'risidagi nizomga asosan, Turkiston hududida quyidagi sud tizimi amal qilgan edi:

1) ishlarni yakka tartibda yoki ikkita xalq maslahatchilari ishtirokida ko'rgan xalq sudi;

2) viloyat sudi;

3) RSFSR Oliy sudining bo'linmasi.

Xalq sudi sud tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, jinoyat va fuqarolik ishlarining asosiy qismini ko'rardi.

Viloyat sudi xalq sudlarining ishlari bo'yicha kassatsiya instantsiyasi vazifalarini bajarardi hamda viloyatdagi barcha sud-tergov muassasalariga rahbarlik qilardi. U birinchi instantsiya sudi sifatida oldin xalq sudlari tomonidan oltita xalq maslahatchilari ishtirokida ko'rilgan eng muhim jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rardi.

RSFSR Oliy sudining Turkiston bo'linmasi quyidagi tarkibda faoliyat yuritgan edi: bo'linma rayosati; jinoyat ishlari bo'yicha kassatsiya kollegiyasi va jinoyat ishlari bo'yicha sud kollegiyasi. Uning vazifalariga quyidagilar kirardi: Oliy sud bo'linmasining a'zolari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash; sud kollegiyasida ko'rilayotgan ayrim ishlar bo'icha maxsus sud tarkiblarini tayinlash; kollegiyalarning hisobotlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, Oliy sud bo'linmasi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash; respublika prokurori takliflari bo'yicha viloyat sudlarida maxsus taftish o'tkazilishini tayinlash va ushbu taftishlar natijalarini tinglash; Oliy sud bo'linmasining a'zolari, viloyat sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlariga nisbatan taftishlar natijalari yoki respublika prokurorining alohida xabarlari bo'yicha intizomiy ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish.

Kassatsiya kollegiyasi ikkinchi instantsiya sudi sifatida faqatgina viloyat sudlari tomonidan ko'rilgan jinoyat ishlarini ko'rardi. Jinoyat ishlari bo'yicha sud kollegiyasi birinchi instantsiya sudi sifatida alohida

davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishlarni ko'rardi. Fuqarolik ishlari viloyat sudlari tomonidan ko'rilardi. Ularning qarorlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bevosita RSFSR Oliy sudiga yuborilardi. Ta'kidlab o'tamiz, RSFSR Oliy sudining Turkiston bo'linmasi tuzilmasida Plenum yo'q edi, uning vazifalari RSFSR Oliy sudi vakolatiga kiritilgan edi.

Muayyan ish toifalarini ko'rib chiqish uchun maxsus sudlar, ya'ni harbiy tribunallar; xalq sudlarining alohida mehnat sessiyalari, yer komissiyalari va arbitraj komissiyasi tashkil etilishi ham nizomda nazarda tutilgan edi.

To'rtinchi bosqich – O'zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kirgan davridagi sud hokimiyati.

Yangi tashkil etilgan viloyatlarda (Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm), shuningdek, oldindan bo'lgan Samarqand va Farg'ona viloyatlarida viloyat sudlari ta'sis etilgan.

1922-yildagi RSFSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizomga muvofiq yangi tashkil etilgan O'zSSR Oliy sudi va viloyat sudlari o'z faoliyatini boshlagan edi.

O'zSSR Oliy sudi quyidagi tarkibda o'z faoliyatini yuritgan edi: yalpi majlisning rayosati, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha kassatsiya kollegiyasi, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud kollegiyasi va intizomiy kollegiya.

Xalq sudlari ham mavjud bo'lgan, ular milliy-davlat chegaralash jarayonining boshida ikkita bir-biridan keskin farqlanadigan guruhlariga bo'lingan edi:

1) oldin Turkiston Respublikasiga kirgan viloyatlarning (Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarining) xalq sudlari;

2) O'zbekistonga yangi qo'shilgan viloyatlarning xalq sudlari. Birinchi guruhdagi sudlar yaxshiroq sud apparati bilan farq qiladigan bo'lsa, ikkinchi guruhdagi sudlarning faoliyati mazkur viloyatlarda aholiga muhim ta'sir o'tkazadigan qozi sudlarining katta soni tufayli boshida qiyinchiliklarga duch keldi.

1926 yildagi O'zSSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizom. O'zSSRda viloyatlar o'rniga okruglar tashkil etilishi munosabati bilan viloyat sudlari tugatilgan va ular o'rniga okrug sudlari tashkil etilgan. SSSR va soyuz respublikalarida sud tuzilishi asoslarining ko'rsatmalaridan kelib chiqib, nizom O'zSSR hududida quyidagi yagona sud tizimini o'rnatgan edi:

- 1) xalq sudi;**
- 2) okrug sudi;**
- 3) Oliy sud.**

Bundan tashqari, maxsus sud tarkibini va ko'rib chiqish maxsus tartibini talab qiladigan alohida toifali ishlarni ko'rib chiqish uchun maxsus sud-ma'muriy organlar, ya'ni xalq sudining mehnat sessiyalar, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar va sud-er komissiyalar tashkil etilishi nizomda nazarda tutilgan edi. Harbiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar maxsus nizomga asosan o'z faoliyatini yuritgan Harbiy tribunallar tomonidan qo'rib chiqilardi. Davlat muassasalari va korxonalari o'rtasidagi nizolar arbitraj komissiyalari tomonidan qo'rib chiqilardi. Xalq sudi yagona sud tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan.

Okrug sudlari:

- a)** okrugning sud markazi va u qaramog'idagi xalq sudlariga nisbatan sud boshqaruvi organi sifatida;
- b)** xalq sudlari uchun kassatsiya va taftish instantsiyasi sifatida;
- c)** qonun bilan ularning vakolatiga kiritilgan ishlar bo'yicha birinchi instantsiya sudi sifatida faoliyatni yuritgan edilar.

Okrug sudlari rayosat va plenumga ega bo'lganliklari ularning o'ziga xos xususiyatidir.

1926-yildagi nizom tuman (uezdlar)da oldin bo'lmagan okrug sudining vakillari institutini nazarda tutgan edi. Ushbu institut tashkil etilishining maqsadi okrug sudi va unga bo'ysunuvchi mahalliy organlar o'rtasidagi aloqani ta'minlash va ma'muriy-moliya boshqaruvga oid zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'lgan. Vakillar tuman (uezd) sudyalari orasidan okrug sudining plenumi tomonidan tayinlanardi va okrug sudi a'zolari huquqlariga ega bo'lardi.

O'zSSR Oliy sudi respublikaning oliy sud organi bo'lib, rayosat, plenum, sudlov va kassatsiya bo'linmalariga bo'linadigan jinoyat va fuqarolik bo'limlari hamda intizomiy kollegiyadan iborat bo'lgan.

Shunday qilib, respublika sud organlarining tashkil etilishi va tizimi SSSR va soyuz respublikalarining sud tuzilishi umumittifoq asoslari va O'zSSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solingan. Ta'kidlash lozim, sud boshqaruviga rahbarlik qilish bo'yicha barcha ishlar Adliya xalq komissariati tomonidan mazkur komissariatning sud yo'nalishi bo'yicha o'rinbosarining bevosita rahbarligida amalga oshirilardi. Umumiy tusdagi direktiv ko'rsatmalar

Adliya xalq komissariati tomonidan Oliy sud orqali yoki Oliy sud tomonidan Adliya xalq komissariati sanktsiyasi bilan berilardi. Sud faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish va yagona sud amaliyotini ta'minlash Oliy sud zimmasiga yuklatilgan edi, u esa mazkur vazifalarni ayrim sud hukm va qarorlarini qayta ko'rib chiqish va aniq ishlar bo'yicha tushuntirishlar berish orqali bajargan edi.

1931-yildagi O'zSSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizom. O'zSSR SIKning 1930-yil 17-avgustdagi qarori bilan respublikaning okruglarga bo'linishi tizimi bekor qilinib, boshqaruvning ikkita zvenoli tizimi (tuman va markaz) o'rnatilgan edi. Shu munosabat bilan, okrug sudlari, okrug sudining tuman (uezd) vakillari tugatilgan eli.

Barcha sud uchastkalari tuman markazida to'plangan edi, sudyalarning biri esa boshqa xalq sudyalarining ishiga rahbarlik qilish uchun katta sifatida tayinlangan edi.

Shunday qilib, O'zSSRda ikkita bosqichli sud tizimi barpo etilgan edi. Xalq sudlari uchun kassatsiya va nazorat instantsiyalari vazifalarini O'zSSR Oliy sudi bajarardi. Ushbu o'zgartirishlar munosabati bilan 1931-yil 20-iyulda O'zSSRning sud tuzilishi to'g'risidagi nizom yangi tahrirda qabul qilinib, 1926-yildagi nizom chiqarilganidan so'ng qabul qilingan sud tuzilishi to'g'risidagi barcha qonunlarni birlashtirdi.

1934-yil 10-iyulda SSSR SIK Qarori bilan revolyutsiyaga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi ayrim toifali ishlarni qo'rib chiqishga haqli bo'lgan OGPU bekor qilingan edi va O'zSSR Oliy sudi huzurida maxsus ishlar bo'yicha kollegiya tashkil etilgan. Vatanga xoinlik qilish, josuslik, terror, qo'poruvchilik kabi eng og'ir jinoyatlar to'g'risidagi ishlar Harbiy Tribunallar tomonidan ko'rilardi.

O'zSSR SIK va SNKning 1934-yil 10-noyabrdagi qaroriga muvofiq, O'zSSR huzurida suv transporti bo'yicha sud kollegiyasi, shuningdek, Termiz va Yangi Urganchda suv-transport sudlari tashkil etilgan.

1938 yildagi Sud tuzilishi to'g'risidagi Qonun. "SSSR, ittifoqdosh respublikalar va avtonom respublikalarining sud tuzilishi to'g'risida"gi SSSR Qonuni bo'yicha O'zbekistonda quyidagi sud tizimi amal qilishni boshlagan:

- 1. O'zSSR Oliy sudi;**
- 2. Qoraqalpoq ASSR Oliy sudi;**
- 3. Viloyat sudlari;**
- 4. Xalq sudlari.**

Oliy sud O‘zSSR va Qoraqalpoq ASSR barcha sud organlarining sud faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi respublika oliy sud organi hisoblangan edi. U respublika Oliy Kengashi tomonidan besh yil muddatga saylanadigan rais, uning ikkita o‘rinbosari, sud a‘zolari va xalq maslahatchilaridan iborat bo‘lgan edi. Oliy sud quyidagi tarkibda o‘z faoliyatini yuritgan edi: rayosat, jinoyat ishlari bo‘yicha sud kollegiyasi, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud kollegiyasi, intizomiy ishlar bo‘yicha sud kollegiyasi.

Keyingi bo‘g‘in – viloyat sudlari – rais, uning o‘rinbosarlari, sud a‘zolari, xalq maslahatchilari, Rayosat va uchta kollegiyalardan (jinoyat, fuqarolik va intizomiy ishlar bo‘yicha) iborat bo‘lgan edilar.

Xalq sudlari sud tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, har bir ma‘muriy tumanda tashkil etilgan hamda jinoyat va fuqarolik ishlarining aksariyatini ko‘rgan edilar.

Ko‘rib chiqilayotgan bosqichning so‘nggi davrida, ya‘ni O‘zbekiston ko‘p o‘n yilliklar davomida SSSR tarkibiga kirgan paytida davlatimiz hududida KPSS tazyiqi ustida bo‘lgan huquqiy tizim amal qilgan edi. Tarix ko‘rsatmoqda, oktyabr to‘ntarilishdan so‘ng o‘rnatilgan sovet sud tizimi jazolovchi tusga ega bo‘lib, KPSS va ijro etuvchi hokimiyatning qo‘llarida jinoyat repressiyalarini amalga oshirish vositasi bo‘lgan, albatta, bu holat sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishda mustaqilligiga ham to‘sqinlik qilgan. Tabiiyki, sudyalarning mustaqilligi va demokratik odil sudlovning yo‘qligi o‘sha paytda hukm surgan ommaviy qonun buzilishlariga olib keldi. Sudlar va ularning faoliyatiga partiya rahbarlik qilgan, u yopiq sud majlislarida aybdorlarni jazolab, “o‘z adolatini” o‘rnatgan edi. Ayniqsa, viloyat NKVD boshqarmasi, viloyat partiya ko‘mitasi birinchi kotibi va viloyat prokuroridan iborat bo‘lgan hamda sud va tergovsiz minglab odamlarni otib o‘ldirishiga xukm qilishi mumkin bo‘lgan “uchliklar” va “ikkiliklar” achinarli mashhurlikka ega bo‘ldi. Tarix sahifalari o‘sha paytda hukm surgan qonun buzilishlarining va huquq normalariga rioya qilmaslikning sonsiz misollarini saqlab turibdi.

O‘zbekiston sovet sotsialistik respublikasi bo‘lgan paytda sud mansablari nomenklatura tartibida egallanganligi, sudyalar esa partiya va Sovetlarning to‘liq qaramligida bo‘lganligi o‘sha davrda haqiqiy sud hokimiyati yo‘qligidan dalolat beradi. “Telefon huquqi” (telefon orqali hukm yoki qarorlar bo‘yicha kelishish) ustunlik qilgan edi: sud huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimining tarkibiy qismi bo‘lib,

jinoyatchilikning holati uchun ular bilan mas'uliyatni bo'lgan va dastlabki tergovning sifatiga yuqori talablar qo'yilmas edi, ayblanuvchi va jabrlanuvchi manfaatlari, o'z navbatida, lozim darajada himoya qilinmagan edi. Tabiiyki, ushbu sharoitda qonuniylik, hukmlarning asosliligi va adolatliligi, ayniqsa, inson huquq va qonuniy manfaatlari sud orqali himoya qilinishining samaradorligi to'g'risida gap yuritishga hech qanday asos yo'q edi.

Beshinchi bosqich – O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sud hokimiyati. Sud-huquq sohasini isloh qilish mustaqil sud hokimiyatining tashkil topishda ustuvor vazifa bo'ldi. Buning huquqiy asosi sifatida sud hokimiyatining mustaqilligi, sudlar faoliyatining printsiplari va sud tizimining tashkil etilishi kabi masalalarni tartibga solgan Asosiy qonun xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda kabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlash (saylash)ning samarali va demokratik mexanizmi barpo etildi, umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi qonuniy mustahkamlandi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tashkil etildi.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotining turli bosqichlarida bir qator qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining qabul qilinishi sud hokimiyati shakllanilishiga yo'naltirilgan edi.

Jumladan: O'zbekiston Respublikasi **"Sudlar to'g'risida"**gi Qonun (yangi tahrirda), Jinoyat-protsessual, Fuqarolik protsessual, Xo'jalik protsessual, Jinoyat, Fuqarolik, Mehnat, Oila, Uy-joy kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlarining tarkibini takomillashtirish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudini tashkil qilish to'g'risida"gi farmonlari.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti jarayonida boshqa muhim normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi, "Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasini tuzish to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining “Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom va boshqalar. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlashga, sud va sud xodimlarining obro‘cini oshirishga, shuningdek, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va sud organlarini kadrlar bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Sud-huquq islohotlarining maqsadi.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining birinchi navbatdagi maqsadi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, jamiyatda totuvlik va barqarorlikni ta’minlashdir. Sud tizimini takomillashtirish hamda inson huquqlari himoya qilinishini va davlatda ijtimoiy barqarorlik va qonuniylikni ta’minlash maqsadini ko‘zda tutgan sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash; jinoyatga oid siyosatni liberallashtirish; ishlarni sudda ko‘rilishining protsessual tartibini takomillashtirish; sud orqali himoyalashning kafolatlarini kuchaytirish va sudga murojaat qilish erkinligini ta’minlash; inson huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarining faoliyatini takomillashtirish; aholini huquqiy tarbiyalash sohasidagi faoliyatni yaxshilash, uning huquqiy madaniyatini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratish yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish vositalari sifatida xizmat qiladilar.

O‘zbekistonda sud-huquq islohotlari davri: to‘rtta bosqichga ajratiladi: dastlabki bosqich – 1991-2000-yy., ikkinchi bosqich – 2001-2008-yy., uchinchi bosqich – 2008-2015-yy., to‘rtinchi bosqich 2016-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr.

O‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq birinchi galdagi islohot va o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000-yillar.

Sud-huquq islohotining **birinchi bosqichida** (1991-2000-yillar) sud-huquq tizimini tubdan isloh qilishning milliy strategiyasi belgilandi va uning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari yaratildi. Sudlarni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi organdan qonun ustuvorligini va inson huquqlari himoyasini ta’minlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi qo‘yildi va muvaffaqiyatli hal etildi. Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, umumiy yurisdiksiya sudlari, xo‘jalik sudlari joriy etildi. Jinoyat,

jinoyat-protsessual, sud-huquq va boshqa yo‘nalishlarning qonunchilik asosini tashkil etuvchi baza yaratildi.

Ushbu maqsadda “Prokuratura to‘g‘risida”gi (1992-y.) va “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunlar, Xo‘jalik protsessual kodeks (1993-y.), Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (1994-y.), “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi (1995-y.) qonunlari, Fuqarolik kodeksi (1995-1996-yillar), Fuqarolik protsessual va Jinoyat-ijroiya kodekslari, Xo‘jalik protsessual kodeksi (yangi tahrir), “Advokatura to‘g‘risida”gi (1997-y.) va “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunlari (1998-y.), Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudlarining tarkibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, “Xo‘jalik sudlarining qarorlari ijrosini ta‘minlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari va boshqa bir qator qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Ushbu davr ichida O‘zbekiston Advokatlar assotsiatsiyasi va Sudyalar Assotsiatsiyasi tashkil qilindi.

Sud-huquq islohotining **ikkinchi bosqichi** 2001-yildan 2008-yilgacha bo‘lgan davr (faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri)ni o‘z ichiga qamrab oladi. Mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish ushbu bosqichning eng muhim dasturiy vazifasi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan sud tizimining demokratik asoslarini isloh qilish va yanada chuqurlashtirish, sud ishlarining adolatli va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta‘minlash, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish hamda umumiy yurisdiksiya sudlarning ixtisoslashuvini amalga oshirish maqsadida, 2001-yil 1-yanvardan boshlab **fuqarolik** ishlari bo‘yicha va **jinoyat** ishlari bo‘yicha alohida sudlar tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi 2000-yil 14-dekabrda “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi sud-huquq tizimi isloh qilinishi birinchi bosqichining barkamol nihoyasi bo‘ldi. Mazkur qonun sud hokimiyati mustaqilligi va erkinligining, uning samaradorligining printsiplial boshqacha va fundamental kafolatlarini aks ettirdi. Ushbu qonunga muvofiq, sudya kadrlarini tanlash va

tayinlashning samarali va demokratik huquqiy mexanizmi yaratildi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning ixtisoslashuvi qonuniy mustahkamlandi va amalga oshirildi.

“Sudlar to'g'risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi mamlakatimizning sud tizimini isloh qilish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Qonun mustaqillik davrida sud-huquq sohasida yig'ilgan tajriba mahsuli bo'lib, sud faoliyatini yanada takomillashtirish va demokratlashtirish uchun sharoit yaratdi.

Buning natijasida mamlakatimizda zamonaviy demokratiya talablariga javob bera oladigan sud tizimi shakllandi.

“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida”gi Qonun (2001-y.) qabul qilindi. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti organlarining sud ijrochilari zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga kiritilgan “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni (2001-y.).

O'zbekiston Respublikasi “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahrirda, 2001-y.). Qonunning yangi tahririga prokuratura organlarining huquqiy maqomi, vazifalari, faoliyatining huquqiy asoslari, asosiy yo'nalishlari va prinsiplarini belgilaydigan normalar kiritildi. Prokuratura organlarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini tartibga soluvchi norma ham ilk bor kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi to'g'risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi umumiy yurisdiksiya sudlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

Uchinchi bosqich 2008-yildan 2015-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi. Sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish,

fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitutsiyaviy normani amalga oshirish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta'minlash, uni yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirish, advokatlarning mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish, advokatlik kasbining obro'si va nufuzini oshirish maqsadida 2008-yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan qonunning konseptual qoidalarini belgiladi. 2008-yil 23-iyunda davlatimizning rahbari tomonidan Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

2008-yil 23-dekabrda "Amnistiya aktini qo'llash tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun qabul qilingan. Ushbu Qonun amnistiya aktini qo'llash bo'yicha sud tartibini belgilaydi, bu esa ishni sudga qadar yuritish ustidan sud nazorati sohasini kengaytirishga imkon beradi.

To'rtinchi bosqich 2016-yildan boshlab bugungi kunga qadar bo'lgan bosqich hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi sud tizimining umumiy ta'rifi.

Sud hokimiyatini amalga oshirish vazifasi tashkil etilgan maxsus organ - sudlarning zimmasiga yuklatilgan. Sudlar yagona tizimini tashkil qiladilar. O'zbekiston Respublikasida sud tizimini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni belgilaydi. O'zbekistonda sud hokimiyati faqat sudlarga, ya'ni ularning vakillari bo'lgan sudyalarga va odil sudlovni amalga oshirish jarayoniga qonunda belgilangan tartibda jalb qilinadigan xalk vakillariga, ya'ni xalq maslahatchilariga taqdim etiladi. Sud hokimiyat vakolatlari boshqa organlar yoki shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi qonun tomonidan man etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sud tizimining huquqiy asosini belgilaydi. Konstitutsiyaning 131-moddasiga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasida sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi qonun bilan belgilanadi. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi".

Sud tizimi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudini tashkil etilishi va faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunida belgilangan. Umumiy yurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudlari tashkil etilishi va faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida favqulodda sudlar tuzish Konstitutsiya va "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni bilan taqiqlanadi. Qonunga asosan odil sudlovning samaradorligini va tezkorligini, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

2.3. Odil sudlov va uning demokratik tamoyillari

"Sudlar to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi".

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi. "Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi". Bu moddaning asl ma'nosi sud tizimi bo'g'inlarining ro'yxatini belgilab berishdan iborat emas, chunki bu bo'Qinlar o'zgarishi mumkin, balki faqat sud va hech qanday boshqa muassasa odil sudlov funksiyasini amalga oshira olmasligini ta'kidlashdir.

Bu ma'noda sud hokimiyatining o'ziga xosligi haqida gapirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 107-moddasining printsiptial ma'nosi yana shundan iboratki, bu moddaga ko'ra unda nazarda tutilmagan, har qanday favqulotda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudning vazifalari "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 2-moddasida ifodalangan: "O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro huj-jatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxona, muassasa va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir".

O‘z-o‘zidan, bunga o‘xshash vazifalar qaysidir ma’noda boshqa davlat muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan bir vaqtda, shunday keng va maxsus ma’noda, ular faqat sud organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Turli xil nizolarni hal qiladigan, jamiyat sub’ekt-larining munosabatlarini ijtimoiy tartibga soluvchi hamda, shu munosabatlarning huquqiy normaga to‘g‘ri kelishini ta’minlovchi odil sudlov hisoblanadi.

Odil sudlov-davlat faoliyatining bir yo‘nalishi. Shuningdek, u Sud hokimiyatini funksiyalashtirishni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim vakolatlardan biridir.

Uning bunday o‘rni va ma’nosi turli xil omillar bilan belgilanadi. Bunday omillarga, eng avvalo, shunday vaziyatni kiritishimiz mumkinki, odil sudlov inson va fuqaroning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq va erkinliklari, davlat va boshqa tashkilotlarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishning eng muhim masalalari bo‘yicha qaror chiqarish bilan uzviy bog‘liq.

Aynan odil sudlov jinoyatni sodir qilishda ayblanayot-gan ma’lum bir shaxsni aybdor deb topish va unga jazo chorasi yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa ta’sir choralari tayinlash, shuningdek, noqonuniy va asossiz javobgarlikka tortilgan shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish masala-larida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, odil sudlov fuqarolar o‘rtasida bo‘ladigan, masalan, mehnat, oilaviy, mualliflik, ixtirochilik, uy-joy va ularga berilgan boshqa moddiy va moddiy bo‘lmagan huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal qilishdan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni belgilab berishda shunday o‘rin egallaydi. Bundan tashqari odil sudlov davlat va nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlik bilan shuQullanuvchi shaxslar o‘rtasida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish borasida kelib chiqadigan nizolar (mulkiy va boshqa)ni hal qilish usuli hamdir.

Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida qabul qilinadigan (jinoyat ishlari bo‘yicha hukmlar, fuqarolik ishlari bo‘yicha hal qiluv qarorlari va boshqalar) va yuridik adabiyotlarda ko‘pincha odil sudlov aktlari deb nomlanadigan, sud qarorlari qonunchilikka asosan alohida xususiyatlarga ega. Bulardan biri - umummajburiylik. Bunday holat Konstitutsiyaning 138-moddasida belgilangan: "Sud hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiydir". Bu moddaning ma’nosidan shu kelib chiqadiki, jinoyat yoki fuqarolik ishini ko‘rishda

qabul qilingan qonuniy kuchga kirgan hukm, ajrim yoki qaror davlat hokimiyatining barcha organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududi bo'yicha ijro etiladi. Bu borada Oliy Majlis 2-chaqiriq 6-sessiyasida "Sud va boshqa organlarning qarorlarining ijrosi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

Odil sudlovning mohiyati, o'rni, ma'nosi shu bilan birga nafaqat uning huquqni muhofaza qilish faoliyatida juda mas'uliyatli yo'nalish ekanligi, eng muhim masalalar bo'yicha umummajburiy qarorlar qabul qilishi bilan belgilanadi. Unga boshqa bir qator alomatlar ham xosdir.

Yuridik adabiyotlarda aytilishicha, odil sudlov – bu ikki turkumdagi ishlar: fuqarolik va jinoyat ishlarining muhokamasidir. Birinchisi xususiy shaxslar, korxona, muassasa, tashkilotlarning keng va ko'p qirrali nizolarni yoki qonuniy manfaatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunday turkumdagi ishlar orasidan, qarz majburiyatidan kelib chiqadigan ishlar, tuzilgan shartnoma yuzasidan majburiyatlarni bajarmaslik (masalan, biror bir mahsulotni ishlab chiqarish va yetkazib berish, xizmat ko'rsatish), noqonuniy ishdan bo'shatish, turar-joydan majburiy ko'chirtirish va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Ikkinchi turkumdagi ishlar (jinoyat ishlari) nisbatan tor doiradagi huquqiy munosabatlar, qonun bo'yicha, aynan jinoyat, ya'ni jinoyat qonunchiligi bo'yicha javobgarlik nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish, hisoblangan huquqiy munosabatlarga tegishlidir. Bu turkumdagi ishlarni hal qilish juda mas'uliyatli faoliyat hisoblanadi, chunki bu yerda so'z aniq bir shaxsni jinoyatchi deb topish yoki topmaslik va unga nisbatan jinoiy jazo choralarini (masalan, jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan mahrum qilish) qo'llash yoki qo'llamaslik haqida boradi.

Odil sudlov tushunchasini o'zlashtirishda, yuqorida ko'rsatilgan jinoyat va fuqarolik ishlari bilan birga yana bir turkumdagi ishlar mavjudki, ular ham keng qamrovli davlat organlari shuningdek, sudning e'tiboridan chetda qolmasligi kerakligini inobatga olish lozim. Bu ma'muriy qonunchilik va birinchi o'rinda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksda javobgarlik nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar (materiallar)dir.

Ma'muriy jazo choralarini ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari ham qo'llay oladi. Ular mayda bezorilik, sudga hurmatsizlik qilish, sudlarning xususiy ajrim (qaror)lari bo'yicha chora ko'rmaganlik (bunday sud qarorlarida odatda mansabdor shaxslarga tegishli

tashkilotlarning faoliyatida qonunbuzarliklar va boshqa xildagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko'rsatma berilgan bo'ladi), namoyishlar mitinglar, yig'ilishlar o'tkazish to'g'risidagi qonunchiliklarni buzish, militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik to'g'risidagi va boshqa bir qator huquqbuzarliklar.

Ammo ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish va hal qilish bilan bog'liq bo'lgan sudyalarning faoliyati, odatda, odil sudlov tarkibiga kiritilmaydi. U odil sudlov (sud qarorlarini va boshqa organlar qarorlarining ijrosini ta'minlash) doirasidan tashqarida bo'lgan boshqa faoliyat singari, odil sudlovdan chetda joylashgan.

Yuridik adabiyotlarda shunday fikr mavjudki, bu fikrga ko'ra odil sudlov ikki xil ko'rinishda: **oddiy** va **maxsus** ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Oddiy ko'rinishda amalga oshiriladigan odil sudlov bu sudning jinoyat va fuqarolik ishlarini birinchi instansiyada, apellyatsiya, kasatsiya instansiyalarida, shuningdek, yangidan ochilgan holatlar bo'yicha, sudlanuvchilarning aybdorligini aniqlash, ularga jazo qo'llash yoki aybsizlarni oqlashga oid faoliyati, fuqarolik ishlari bo'yicha - ishni mazmunan hal qilishda namoyon bo'ladi. Odil sudlovning maxsus ko'rinishlari - bu sudning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha sud faoliyati, huquqbuzarlikni sodir qilishda shaxs aybdorligini aniqlash bilan bog'liq faoliyat, ma'muriy jazo qo'llash yoki ish yurituvini tugatish bo'yicha faoliyat, shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning vakolat doirasida amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi.

Odil sudlovning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, davlatning bunday faoliyati qonunda qat'iy belgilab qo'yilgan tartib asosida amalga oshirilishi mumkin.

Qonunda, fuqarolik va jinoyat ishlari faqatgina sud majlisida ko'rib, hal qilinishi belgilab qo'yilgan. Bu esa, ishni muhokama qilish va shu ish bo'yicha qaror yoki hukm chiqarish faqatgina fuqarolik protsessual qonunchiligiga amal qilingan holda amalga oshirilishi mumkinligini bildiradi. Yuqoridagi tartib, sud majlisiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish borasida paydo bo'ladigan barcha muhim savollar tomonidan tartibga solinadi (sudning qonuniy tarkibini shakllantirish tartibi, sud majlisida qatnashi-shi kerak bo'lgan va qatnashishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini, ularning huquq va majburiyatlari, konkret harakatlarni bajarishning muntazamliligi, yig'ilish, dalillar tadqiqoti qoidalari va b.q.).

Barcha protsessual farmoyishlar oxir-oqibatda haqiqatni aniqlash va qonuniy, asoslantirilgan, adolatli qaror qabul qilishga qaratilgan.

Odil sudlovning yana bir xususiyati uning yagona organ sud (sudya) tomonidan amalga oshirilishi. Boshqa hech qanday organ yoki mansabdor shaxs bu faoliyatni amalga oshira olmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, sud hokimiyati vakolatlarining xususiyati shuni talab qiladiki, bunda uni amalga oshiruvchi organ qonuniylik va adolatlilik manfaatlaridan kelib chiqqan holda tuzilishi va faoliyati olib borishi kerak. Sudlarning tuzilish tartibidagi o'ziga xos xususiyat va uning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi boshqa davlat muassasalari bilan o'zaro munosabatining o'ziga xosligi ham shundan kelib chiqadi. Sud faoliyatining alohida tartibini o'rnatish, sudning obro'-e'tiborini har tomonlama oshirib borish, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lishiga g'amxo'rlik qilishga intilish ham aynan shundan kelib chiqadi.

Shunday qilib, odil sudlov – bu qonunga qat'iy rioya qilgan holda va qonunda belgilangan tartib asosida jinoyat va fuqarolik ishlarini muhokama qilish va hal qilish borasidagi sudning huquqni muhofaza qilish faoliyatidir.

Odil sudlovning belgilari:

1) insonning huquq va erkinliklari, davlat va jamiyat manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalar bo'yicha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan **qarorlar qabul qilish** (aybdor yoki aybsiz deb topish, da'vo talabini qanoatlantirish yoki da'vo talabini qanoatlantirishni rad etish);

2) qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarining majburiy-ligi - sud qarori (hukm, ajrim yoki qaror) O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha davlat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoat birlash-malari, mansabdor shaxslar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun **majburiydir**.

Sud qarorlarini bajarmaslik ma'lum bir davlat majburlov choralari, hatto ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashgacha olib keladi;

3) odil sudlov faqatgina ikki usuldagina amalga oshi-riladi:

a) fuqaro, tashkilot, muassasa, korxonalarning huquq va manfaati bilan bog'liq nizolar bo'yicha fuqarolik sud majlislarida muhokama qilish va hal qilish;

b) jinoyat sodir qilishda aybdor bo'lgan shaxslarga qonunda ko'rsatilgan jazo choralari qo'llash yoki aybsizlarni oqlash bo'yicha jinoiy ishlarni sud majlislarida muhokama qilish;

4) odil sudlov faqat sud (sudya) tomonidan amalga oshiriladi;

5) odil sudlov jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilishning qonunda qat'iy belgilangan tartibi asosida amalga oshiriladi. Qonun odil sudlovni amalga oshirish tartibining eng muhim masalalarini belgilaydi: sudning qonuniy tarkibi; sud majlisida qatnashuvchi shaxslar; ularning huquq va majburiyatlari va boshqalar. Shuni ta'kidlash kerakki odil sudlov bir qator umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Umumiy ma'noda bu tamoyillarni davlatning bu turdagi faoliyatining muhim tomonlarini belgilovchi, umumiy boshqaruvchi tamoyillar sifatida tavsiflash mumkin. Bunday yo'riqnomalar odil sudlovni tashkil qilish, uning organlarining davlat mexanizmi va jamiyatning siyosiy tizimidagi roli va o'rnini bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha butun qonunchilik uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu talablar, eng avvalo, davlatimizda odil sudlovni mukammallashtirish va rivojlantirish amaliyoti asosida shakllangan. Shuningdek, chet el davlatlarining tajribasini ma'lum me'yorda ular, odil sudlovni tashkillashtirish va amalga oshirishga oid savollar bo'yicha bir qator progressiv yo'riqnomalarni, ya'ni inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va fuqarolik hamda siyosiy huquqlar haqida xalqaro pakt kabi xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan xalqaro hamkorlikning tajribasini hisobga oladilar.

Bizga ma'lumki, odil sudlov demokratik asoslarining mazmuni doimo mukammallashadi. Bu jarayon ayniqsa oxirgi yillarda jadallashdi. Bunga sabab bo'lib, ko'plar tomonidan tan olingan, davlatimizni huquqiy va demokratik davlatga aylantirish fikridir. Bu boradagi real qadam 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bo'ldi.

Tamoyil so'zi lotincha principium so'zidan olingan bo'lib, asos bo'luvchi boshlanish degan ma'noni bildiradi. O'zining mohiyati jihatidan tamoyillar imperativ xususiyatga ega bo'lib, ular davlat tomonidan ta'minlanadigan umum-majburiy farmoyishlar xarakteriga ega. Mafkuraviy kategoriya sifatida tamoyillar ijtimoiy-siyosiy mafkuralar asosida shakllanadi. Ammo protsessual faoliyat va uning doirasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni mazkur mafkuraga

asoslanuvchi tamoyillar tizimi bunday tartibga solish vositasi bo'ladi. Mafkura huquq normalarida o'z aksini topmaguncha tamoyil bo'la olmaydi, u huquqiy ongning boshlanishi, ilmiy xulosalar bo'lib qolaveradi.

Tamoyillarning normativligi - o'ziga xos davlat huquqiy faoliyat sifatida fuqarolik va jinoyat protsess(jarayon)ining tabiatidan ajralmas, ularning eng asosiy xususiyati hisoblanadi.

Ular inson va fuqaro, davlat organlariga qaratilgan bo'ladi. Protsessni olib boruvchi, davlat organlari belgilab qo'ygan tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatib, ularning buzilish oqibatidagi barcha natijalar uchun javobgar bo'ladi.

Qonuniylik tamoyili.

Odil sudlovning asosiy tamoyillaridan biri qonuniylik hisoblanadi.

Qonuniylik deganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi qoidalar, qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan normativ aktlarning barcha davlat va nodavlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslari va fuqarolarning so'zsiz amal qilishi va ijro etishi tushuniladi.

Maxsus tamoyil odil sudlov uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki davlat faoliyatining bunday shakli, yuqorida ta'kidlanganidek, qonun talablariga va unda belgilangan jinoyat va fuqarolik ishlarini muhokama qilish tartibiga qat'iy rioya qilish bilan bog'liq. Qonunga rioya qilish mavjud bo'lmagan joyda odil sudlov haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Bu aniqroq boshboshdoqlik bo'ladi. Bunday "odil sudlov" o'zining ijtimoiy vazifasini bajarishga qodir emas.

Odil sudlovda qonuniylik tamoyili birinchi o'rinda sudlar tomonidan qonunlar va boshqa normativ huquqiy aktlarga amal qilinishi va ularning ijro etilishida ifodalanadi. Sud O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid keluvchi qonun va boshqa normativ aktlarni qo'llamaslikka haqli. Ma'lum bir ishni hal qilishda qo'llanilishi kerak bo'lgan normativ akti aniqlashda, sud normativ huquqiy aktlarning yuridik kuchini inobatga olishi kerak, ular bir-biriga zid keladigan bo'lsa, yuridik kuchi yuqoriroq bo'lgan normativ akti qo'llashi kerak.

Qonuniylik tamoyili universal tamoyil hisoblanadi, ammo odil sudlov faoliyatining muhimligi va mas'uliyatligidan kelib chiqqan holda bunday faoliyat sohasida qonuniylik tamoyili alohida ma'no kasb

etadi. Masalan, qonuniylik tamoyilini jinoyat protsessiga qo'llaydigan bo'lsa, bu tamoyil JPKning 11-moddasida mustahkamlangan, u o'z ichiga sudyaning, prokurorning, tergovchi, surishtiruvchi, himoyachi va jinoyat ish yurituvida qatnashadigan shaxslarning qonunga og'ishmay amal qilish talabini oladi.

Jinoyat protsessida inson taqdiri hal qilinar ekan, unda qonuniylik tamoyili amal qilinishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ish holatlarini har tomonlama va ob'ektiv baholash, har bir jinoyat ishini qonunga rioya qilgan holda ko'rib chiqish va hal qilish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, fuqarolarni qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Jinoyat protsessi surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarining faoliyati sifatida, davlatning har qanday boshqa faoliyatidan ko'ra ko'proq qonunda belgilab qo'yilgan bo'lib, usiz jinoyatlarni ochish, aybdorlarni aniqlash va ularni adolatli jazolashning iloji bo'lmaydi. Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarining mansabdor shaxslari tomonidan hujjatlar va protsessual normalarga amal qilish talabi, ularning jinoyat sudlov ishlarini yuritishdagi mavjud masalalarni hal qilish va effektiv faoliyat olib borish uchun zarur shart hisoblanadi. Ammo bu organlar mansabdor shaxslari tomonidan qonun talablarining buzilishi og'ir va ba'zi hollarda tiklab bo'lmaydigan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarida jinoyat ishi bo'yicha sud protsessiga jalb qilingan shaxslarning qonunda ko'rsatilgan huquq va manfaatlari, shuningdek, ularning o'z protsessual majburiyatlarini to'g'ri amalga oshirishlarini tushuntirib berish va ta'minlash majburiyati yuklatilgan.

Jinoyat sudlov ishlarini yuritishdagi qonuniylik tamoyilining mazmuni jinoyat protsessual faoliyatning har bir ishtirokchisi tomonidan barcha protsessual qonunlarga, shu jumladan bu faoliyatning tamoyillarini shakllantiruvchi normalarga rioya qilish majburiyati tushuniladi.

Jinoyat protsessida qonuniylik tamoyili mazmunining keng ma'noda talqin etilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlariga asoslanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2-avgust 1997-yil №12 "Jinoyat ishlarini birinchi instantsiyada ko'rishda sudlar tomonidan protsessual qonunchilikka amal qilish to'g'risida"gi qarorida: "Ko'pchilik ishlar

respublika sudlari tomonidan protsessual qonunga qat'iy rioya qilgan holda ko'rib chiqiladi, ammo ishlarning hal qilinish sifatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kamchiliklar ham yo'q emas. Qonun tomonidan ta'minlangan sud jarayoni ishtirokchilarining huquqi bo'lmish tortishuvchilik tamoyili tez-tez buzilib turadi, protsess ishtirokchilarining iltimosnomalarini qanoatlantirishni asossiz ravishda rad etiladi, deyilgan. Shu bilan birga qayta qaror bilan Plenum "Jinoyat ishlarini sud muhokamasida ko'rishda sudlar protsessual qonunchilikka qat'iy rioya qilishga e'tibor berishlari kerakligi...", "Chunki ish holatlarining har tomonlama, to'liq va xolisona o'rganilishi, haqiqatni aniqlash va sud jarayonining tarbiyaviy ta'siri, ularning protsessual qonunchilik talablariga qanchalik qat'iy rioya qilishiga bog'liq". Kassatsiya instansiya sudlari kamchiliklarni yo'qotishi uchun Plenum o'z qarorida quyidagicha maslahat beradi "Kassatsiya tartibida ishlarni ko'rishda birinchi instantsiya sudlarining jinoyat protsessual qonunchiligiga amal qilishiga alohida e'tibor berish, birorta ham qonun buzilish holatini e'tiborsiz qoldirmasdan, jinoyat ishlarining sud muhokamasida qonunchilikning qo'llanilishini tizimli ravishda tahlil qilish lozim".

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining maxsus qarori jinoyat jarayonida qonuniylik tamoyilining keng ammo aynan gapirishga yo'l qo'yadi. Qonuniylik - keng qamrovli tamoyil bo'lib, protsessual huquqning barcha norma va tamoyillarida o'z aksini topadi, jinoyat va fuqarolik sud yurituvining barcha tomonlarini ta'riflab beradi.

2.4. Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirish. Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan sudning mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish, adolatli va qonuniy sud qarorlarini qabul qilish uchun taraflarning tengligi va tortishuvchanligi printsiplarini amaliyotda keng qo'llash maqsadida 2020-yil 24-iyulda «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat sud-huquq sohasidagi navbatdagi muhim o'zgarish desak xato bo'lmaydi.

Farmondan kelib chiqib, sud tizimida 2021-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi o'zgarishlar amalga oshirildi:

➤ viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo'yicha, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan va sud ishlarini yuritish turlari bo'yicha alohida sudlov hay'atlarini tashkil etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiksiya sudlarini tashkil etildi;

➤ ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatini ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi;

➤ ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rishga ixtisoslashtirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo ma'muriy sudlarini tashkil etilib, shu munosabat bilan tuman (shahar) ma'muriy sudlarini tugatildi. Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari saqlab qolindi;

➤ Amudaryo, Nurobod, Boysun va Pstdarg'om tumanlari iqtisodiy sudlarini tugatildi;

➤ fuqarolik ishlari bo'yicha Yangiyo'l tumanlararo sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha Urgut, So'x, Xatirchi, Paxtakor tumanlari sudlari, Pstdarg'om tumanlararo iqtisodiy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Bo'zatov, Taxiatosh, Bandixon, Tuproqqal'a tumanlari sudlari tashkil etildi;

➤ O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy malaka hay'atining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari sudyalari malaka hay'atlarining qarorlari ustidan Sudyalar oliy kengashiga shikoyat qilish huquqini berildi;

➤ sud ishlarini nazorat tartibida ko'rish institutini tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o'rinbosarlarining sudning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari hamda qarorlari ustidan nazorat tartibida protest kiritish huquqi bekor qilindi;

➤ jinoyat ishlarini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichida ish yuzasidan qarorlarni tortishuv tamoyiliga rioya etgan holda taraflar ishtirokida qabul qilish tartibi belgilanib, jinoyat ishining umumiy tartibda ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etish imkonini beruvchi dastlabki eshituv bosqichi kiritildi;

➤ tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining qarorlarini viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning birinchi instantsiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay’atlari tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqish tartibi joriy etildi;

➤ apellyatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan sud qarorlarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay’atlari tomonidan kassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqish tartibi joriy etildi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay’atlari tomonidan kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha chiqarilgan sud qarorlarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o‘rinbosarlari protestiga ko‘ra kassatsiya tartibida takroran ko‘rib chiqish tartibi joriy etildi;

➤ davlat ayblovchisi ayblovdan voz kechgan taqdirda reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatish tartibi joriy etildi;

➤ prokuror tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori bo‘yicha ishlarni, ushbu ishlar yuzasidan taraflar murojaati mavjud bo‘lgan holdagina, suddan chaqirib olib o‘rganishtartibi joriy etildi;

➤ qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari sudlarda boshqa shaxslarning tashabbusi bilan qo‘zg‘atilgan fuqarolik va iqtisodiy ishlarning ko‘rilishida prokuror o‘z tashabbusi bilan ishtirok etishini istisno etish tartibi joriy etildi.

Qolaversa yana shuni ham aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining Oliy sud tuzilmasida investitsiyaviy nizolarni hamda raqobatga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sudlov tarkibi tuzilishi mamlakatimizda xorijiy investorlarning huquqlari ta’minlanishi uchun keng sharoit yaratmoqda.

Ushbu sudlov tarkibiga investitsiya kiritilgan sanada yigirma million AQSh dollari ekvivalentidan kam bo‘lmagan miqdorda investitsiyani amalga oshirgan jismoniy yoki yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda -yirik investorlar) va davlat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan investitsiyaviy nizolar hamda raqobatga oid ishlarni ko‘rish vakolati berildi.

Farmon bilan investitsiyaviy nizolar bo'yicha yirik investorlarning, raqobatga oid ishlar bo'yicha taraflarning xohishiga ko'ra, ushbu toifadagi ishlar bevosita Sudlov tarkibi tomonidan birinchi instantsiya sudi sifatida ko'rilishi hamda qolgan investitsiyaviy nizolar investorlarning xohishiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudi tomonidan birinchi instantsiya sudi sifatida ko'rilishi mumkinligi belgilandi.

Sudlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tuzilmasida Oliy sud boshqarmalari faoliyatini tashkillashtirish va muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga hisobdor bo'lgan, Oliy sud raisining taqdimnomasiga asosan Oliy sud Plenumi tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati rahbari lavozimi, sud-huquq sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish boshqarmasi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik boshqarmasi, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tuzilmasida matbuot xizmatlari tashkil etildi.

Bundan tashqari, Sudyalar oliy maktabi Sud amaliyoti muammolarini o'rganish markazini tugatildi. Ushbu tugatish hisobidan bo'shayotgan 9 ta shtat birliklari Oliy sud tuzilmasida tashkil etilayotgan Sud-huquq sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish boshqarmasini shakllantirishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati rahbari, boshqarma boshliqlariga nisbatan Oliy sud sudyalari uchun belgilangan, Oliy sudning boshqaruv xodimlari tarkibiga kiritilgan boshqa xodimlariga nisbatan esa, viloyat sudlari sudyalari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari tatbiq etildi.

Shundan kelib chiqib yuqoridagi qayd etilgan shartlar faqat muqaddam sudyalik lavozimida ishlagan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi, ushbu shaxslarning shu lavozimlarda ishlagan vaqti sudyalik stajiga qo'shilishi va pensiya tayinlashda hisobga olinishi inobatga olinadigan bo'ldi.

2020-yil 1-dekabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Sudyalar Oliy kengashi, Oliy sudi, quyi sud tizimi sudyalari, Sudyalar oliy maktabi va ularning apparati xodimlari, Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti va uning hududiy bo'limlari xodimlari ish haqlari va qo'shimcha to'lovlarini

to'liqligicha Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga o'tkazilishini hamda ish haqlari miqdorlarini oshirilishini nazarda tutuvchi takliflar qonunchilikka kiritildi.

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Moliya vazirligi bilan birgalikda pensiya tayinlangan va sudya sifatida o'z faoliyatini davom ettirayotgan shaxslarning pensiyalari yangi belgilanadigan sudyalar mehnatiga haq to'lash shartlarini inobatga olgan holda qayta hisob-kitob qilinishini belgilandi.

Ushbu hujjat sud mustaqilligi tamoyilini yana bir qadam oldinga olib chiqish, sudlarda ishni ko'rish amaliyotini birlashtirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar pirovard maqsadi inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilganligini anglatadi.

Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish.

So'nggi yillarda sud organlari faoliyatida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy qilinmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarga o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ortiqcha ovvoragarchiliklarni oldini olishdir. Shu yilning 3-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorda 2020-2023-yillarda sud hokimiyati organlari faoliyai to'liq raqamlashtirishga o'tishi ko'zda tutilgan.

Mazkur qaror bilan sudlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali ko'plab ijobiy o'zgarishlar kutilmoqda. Jumladan, sudlarga masofadan turib elektron tartibda murojaat qilish, videokonferentsaloqa tizimidan keng foydalanish orqali sud majlisida ishtirok etish, sudlar tomonidan ko'riladigan ishlarni sudyalar o'rtasida avtomatik taqsimlash, sud qarorlarini internet tarmog'ida e'lon qilish, ijro hujjatlarini elektron tartibda yuborish shular jumlasidan.

Qarorning alohida banlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

➤ 2021-yil 1-yanvardan boshlab barcha sudlarda sud majlislarini ish bo'yicha taraflarning iltimosnomasi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlislari bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirish;

➤ 2022-yil 1-iyulga qadar sud hokimiyati organlari faoliyatida, shu jumladan, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga odil sudlovga

erishishda qulaylik yaratish maqsadida 10 ga yaqin interaktiv xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish.

Yana shuni ham aytish kerakki, sudlar tomonidan ish uchun zarur bo'lgan axborotlarni davlat organlari va tashkilotlaridan aniq va tez olish maqsadida sudlarning axborot tizimlarini davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Bunda:

➤ 28 ta davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari axborot tizimlarini Oliy sudning axborot tizimiga bosqichma-bosqich ulash;

➤ sudlar tomonidan jarimalarni kamaytirish yoki ularni qo'llamaslik masalalarini ko'rib chiqishda "Ijtimoiy himoya yagona reestri" va boshqa axborot tizimlarining integratsiyasi orqali fuqaroning mulkiy holati va ijtimoiy ahvoli haqidagi ishonchli ma'lumotlar bilan tanishish;

➤ sudlar tomonidan aliment miqdorini belgilashda tumanlar kesimida o'rtacha oylik ish haqlari to'g'risida ma'lumotlarni axborot tizimi orqali elektron shaklda olish imkoniyati yaratilishi ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, quyidagi tartiblar joriy etildi:

➤ Oliy sud axborot tizimi bilan davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali jismoniy va yuridik shaxslar haqidagi mavjud ma'lumotlar sudlarning elektron so'rovi bo'yicha bepul asosda taqdim etish;

➤ Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, advokatlar tomonidan sudlarga da'vo, ariza va shikoyatlarni faqat elektron shaklda taqdim etish;

➤ manfaatdor shaxslar tomonidan da'vo, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonini onlayn tarzda kuzatib borish;

➤ sud majlisi ishtirokchilari tomonidan ma'lumotlar va hujjatlarni elektron shaklda yuborish;

➤ sud hujjatlarini sudlar faoliyatiga joriy etilgan axborot tizimidan foydalangan holda avtomatlashtirilgan ravishda shakllantirish tizimi.

Oliy sud 2020-yil yakuniga qadar sud majlislarida videokonferentsaloqa rejimida ishtirok etish imkonini beruvchi mobil dasturni ishlab chiqadi va uni amaliyotga joriy etadi. Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda jazoni ijro etish muassasalarida maxsus

xonalarni mahbuslarning sud majlislarida va sud rahbariyati qabullarida videokonferentsaloqa rejimida ishtirok etishlari imkonini beruvchi uskunalar bilan jihozlash choralari ko‘radi.

Ushbu qarorning ijobiy tomoni shundan iboratki:

birinchidan, fuqarolarning sud bilan bog‘liq ishlarini tez va qulay, ortiqcha sarsongarchiliksiz amalga oshirish;

ikkinchidan, davlat organlari o‘rtasida axborot almashishda yagona onlayn tizim joriy qilinmoqda;

uchinchidan, sud organlari faoliyatining ochiqlik printsipli yanada mustahkamlanmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ushbu qarordan ko‘zlangan maqsad sud hokimiyati mustaqilligini qaror toptirish, sud ishlarni yuritishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, odil sudlovga erishishni oshirish hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashdan iboratdir.

Nazorat uchun savollar

1. Milliy qonunchiligimizga ko‘ra sudlov faoliyatini tartibga soluvchi qaysi hujjatlarni asosiy normativ-huquqiy hujjatlar deb hisoblaysiz?

2. Odil sudlov va uning demokratik prinsiplaridan birini tanlab, unga izoh bering. Prinsipning qo‘llanilishi bilan bog‘liq holatlarga misol keltiring?

3. Odil sudlov va uning demokratik prinsiplaridan qaysilari O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida ham o‘z aksini topgan?

4. Odil sudlov va uning demokratik prinsiplarini aytib bering. Sudlov faoliyatini amalga oshirishda prinsiplarning ag‘amiyatini bayon eting?

5. Sud instansiyasi tushunchasi va turlarini muhokama qiling?

3-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDI

Reja:

3.1. Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi va uning asoslari.

3.2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi va uning vakolatlari.

3.3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi apparati, uning funksiyasi va shakllanish tartibi.

3.4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari, ularning turlari, mazmuni, yuridik ahamiyati va tuzilishi.

3.1. Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi va uning asoslari

Konstitutsiyaviy nazorat – bu davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy talablarga zid bo‘lgan huquqiy hujjatlari va harakatlarini aniqlash, shuningdek, aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish yo‘li bilan Konstitutsiya ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan sudlov va huquqni himoya qilish faoliyatining yo‘nalishidir (funksiyasidir).

Konstitutsiyaviy nazorat – bu davlatdagi sud va huquqni himoya qilish faoliyatining maxsus turi bo‘lib, qonun va boshqa normativ hujjatlarning ushbu davlat konstitutsiyasiga mos kelishini tekshirishdan iborat. Konstitutsiyaviy nazorat tegishli davlat organlari (mansabdor shaxslar) konstitutsiya qoidalarini buzuvchi hujjatni aniqlaganda o‘z hokimiyatlari orqali uni bekor qilish huquqiga ega ekanligini nazarda tutadi.

Konstitutsiyaviy nazorat ob‘ektlari konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar, konstitutsiyaga tuzatishlar, xalqaro shartnomalar, parlament yoki uning palatalari reglamentlari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari bo‘lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy nazorat sub‘ektlari u yoki bu normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaga mosligini tekshirishni talab qilish huquqiga ega davlat organlari va mansabdor shaxslar bo‘lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy nazorat turlari.

Mazmuniga ko‘ra:

➤ formal (qonun va boshqa aktlarni qabul qilish uchun belgilangan protsessual qoidalarga rioya etilganligi tekshiriladi);

- moddiy (qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni konstitutsiyaga mosligi jihatidan tekshiriladi):
- abstrakt (muayyan sababsiz tegishli vakolatga ega sub'ekt tashabbusi bilan amalga oshiriladi):
- konkret (muayyan bir sud ishi bo'yicha amalga oshiriladi) bo'lishi mumkin.

O'tkazish vaqti bo'yicha: **keyingi** va **dastlabki** konstitutsiyaviy nazorat ajratiladi.

O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat.

O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud tashkil topish tarixi 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazorat to'g'risida"gi Qonun bilan bog'liq. Mazkur qonun davlat organlari va jamoat tashkilotlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini ta'minlash, shaxs va xalqlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, shuningdek, jamiyatning demokratik asoslarini himoya qilish maqsadlarida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazoratni O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi amalga oshirar edi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Konstitutsiyaviy sudini ta'sis etish zaruratini nazarda tutgan edi. Davlatning Asosiy Qonuni oliy qonunchilik darajasida Konstitutsiyaviy sudning tashkil etishini belgilab qo'yildi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati 1995-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solingan edi. Keyinchalik esa 2017-yilda yangi tahrirdagi Qonun qabul qilindi.

3.2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi va uning vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi – qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining konstitutsiyaga mosligi haqidagi ishlarni ko'rib chiquvchi sud hokimiyati organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi – O'zbekiston tarixida birinchi sud tomonidan amalga oshiriladigan konstitutsiyaviy nazorat organidir. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya

birinchi bor Konstitutsiyaviy sud vakolatlari, uni tashkil etish va faoliyat tartibini belgilab berdi (107, 108-moddalar)

«O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni 2017-yil 31-mayda qabul qilingan bo‘lib (O‘RQ-431-son), 45 ta moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi sud hokimiyati organidir.

Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqadi;

6. Konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etadi;

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ko‘rib chiqadi.

O‘zbekiston
Respublikasi
konstitutsiyaviy sudni
saylash tartibi. O‘zbekiston
Respublikasi Prezidentining
taqdimiga binoan
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisining Senati

O'zbekiston	Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi	yurisdiksiyasi
rasmiy qabul qilingan	normativ-
huquqiy hujjatlarga	tegishlidir. Sud
preventiv (dastlabki)	nazoratni amalga
oshirmaydi.	

tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan shaxslar orasidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakilini qo‘shgan holda saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud tarkibida yetti nafar sudya mavjud: rais, uning o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan sudyani qo‘shgan holda besh nafar sud a‘zosi.

Konstitutsiyaviy sud raisi va uning o‘rinbosari Konstitutsiyaviy sud majlisida uning sudyalari orasidan saylanadi.

Konstitutsiyaviy sud faoliyatini amalga oshirishda amal qilinadigan asosiy printsiplarga: Konstitutsiyaning ustunligi, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi kiradi.

Konstitutsiyaviy sudda ishlarni ko‘rib chiqish va hujjat qabul qilish kamida to‘rt nafar sudyadan iborat tarkibda kollegial tarzda amalga oshiriladi va Konstitutsiyaviy sudning majlislari, qoida tariqasida, ochiq o‘tkaziladi. Aytish kerakki, Konstitutsiyaviy sudning hujjatlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega, uning faoliyati Reglament bilan belgilanadi. unda: sud majlislarida ishlarni ko‘rib chiqish navbatini aniqlash tartibi; majlisdagi intizom va odobining ayrim qoidalari; sudda ish yuritishning xususiyatlari; sud devoni xodimlariga qo‘yiladigan

talablar; Konstitutsiyaviy sud ichki faoliyatiga doir boshqa masalalar o‘z aksini topgan.

3.3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi apparati, uning funksiyasi va shakllanish tartibi

Konstitutsiyaviy sud sudyasi. Siyosat va huquq sohasi mutaxassisi bo‘lgan, yuksak ma‘naviy fazilatlarga va zarur malakaga ega bo‘lgan, o‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkin. Konstitutsiyaviy sudning sudyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy malaka yoki Birinchi malaka darajalari beriladi. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolat muddati – o‘n yil. Konstitutsiyaviy sudning sudyasi lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi qoida tariqasida yetmish yoshni tashkil etadi. Ayni bir shaxs ikki martadan ortiq Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkin emas. Birinchi bor Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylangan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mazkur sudya saylangan majlisida qasamyod qiladi.

Sudyalikka nomzodlarga aytib o‘tilgan talablardan tashqari, qonun Konstitutsiyaviy sudning sudyalari senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo‘lishi mumkin emas. Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sudning sudyalari siyosiy partiyalarning a‘zosi bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining huquqiy kafolatlaridan biri, uning faoliyati davrida almashtirib bo‘lmasligi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud sudyasini javobgarlikka tortish masalasi. Konstitutsiyaviy sudning sudyasi Konstitutsiyaviy sudning roziligisiz jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortilishi, shuningdek qamoqqa olinishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudning sudyasiga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud sudyasini majburiy keltirish, ushlab turish, xuddi shuningdek uning shaxsiy ashyolarini, bagajini, transportini, uy-joyini, xizmat xonasini ko‘zdan kechirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalarining vakolatlari tugaganidan keyin ularga Konstitutsiyaviy sud sudyasi lavozimiga saylanishiga qadar

egallab turgan avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo'lmaganda esa, avvalgisiga teng boshqa ish (lavozim) beriladi.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlarini to'xtatib turish yoki vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, bunga yetarli asoslar bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlarini Konstitutsiyaviy sudning qarori bilan quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

- u jinoiy javobgarlikka tortilganida;
- u sudya lavozimi bilan bir vaqtda shug'ullanib bo'lmaydigan faoliyat bilan shug'ullanganida;
- u sudning qarori bilan bedarak yo'qolgan deb topilganida.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari ularni to'xtatib turish asoslari bekor bo'lguniga qadar to'xtatib turiladi. Sudya vakolatlarining to'xtatib turilishi unga ish haqi to'lashning to'xtatib turilishiga olib kelmaydi va daxlsizlik kafolatlariga putur yetkazmaydi.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish deganda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan muddatidan ilgari tugatish tushuniladi. Agar, sudyalik qasamyodini buzsa; yozma ariza berganida; sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshiga yetganida; unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganida; sudya ogohlantirilganidan yoki uning vakolatlari to'xtatilganidan keyin ham sudyalik lavozimi bilan bir vaqtda shug'ullanib bo'lmaydigan faoliyatni davom ettirganida; sog'lig'ining holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra u uzoq vaqt mobaynida sudyalik vazifalarini bajarishga qobiliyatsiz bo'lganida; u O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganida; u belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganida; vafot etganida yoki sudning qarori bilan vafot etgan deb e'lon qilinganida.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining ish haqi lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko'p yillik xizmati uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat bo'ladi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyalari o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etiladi. 40-modda. Sudyalarning maxsus kiyim-boshi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari sudlov ishini maxsus kiyim-boshda olib boradi, ushbu kiyim-boshning tavsifi va namunasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Endi, Konstitutsiyaviy sudda ish yuritish tartibi bilan tanishib chiqamiz.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy nazorat vakolatini amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini o‘z tashabbusi bilan (Konstitutsiyaviy sudning uch nafardan kam bo‘lmagan sudyasi tashabbusi bilan) tekshirishni qo‘zg‘atishi mumkin.

Yodda saqlang!!! “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasi Konstitutsiyaviy sudga masalalar kiritish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar doirasini belgilaydi.

Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman);
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to‘rt dan bir qismidan iborat deputatlar guruhi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zolari umumiy sonining kamida to‘rt dan bir qismidan iborat senatorlar guruhi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori;
- O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisi;
- Konstitutsiyaviy sudning kamida uch nafar sudyasi.

Konstitutsiyaviy sud masalani ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan hujjatlar olingan kundan e‘tiboran yetti kunlik muddatdan kechiktirmay masalani o‘rganib chiqishga kirishadi.

Ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidan hujjat tegishli material olingan paytdan e‘tiboran kechi bilan uch oy ichida Konstitutsiyaviy sudda qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud majlisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri, uning o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi, uning o‘rinbosarlari, O‘zbekiston

Respublikasi Bosh vaziri, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining raisi va O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri ishtirok etishi mumkin.

Ular ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga haqlidir. Konstitutsiyaviy sudning majlisiga zarur ma'lumotlarga yoki materiallarga ega bo'lgan shaxslar, ekspertlar va mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Majlislar davlat tilida olib boriladi. Zarur hollarda tarjimon xizmatidan foydalanilishi mumkin.

3.4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning qarorlari, ularning turlari, mazmuni, yuridik ahamiyati va tuzilishi

Konstitutsiyaviy hujjat qabul qilish jarayoni. Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaga muvofiqligiga shubha tug'dirgan, ko'rib chiqilayotgan aniq masalalar yuzasidangina hujjat qabul qiladi. Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirib, tekshirilgan hujjatga asoslangan yoxud uning qoidalarini takrorlaydigan normativ-huquqiy hujjatlar xususida ham, garchi Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqishi uchun kiritilgan masalada ular to'g'risida so'z yuritilmagan bo'lsa-da, bir vaqtning o'zida hujjat qabul qilishi mumkin. Konstitutsiyaviy sudning hujjati ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi ovoz berishda betaraf qolishga yoki ishtirok etmaslikka haqli emas.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati, agar majlisda hozir bo'lgan sudyalarning ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Ovozlar teng bo'linib qolgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sudning hujjatiga qo'shilmagan Konstitutsiyaviy sud sudyasi o'z fikrini yozma tarzda bayon qilishga va uni Konstitutsiyaviy sud majlisining bayonnomasiga qo'shib qo'yishga haqlidir.

Xalqaro shartnomaning va normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida ko'rib chiqilgan ishning mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning hujjati qaror deb ataladi.

Qarorlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi.

Boshqa hollarda Konstitutsiyaviy sudning hujjati xulosa deb ataladi yoki boshqacha shaklga ega bo'lishi mumkin. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari, xulosalari va boshqa hujjatlari ommaviy axborot vositalarida hamda Konstitutsiyaviy sudning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

«O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», «Xalq so'zi» va «Narodnoye slovo» gazetalari, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Axborotnomasi», shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi Konstitutsiyaviy sudning hujjatlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati qat'iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudning hujjatini qayta ko'rib chiqish ham istisno etilmaydi. Konstitutsiyaviy sudning hujjatini o'z tashabbusi bilan ko'rib chiqish asoslari mavjud. Xususan:

- hujjat chiqarilgan paytda Konstitutsiyaviy sudga noma'lum bo'lgan yangi ochilgan holatlar munosabati bilan;

- hujjat qabul qilinishiga asos bo'lgan konstitutsiyaviy norma o'zgargan taqdirda;

- Konstitutsiyaviy sud mazkur hujjatni belgilangan ish yuritish tartibi buzilgan holda qabul qilingan deb topgan taqdirda.

Konstitutsiyaviy sud devoni.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyatini tashkiliy jihatdan, ilmiy-ekspertizaga, axborot-ma'lumotga oid va boshqacha tarzda ta'minlash Konstitutsiyaviy sud devoni tomonidan amalga oshiriladi.

Devonning tuzilmasi va shtatlari ajratilgan mablag'lar doirasida Konstitutsiyaviy sudning raisi tomonidan tasdiqlanadi. Konstitutsiyaviy sud devoni xodimlariga mansab darajalarini belgilash va berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sud huzurida maslahat organi bo'lgan va jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatadigan ilmiy-maslahat kengashi tuziladi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga oid masalalar

bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish ushbu kengashning vazifasiga kiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Konstitutsiyaviy nazorat vazifasini alohida tuzilma orqali amalga oshirish qanchalik darajada samarali va to'g'ri deb o'ylaysiz?
2. Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi va uning asoslarini tahlil eting?
3. Konstitutsiyaviy sudning sudyasi bo'lish uchun qanday talablar belgilanganini aytib bering?
4. Qanday turdagi normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiyaviy nazorat ob'yektlari bo'lishlari mumkin?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi apparati, uning funksiyasi va shakllanish tartibini bayon eting?

4-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI

Reja:

4.1. Sud tizimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tutgan o‘rni.

4.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi, tuzilishi va vakolatlari.

4.3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi, Prezidiumi va hay’atlari.

4.4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining apparati.

4.1. Sud tizimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tutgan o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 131-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi qonun bilan belgilanadi. Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.”³

Oliy sudni tashkil etish va uning faoliyati 2021-yil 28-iyuldagi “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy va ma‘muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi sifatidagi o‘rni keng va quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1) umumiy yurisdiksiya sudlari sudloviga taalluqli bo‘lgan fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy va ma‘muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi sifatida uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish;

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish; Sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish – bu birinchi navbatda ular tomonidan yo‘l qo‘yiladigan hatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishdir.

3) sud amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish va ishlarni sudda ko‘rib chiqish vaqtida qonun hujjatlarini qo‘llash borasidagi masalalar bo‘yicha sudlarga tushuntirishlar berish; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 131-modda. / www.lex.uz

tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; Plenum tomonidan beriladigan tushuntirishlar muayyan qonunlarni qo'llash bo'yicha sudlarning umumlashtirilgan amaliyotiga tayanadi, uning mohiyatini aks ettiradi va kelgusida ushbu qonunlarni to'g'ri qo'llash uchun mo'ljallar beradi.

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi – qonunlar qanday ishlayapti, ularni qo'llashda qanday qiyinchilik va kamchiliklar mavjudligi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lgan organlarda biri. Bu ma'lumotlarga tayanib u amaldagi qonunchilikning muammo va boshqa kamchiliklariga e'tiborni qaratgan holda qonun ijodkorligiga faol ko'maklashish imkoniyatiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisi Konstitutsiyaviy sud majlisida ishtirok eta oladi va ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha o'z fikrini bildirishga haqli.

4.2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi, tuzilishi va vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va kassatsiya tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instantsiya sifatida ko'rgan ishlarni apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

2. sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;

3. sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rais, uning birinchi o'rinbosari – jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining raisi hamda rais o'rinbosarlari – fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov

hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyalaridan iborat bo'ladi hamda quyidagi tarkibda ish olib boradi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;
- Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati;
- Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi, Rayosati va hay'atlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Sudyalar oliy kengashi raisi, adliya vaziri, sudyalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumini chaqirish tartibi "Sudlar to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining vakolatlari "Sudlar to'g'risida"gi Qonuning 22-moddasida ifodalangan va quyidagilardan iborat:

- sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;
- qonunchilik tashabbusi tartibida ishlab chiqilgan qonun loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharh berish masalalari yuzasidan murojaat kiritish, shuningdek muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risidagi sudlar tashabbusi bilan kiritilgan masalalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat kiritish haqidagi taqdimnomasini ko‘rib chiqadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomalariga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibini, sudlov hay‘atlarining tarkibini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibini tasdiqlaydi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining ishi to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek sudlov hay‘atlari faoliyati haqidagi ma‘ruzalarni eshitadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlari raislarining qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlari bajarilishi haqidagi ma‘ruzalarini eshitadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati rahbarini tasdiqlaydi va uning O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot organining tahrir hay‘ati tarkibini tasdiqlaydi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati reglamentlarini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisining tartibi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni ko‘rib chiqish tartibi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasida bayon etilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi ko‘rib chiqishi uchun masalalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi, Bosh prokurori qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan tushuntirishlar berilishi haqida takliflar kiritishga haqli.

Masalani ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining yoki buning uchun vakolat berilgan boshqa shaxsning ma‘ruzasini eshitishdan boshlanadi. Masalaning muhokamasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlisiga taklif qilingan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo‘llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi va qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo‘llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisida bayonnoma yuritiladi va majlis yakuniga ko‘ra qaror qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori qabul qilingan paytdan e‘tiboran qonuniy kuchga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisining bayonnomasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining **kotibi** O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi vazifasini bajarish bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlisini tayyorlashga, majlis bayonnomasini yuritishga doir ishlarni tashkiliy jihatdan ta’minlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qabul qilgan qarorlarning ijrosi uchun zarur bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati eng yuqori sudlov instansiyasi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan belgilanadigan miqdorda tuziladi.

Oliy Sudi Rayosati tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari lavozim bo‘yicha kiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining majlislari har oyda kamida bir marta o‘tkaziladi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati a’zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

- sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko‘rib chiqadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari raislarining sud faoliyati to‘g‘risidagi va qonunchilikni qo‘llash amaliyoti haqidagi ma’ruzalarini eshitadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay’atlari va apparati ishini tashkil etish masalalarini ko‘rib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay’atlari.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay’atlari quyidagi vakolatlarga ega:

- ishlarni birinchi instansiyada, apellatsiya va kassatsiya tartibida, shu jumladan kassatsiya instansiyasi sudida takroran ko‘radi;
- sud amaliyotini o‘rganadi va umumlashtiradi;
- sud amaliyoti obzorlarini tayyorlaydi;
- qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

➤ sud statistikasini tahlil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay’atlari qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

4.4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining apparati

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyatida Oliy sud raisi alohida o‘rin tutadi. “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuning 30-moddasi raisning vakolatlari batafsil bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisining vakolatlari:

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyatiga tashkiliy rahbarlikni amalga oshiradi;

➤ ishni kassatsiya instansiyasi sudida takroran ko‘rish zarurligi haqidagi masalani hal etish uchun qonunda nazarda tutilgan tartibda sud ishlarini talab qilib oladi;

➤ ishni kassatsiya instansiyasi sudida takroran ko‘rish to‘g‘risida qonunda nazarda tutilgan tartibda protest kiritadi;

➤ sudlarning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlari ijrosini qonunda nazarda tutilgan tartibda to‘xtatib turadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosatini chaqiradi hamda ularning majlislarida raislik qiladi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati qarorlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga doir ishlarni tashkil etadi;

➤ ishni bir suddan boshqa sudga o‘tkazish to‘g‘risidagi masalani hal qiladi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati ko‘rib chiqishi uchun ularning vakolatlarga taalluqli bo‘lgan masalalarni kiritadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tushuntirishlari qonunchilikka muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga taqdimnomalar kiritadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharh berish to‘g‘risida, shuningdek sudlar tashabbusi bilan kiritilgan muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat kiritish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga taqdimnoma kiritadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibi to‘g‘risida, sudlov hay‘atlari tarkiblari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga taqdimnomalar kiritadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi sudlari sudyalari oliy malaka hay‘atining (bundan buyon matnda Sudyalar oliy malaka hay‘ati deb yuritiladi) qarorlari, xulosalari ustidan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashiga taqdimnomalar kiritadi;

➤ rais o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparatining xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, o‘zgartiradi va bekor qiladi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi bilan kelishilgan holda sudlarning tuzilmalariga boshqaruv xodimlarining umumiy soni doirasida o‘zgartirishlar kiritadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining shtat jadvalini tasdiqlaydi;

➤ buyruqlar va farmoyishlar qabul qiladi;

➤ jismoniy shaxslarni, yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi va ularning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yo‘qligida uning vakolatlarini raisning birinchi o‘rinbosari, birinchi o‘rinbosar ham yo‘qligida esa rais o‘rinbosarlaridan biri amalga oshiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Sud tizimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tutgan o‘rni haqida gapirib bering?

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining huquqiy asoslarini yoritib bering?

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini gapirib bering?

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlari nimadan iborat?

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining vakolatlari qaysilar?

5-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUDLAR HAMJAMIYATI

Reja:

- 5.1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi.
- 5.2. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalari va vakolatlari.
- 5.3. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy maktabi.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etishning ijtimoiy zarurati.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 135-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi bo‘lib, u sudyalar korpusining shakllantirilishini, sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisi va uning o‘rinbosari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan besh yillik muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisi, rais o‘rinbosari etib saylanishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi” – deb qayd qilindi. Sudyalar oliy kengashiga konstitutsiyaviy maqom berilganligi unga yuklatilgan vazifalarni mustaqil va samarali amalga oshirilishining muhim konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi.

Sudyalar oliy kengashi raisi avvalgidek Senati a’zolari orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan tayinlanmay, balki boshqa bir qator mustaqil konstitutsiyaviy organlar rahbarlari kabi Prezidentning taqdimiga binoan Senat tomonidan tayinlanishi yuqori palataning mutlaq vakolatlariga kiritildi. Mazkur qoida asosiy qonunimizning 95-moddasi 1-bandida o‘z ifodasini topdi. Bundan tashqari Sudyalar oliy kengashi raisi Qonunchilik palatasi va Senat majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida ishtirok etishi konstitutsiyaviy jihatdan mumkin bo‘lgan shaxslar qatoriga kiritildi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki shu vaqtgacha bunday shaxslar qatoriga Konstitutsiyamizning 96-moddasida faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik Sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki boshqaruvining raisi kiritilgan edi. Bularning barchasi Sudyalari oliy kengashi raisi lavozimi yuksak obro' va nufuzga egaligidan dalolat qilib, uning mustaqilligini, daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tartibini yanada takomillashtirish zaruriyati, sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi aniq huquqiy maqomga ega emasligi, o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshirishi va cheklangan vakolatlarga egaligi kabilar Sudyalari oliy kengashini tashkil etishni taqozo qildi. Yangi organ avvalambor konstitutsiyaviy maqomga ega.

Sudyalari Oliy kengashi faoliyati to'g'risida maxsus hujjat 2017-yil 7-aprelda **“O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi to'g'risida”**gi Qonun bilan tartibga solinadi. Sudyalari Oliy kengashining uchta muhim jihatini qayd etish o'rinli.

Birinchi muhim jhati – harbiy sudlarning, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalari, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari va sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Kengashning o'zi lavozimga tayinlashi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa ularni Prezident bilan kelishilgan holda lavozimidan ozod qiladi.

Ikkinchi muhim jhat – bu Kengashni shakllantirish tartibidir. Qonunda Kengash raisi, rais o'rinbosari, uning a'zolari va kotibidan – jami yigirma bir nafar kishidan iborat tarkibda sudyalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan shakllantirilishi belgilab qo'yildi. Kengashning o'n bir nafar a'zosi Kengash raisining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sudyalari orasidan tasdiqlanadi. Kengashning ushbu a'zolaridan bir nafari Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining sudyalari orasidan tasdiqlanadi. Kengashning raisi, kotibi va sudyalari orasidan tasdiqlangan o'n bir nafar a'zosi o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi, Kengashning qolgan sakkiz nafar a'zosi, shu jumladan

Kengash raisining o‘rinbosari o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

Uchinchi muhim jihat – bu Kengashning asosiy vazifalarida namoyon bo‘lib, unda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, eng malakali va mas’uliyatli mutaxassislar orasidan sudyalarni tayinlash, sudyalarni kasbiy tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni tashkil etish, sudyalarning faoliyati samaradorligini baholash, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik olib borish, aholi bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi, shuningdek ularni jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortish uchun xulosa berish haqidagi masalani ko‘rib chiqish kabilar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi faoliyati.

Sudyalar hamjamiyatining organi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy printsiplarga rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashadi. Kengash yuridik shaxsdir, u O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga ega bo‘ladi.

Kengash o‘z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi **prinsiplarga** amal qiladi: qonuniylik, mustaqillik, kollegiallik, xolislik, o‘z a‘zolarining teng huquqliligi va ochiqlikdan iboratdir.

Kengashning tarkibi va uni shakllantirish tartibi.

Kengash rais, rais o‘rinbosari, uning a‘zolari va kotibidan – jami yigirma bir nafar kishidan iborat tarkibda sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan shakllantiriladi. Kengash raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tayinlanadi. Kengash raisining o‘rinbosari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va u bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabini boshqaradi.

Kengashning o‘n bir nafar a‘zosi Kengash raisining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sudyalar orasidan tasdiqlanadi. Kengashning ushbu a‘zolaridan bir nafari Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlarining sudyalari orasidan tasdiqlanadi.

Kengash kotibi va uning yetti nafar a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan tasdiqlanadi.

Kengashning raisi, kotibi va sudyalar orasidan tasdiqlangan o'n bir nafar a'zosi o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi, Kengashning qolgan sakkiz nafar a'zosi, shu jumladan Kengash raisining o'rinbosari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

Kengashning sudyalar orasidan tasdiqlangan va o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiruvchi o'n bir nafar a'zosi Kengash tomonidan uning raisi taqdimiga binoan Kengashning sho'balari hamda Sud inspeksiyasi tarkibiga, shu jumladan mazkur tuzilmalarning rahbarlari lavozimlariga saylanadi.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalari va vakolatlari

Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

➤ sudyalik lavozimlariga nomzodlarni eng malakali va mas'uliyatli mutaxassislar orasidan tanlov asosida tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash, shuningdek rahbar sudyalik lavozimlariga ko'rsatish uchun tavsiya etish orqali sudyalar korpusini shakllantirish;

➤ sudyalar daxlsizligi buzilishining va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatini biron-bir tarzda aralashuvdan samarali himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

➤ sudyalar orasida korrupsiya holatlarining oldini olish va ularni barvaqt aniqlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

➤ sud tizimida aniqlangan har bir korrupsiya holatini ko'rib chiqish va prinsipial baholash;

➤ Kengashning hamda sud tizimining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

➤ sudyalarni kasbiy jihatdan tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni tashkil etish, sudyalar faoliyati samaradorligini zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali baholashda xolislik va shaffoflikni ta'minlash;

➤ rahbar sudyalik lavozimlariga ko'rsatish uchun munosib sudya kadrlarni tanlab olish, shuningdek ularni rag'batlantirish va mukofotlash masalasi yuzasidan tashabbus ko'rsatish;

➤ ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, aholi bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy va yuridik shaxslarning sudyalardan tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqish;

➤ sud-huquq sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini va yagona sud amaliyotini ta‘minlash, odil sudlovga erishish darajasini hamda uni amalga oshirish sifatini yaxshilash bo‘yicha takliflar tayyorlash;

➤ sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi, shuningdek ularni jinoiy javobgarlikka tortish uchun xulosa berish haqidagi masalani ko‘rib chiqish⁴.

Kengashning vakolatlari.

Kengash o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun:

➤ sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlashni tashkil etadi;

➤ rahbar sudyalik lavozimlariga nomzodlar zaxirasini shakllantiradi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, rais o‘rinbosarlari va sudyalari lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi;

➤ viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari va rais o‘rinbosarlari, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlari raislari va rais o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi va rais o‘rinbosari lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi;

➤ viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalarini, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislarini, ularning o‘rinbosarlari va sudyalarini, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlari sudyalarini, tumanlararo ma‘muriy sudlarning raislarini, ularning o‘rinbosarlari va sudyalarini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyalarini, hududiy harbiy sudlarning raislarini lavozimga tayinlaydi;

➤ Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudining sudyalik lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga qonunga muvofiq xulosalar (taqdimnomalar) kiritadi;

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi sudyalari oliy kengashi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qonuni. 1-modda.20.09.2021 yildagi O‘RQ-717-son

➤ Sudyalari oliy malaka hay'atining xulosasiga ko'ra sudyalarni ularning vakolatlari muddati davrida o'z arizalariga asosan viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalari, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalari, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari sudyalari, tumanlararo ma'muriy sudlarning raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyalari, hududiy harbiy sudlarning raislari lavozimlariga o'tkazadi;

➤ Sudyalari oliy malaka hay'atining xulosasiga ko'ra sudyalarni o'z arizalariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudining sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo ma'muriy sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalari lavozimlariga o'tkazish to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga taqdimnomalar kiritadi;

➤ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshini sudyaning roziligi bilan besh yilgacha uzaytirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnoma kiritadi;

➤ Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudining, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlarining, tumanlararo ma'muriy sudlarning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining, hududiy harbiy sudlarning sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshini sudyaning roziligi bilan besh yilgacha uzaytiradi;

➤ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan yoxud O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan saylanadigan sudyalarning vakolatlari muddatidan ilgari tugatish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar (takliflar) kiritadi;

➤ qonunda nazarda tutilgan hollarda, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalarini, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalarini, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari sudyalarini, tumanlararo ma'muriy sudlarning raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalarini, shuningdek O'zbekiston

Respublikasi Harbiy sudining sudyalarini, hududiy harbiy sudlarning raislarini lavozimidan ozod qiladi;

➤ Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining sudyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari, ularning o‘rinbosarlari va sudyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudining sudyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlararo ma‘muriy sudlarining raislari, ularning o‘rinbosarlari va sudyalarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga xulosalar kiritadi;

➤ sudyalarga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazish tartibini belgilaydi;

➤ sudyalarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi;

➤ sudyalarga va o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiruvchi Kengash a‘zolariga nisbatan xizmat tekshiruvlari o‘tkazadi;

➤ sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqadi va materiallarni sudyalarning tegishli malaka hay’atlariga yuboradi;

➤ o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiruvchi Kengash a‘zolarini intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqadi;

➤ sudyalarni jinoiy javobgarlikka tortish masalalari yuzasidan xulosa beradi;

➤ sud-huquq sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini va yagona sud amaliyotini ta‘minlash, odil sudlovga erishish darajasini hamda uni amalga oshirish sifatini yaxshilash bo‘yicha, shuningdek qonunchilikni qo‘llash masalalari yuzasidan tushuntirishlar berish to‘g‘risida takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi ko‘rib chiqishi uchun kiritadi;

➤ sudyalarning malaka hay’atlari faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, ularning faoliyatini tekshiradi, Sudyalar oliy malaka hay’ati qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqadi, sudyalar malaka hay’atlari raislarining hisobotlarini eshitadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining Sudyalar oliy malaka hay’atining qarorlari, xulosalari yuzasidan taqdimnomalarni ko‘rib chiqadi;

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning sudyalari tomonidan Sudyalari odobi kodeksi talablariga rioya etilishi masalalariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi;

➤ sudyalarning faoliyatini ularning kasbiga munosibligi nuqtai nazaridan o'rganadi;

➤ Sudyalari odobi kodeksini tasdiqlaydi;

➤ sudyalari faoliyatini ochiq va shaffof elektron reyting dasturi asosida baholash mezonlarini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi;

➤ sudyalarni kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etishga doir dasturni tasdiqlaydi;

➤ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti direktorining mazkur departament faoliyati to'g'risidagi axborotini har yili eshitadi;

➤ sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarning, yangi vakolat muddatiga yoki boshqa sudyalik lavozimlariga nomzodlarning shaxsiy va kasbiy sifatleri darajasini o'rganish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

➤ davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, shuningdek mansabdor shaxslardan hamda fuqarolardan Kengash faoliyati bilan bog'liq zarur axborotni, hujjatlarni va boshqa materiallarni so'rab oladi;

➤ O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining Reglamenti hamda vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha nizomlarni tasdiqlaydi⁵.

Kengash qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Kengash faoliyatiga ahamiyat beradigan bo'lsak, uning faoliyatida ijro etuvchi devon alohida ahamiyatli. Kengashning ijro etuvchi devoni o'z faoliyatida Kengashga hisobdordir, uning tuzilmasi va xodimlari soni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Kengash kengash raisi, uning o'rinbosari, kotibi va kengash a'zolaridan iborat. Ularning har birining vakolatlari tahlil qilinadi.

Kengash raisi:

➤ Kengash faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va Kengash zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan mas'ul bo'ladi;

➤ Kengashning majlislarini chaqiradi va unda raislik qiladi;

⁵ O'zbekiston Respublikasining 06.04.2017-yildagi O'RQ-427-sonli "O'zbekiston Respublikasi sudyalari oliy kengashi to'g'risida"gi Qonuni. 7-moddasi.

➤ Kengash vakolatiga taalluqli masalalarni uning ko‘rib chiqishi uchun kiritadi;

➤ davlat organlari, jamoat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda Kengash nomidan ish ko‘radi;

➤ Kengashning tegishli a‘zolari lavozimiga tavsiya qilinayotgan nomzodlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi;

➤ sud hokimiyati mustaqilligini, sudyalarning daxlsizligini ta‘minlashga va odil sudlovni amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan omillar haqida, shuningdek sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning holati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yil yakunlari bo‘yicha axborot taqdim etadi;

➤ jismoniy shaxslarni, yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi;

➤ Kengashning ijro etuvchi devoni xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

➤ Kengashning ijro etuvchi devoni xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

➤ Kengashning ijro etuvchi devoni xodimlariga mansab darajalarini beradi;

➤ Kengashning xarajatlar smetasini tasdiqlaydi va moliya-xo‘jalik faoliyatiga tashkiliy rahbarlikni amalga oshiradi;

➤ Kengash nomidan qarorlarni, taqdimnomalarni, majlislar bayonnomalarini va boshqa hujjatlarni imzolaydi. Kengash raisi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari qonun bilan Kengash raisi o‘rinbosarining vakolatlari ham mustahkamlangan. **Kengash raisining o‘rinbosari:**

➤ Sudyalarning daxlsizligini ta‘minlash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, uning faoliyati samaradorligini ta‘minlash uchun javobgar bo‘ladi;

➤ axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga, shuningdek axborot xavfsizligini ta‘minlashga doir ishlarni tashkil etadi;

➤ jismoniy shaxslarni, yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi;

➤ Kengash raisi yo‘qligida uning vazifasini bajaradi. Kengash raisining o‘rinbosari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin **Kengash kotibi:**

➤ Kengash a'zolarini majlislar o'tkaziladigan sana va vaqt to'g'risida xabardor qiladi;

➤ Kengash a'zolarini majlis kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha zarur hujjatlar bilan ta'minlaydi;

➤ Kengash majlislarini tayyorlash bo'yicha tashkiliy masalalarni amalga oshiradi;

➤ Kengash majlislarining bayonnomasini yuritadi;

➤ Kengash qarorlarining ko'chirma nusxalari manfaatdor shaxslarga va tashkilotlarga yuborilishini ta'minlaydi;

➤ Kengash qarorlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ishlarini tashkil etadi;

➤ Kengashda ish yuritilishini nazorat qiladi;

➤ Kengash raisining topshiriqlarini bajaradi.

➤ Kengash kotibi yo'qligida uning vazifalarini bajarish Kengash raisining topshirig'iga binoan Kengashning o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiruvchi a'zolaridan biri zimmasiga yuklatiladi.

Kengash a'zosining huquqlari. Kengash a'zosi quyidagilarga haqli:

➤ Kengashga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan materiallar bilan tanishish, ularni o'rganish va ko'rib chiqishda ishtirok etish;

➤ ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha Kengashga iltimosnomalar kiritish, o'z dalil-asoslarini bayon qilish va qo'shimcha materiallarni taqdim etish;

➤ elektron reyting dasturi orqali sudyalarning faoliyatining samaradorligini monitoring qilish;

➤ Kengashning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur axborot va hujjatlarni davlat organlaridan, boshqa tashkilotlardan so'rash hamda bepul asosda olish;

➤ Kengashning vakolatiga taalluqli bo'lgan masalalarni majlislarda ko'rib chiqish uchun taqdim etish;

➤ Kengashning qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish va o'zining alohida fikrini bayon etish. Kengash a'zosi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Kengashning faoliyatini tashkil etish.

Faoliyatning asosiy tashkiliy shakli majlisdir. Kengash majlisi o'z vakolatiga kiradigan masalalarning tayyorlanishiga qarab o'tkaziladi. Kengash majlisi o'z a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi. Kengashning qarori ochiq ovoz

berish orqali majlis ishtirokchilarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Raislik qiluvchi oxirida ovoz beradi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi bo'ladi. Kengashning qaroriga rozi bo'lmagan Kengash a'zosi xulosani imzolaydi va u o'zining alohida fikrini yozma tarzda bayon qilishga haqli bo'lib, ushbu fikr majlis bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi, lekin e'lon qilinmaydi. O'ziga nisbatan mazkur qaror qabul qilingan shaxs Kengash a'zosining alohida fikri bilan tanishtirilmaydi. Kengash a'zolarining ovoz berishi yopiq majlisda o'tkaziladi.

Bundan tashqari, Kengash a'zosini rad etish va uning o'zini o'zi rad etishi, unga ma'lum asoslarga bo'lganda amalga oshirilishi mumkin.

Kengash o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar, xulosalar qabul qiladi va taqdimnomalar kiritadi.

Kengash majlisida qabul qilinadigan qarorlar turlari.

Kengash o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar, xulosalar qabul qiladi va taqdimnomalar kiritadi.

Kengash majlisida quyidagi qarorlar qabul qilinishi mumkin:

- nomzodning ko'rsatilgan sudyalik lavozimiga munosibligi yoki munosib emasligi haqida yoxud nomzodning takroriy tanlovda ishtirok etishi uchun ruxsat berish huquqini qoldirish to'g'risida;
- sudyalik lavozimiga tayinlash, o'tkazish haqida;
- sudyalarni rag'batlantirish tashabbusi bilan chiqish haqida;
- sudyaga nisbatan intizomiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risida;
- sudyani jinoiy javobgarlikka tortish uchun xulosa berish haqida;
- sudyaning vakolatlarini to'xtatib turish yoki muddatidan ilgari tugatish to'g'risida.

Kengash o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan boshqa qarorlar ham qabul qilishi mumkin. Kengashning o'z vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarorlari davlat organlari va boshqa tashkilotlar uchun majburiydir. Sudyalar korpusini shakllantirish masalasi. Sudyalar korpusini shakllantirish chog'ida sudyalik lavozimlariga nomzodlar huquqlarining tengligi ta'minlanadi. Kengash sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlar zaxirasini shakllantiradi. Zaxiraga kiritilish istagini bildirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Kengashga ariza bilan murojaat qiladi va ariza ikki oy ichida ko'rib chiqiladi. Zaxiraga sudyalik lavozimlari uchun zarur bilimga, yetarli hayotiy tajribaga va benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lgan yuqori malakali yuristlar orasidan o'ttiz uch

yoshdan kichik bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik ixtisos bo'yicha kamida besh yillik ish stajiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kiritilishi mumkin. Zaxiraga kiritilmaydigan shaxslar ruyxati qonun bilan belgilangan. Bular: odil sudlovni amalga oshirishga monelik qiladigan kasalliklarga yoki jismoniy nuqsonlarga ega bo'lganlar; belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar; o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun vakolatlari oldingi ish joyi bo'yicha belgilangan tartibda tugatilganlar; sudyalik lavozimiga munosib emasligi tufayli zaxiraga kiritishni rad etish haqida Kengash xulosasi qabul qilinganidan keyin bir yil o'tguniga qadar zaxiraga kiritish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganlar. Zaxiraga kiritish sudyalik lavozimiga nomzodning ushbu Qonunda nazarda tutilgan mezonlarga munosibligini o'rganish va Kengash tomonidan belgilanadigan tartibda o'tkaziladigan imtihondan muvaffaqiyatli o'tish natijalariga ko'ra, Kengashning qarori bilan amalga oshiriladi.

Sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarni tanlash tartibi.

Bo'sh sudyalik lavozimlari to'g'risidagi axborot Kengashning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Sudyalik lavozimiga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarni ko'rib chiqish muqobillik asosida amalga oshiriladi.

Zaxiraga kiritilgan sudyalik lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabida o'qishni muvaffaqiyatli tamomlaganidan keyin bo'sh sudyalik lavozimlarini to'ldirish uchun tanlovda ishtirok etish to'g'risida bevosita Kengashga ariza berish huquqiga ega.

Sudyalik lavozimiga nomunosibligi tufayli o'ziga nisbatan Kengashning zaxiraga kiritish rad etilganligi to'g'risidagi xulosasi chiqarilgan shaxs bir yil o'tgach, zaxiraga kiritish to'g'risidagi ariza bilan Kengashga takroran murojaat qilishi mumkin.

Sudyalikning muhim kafolatlaridan biri bu sudyaning vakolatlari muddati tugaganidan keyin uni sudyalik lavozimiga va boshqa sudyalik lavozimiga tayinlash bo'lib, yangi vakolat muddatiga o'z nomzodini ko'rsatish istagini bildirgan sudya vakolatlari muddati tugashiga kamida olti oy qolganda arizani va zarur hujjatlarni tegishli sudyalarning malaka hay'atiga beradi. Sudyalar oliy malaka hay'ati sudyani yangi muddatga

yoki boshqa sudyalik lavozimiga tayinlash mumkinligi haqida Kengashga xulosa taqdim etadi.

Sudyaning vakolatlari muddati tugaganidan keyin Kengash uch oy ichida nomzodning sudyalik lavozimiga munosibligi yoki nomunosibligi haqidagi masalani ko'rib chiqishi kerak.

Kengash a'zosi o'z faoliyati davomida mustaqil bo'lib, quyidagilar orqali ta'minlanadi, ya'ni uning qonunda belgilangan tartibda tayinlanishi (tasdiqlanishi); uning daxlsizligi; Kengash majlislari maslahatlashuvining sir tutilishi; uning yuksak maqomiga muvofiq unga davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minot berilishi.

Kengash a'zosining vakolatlari muddati 5 yil tayinlanadi (tasdiqlanadi). Shu bilan birga, Kengashning doimiy a'zosi surunkasiga ikki muddatdan ortiq tayinlanishi (tasdiqlanishi) mumkin emas.

Kengash a'zosi Kengashning roziligisiz jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilishi, shuningdek qamoqqa olinishi mumkin emas. Kengash a'zosiga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Kengash a'zosining vakolatlari Qonuning 30-moddasida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lganda vakolati muddatidan ilgari tugatilishi mumkin

Kengash raisi va kotibining vakolatlari tugaganidan keyin ularga lavozimga tayinlanishiga (tasdiqlanishiga) qadar egallab turgan avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo'lmaganda esa, avvalgisiga teng boshqa ish (lavozim) beriladi. Sudyalar orasidan tasdiqlangan Kengash a'zolari o'z vakolatlari muddati tugaganidan keyin sudyalik faoliyatini avvalgi lavozimida yoki shunga teng bo'lgan boshqa sudyalik lavozimida davom ettiradi.

5.3. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy maktabi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 6-yanvardagi PQ-4096-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov muammolarini o'rganish tadqiqot markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi **Sudyalar oliy maktabi** tashkil etildi.

Oliy maktab sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Oliy maktabning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ular malakasini oshirish;
- interfaol o'qitish usullarini ta'lim jarayoniga joriy etish;
- huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb masalalarini muhokama qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;
- fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- xalqaro hamkorlik va h.k.

Oliy maktab faoliyatini tashkil etishning asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun Oliy maktab direktori boshqaradigan Kengash tashkil etiladi. Kengash tarkibiga direktor o'rinbosarlari, kafedra mudirlari, boshqa tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, ta'lim va yuridik sohalaridagi yetakchi olimlar va mutaxassislar, shuningdek Kengash kotibi kiradi. Kengash qarori Oliy maktab direktori va Kengash kotibi tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Oliy maktabga O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisining taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi va u bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining jamoatchilik asosidagi a'zosi hisoblanadi.

Oliy maktabning o'quv-metodik va ilmiy faoliyati. Oliy maktab faoliyati uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash – davlat grantlari asosida bir yillik magistratura. Sudyalik lavozimlarini egallashga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun Oliy maktab magistraturasiga qabul faqat sudyalik lavozimlari zaxirasida bo'lgan shaxslar orasidan tanlov asosida amalga oshiriladi. Oliy maktab magistraturasiga O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bilan birgalikda belgilanadigan kvotalari bo'yicha sudyalik lavozimlari zaxirasida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari belgilangan tartibda qabul

qilinadi. O‘qishga qabul qilish tinglovchi tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng Oliy maktab direktorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Oliy maktab magistraturasi tinglovchilariga sudya yordamchisining bir oylik mehnatga haq to‘lash fondi miqdorida stipendiya to‘lanadi. Oliy maktab magistraturasiga qabul qilingan shaxslar asosiy ish joyi bo‘yicha lavozimidan ozod etiladi, biroq ularning egallagan lavozimi butun o‘qish davri mobaynida saqlanadi.

2. Sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash – rahbarlik lavozimlarini egallash uchun zaxirada bo‘lgan sudyalarni qayta tayyorlash ikki oylik kurslaridan iborat.

3. Sudyalar va sudlar apparati xodimlarini malakasini oshirish – sudyalar va sudlar apparati xodimlarining malakasini oshirish. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining asosiy ish joyi bo‘yicha egallab turgan lavozimi va o‘rtacha oylik ish haqi o‘qish davrida saqlanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Sudyalar oliy kengashi faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunning asosiy qoidalarini izohlab bering?

2. Sudyalar Oliy kengashi faoliyatining muhim jihatlarini muhokama qiling?

3. O‘z faoliyatini amalga oshirish davomida O‘zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi sud faoliyatiga aralashmaslik prinsipiga amal qilishining asosiy sabablarini sharhlab bering?

4. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar assotsiatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi faoliyatidagi o‘xshash va farqli jihatlarni sanab o‘ting?

5. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar assotsiatsiyasi faoliyatini amalga oshiruvchi asosiy tuzilmalar faoliyatini tahlil qiling?

6-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARI

Reja:

- 6.1. O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi.
- 6.2. Prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va prinsiplari.
- 6.3. O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tuzilishi va tizimi.
- 6.4. Prokuror nazorati va prokurorning asosiy vazifalari.
- 6.5. Prokuratura organlari xodimlari.

6.1. O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi

19-asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishiga qadar Buxoro amirligida, Xiva va Qo‘qon xonliklari kabi feodal davlatlarda prokuratura va shu kabi organlar mavjud emas edi. Gap shundaki, shariat qonunlariga rioya etish ustidan maxsus organ tomonidan nazoratni amalga oshirish Qur‘onda nazarda tutilmagan. Musulmon huquqi prokuror nazorati kabi institutni umuman nazarda tutmaydi.

Prokuror nazorati instituti 1867-yildagi Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomning loyihasi bilan nazarda tutilgan edi. Biroq o‘sha paytda prokuratura maxsus organ sifatida hali tashkil etilmagan edi. Prokuror vakolatlarini ko‘proq o‘z tashabbusi bilan harbiy gubernatorlar oldi.

Turkiston o‘lkasining uchta mustaqil ma‘muriy tuzilmasida (Sirdaryo oblasti, Zarafshon Okrug i va Amudaryo otdeli) uchta “prokuror” mavjud bo‘lgan: Sirdaryo gubernatori, Zarafshon okrug i boshlig‘i va Amudaryo otdeli boshlig‘i. Bu mansabdor shaxslar ishlarning sudlovga taalluqliligini qayta ko‘rib chiqishlari, ularni ma‘muriy tartibda hal etishlari va o‘z xohishiga binoan, tugatishlari mumkin edi.

1887-yilda adliya vaziri buyrug‘i bilan Sirdaryo, Yangi Marg‘ilon, Samarqand, Vernensk oblast sudlari huzurida oblast prokuraturalari tashkil etilgan edi. Ular ma‘muriy tartibda Rossiya Adliya vaziriga bo‘ysunar edi.

Turkistonda chor prokuraturasi ma'muriy-hududiy printsipl bo'yicha tashkil etilgan edi. Okrug sudi huzuridagi prokuror sud palatasi prokuroriga bo'ysunar edi, u esa o'z navbatida – bevosita adliya vaziriga va unga hisobot berar edi. Barcha prokurorlar shoh tomonidan tayinlanar va ozod etilar edi.

Turkistondagi prokuratura Chor Rossiyasi prokuraturasining tarkibiy qismi bo'lib, uning qonunlarini joriy etish va ularga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirgan. Prokuratura xodimlarining kamsonligi, mahalliy aholining tili va odatlarini bilmasligi, manfaatlarning bir-biriga mos kelmasligi prokuratura organlari va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilanishiga imkon bermasdi.

1922-yilning boshida Turkiston ASSR davlat prokuraturasi to'g'risidagi dekret loyihasi ustidan ish boshlandi. 1922-yil 9-mayda Turkiston ASSRning MIQ va XKK Turkiston ASSR davlat prokuraturasi to'g'risida Nizomni tasdiqladi va u 1922-yil 3-iyunda qonuniy kuchga kirdi. 1922-yilning iyun oyi boshlarida Turkiston ASSRda prokuratura ham markazda, ham joylarda tashkiliy jihatdan shakllandi. Aynan mana shu paytdan boshlab Turkistonda prokuraturaning tashkil topishi boshlanadi. Turkistonda prokuraturaning ta'sis etilishi umuman olganda yangi davlat funksiyasi paydo bo'lganligini va mazkur hududda davlat faoliyatining yangi shakli tashkil topganligini anglatar edi.

Umumiy nazoratdan tashqari prokuratura organlari zimmasiga har qanday mansabdor shaxs ustidan o'z tashabbusi bilan yoki bu shaxslar ustidan kelib tushgan shikoyat va arizalar asosida jinoyat ishi qo'zg'atish, ularni ushlab turish yuklatilgan.

Nizomga ko'ra, prokuraturaga boshchilikni Adliya xalq noziri amalga oshirgan, uning o'zi Turkiston ASSR prokurori edi. Davlat prokuraturasi bo'limiga Adliya xalq noziri o'rinbosari mudirlik qilgan.

1922-yil 1-avgustdagi Turkiston ASSR MIQ qarori bilan respublika hududida RSFSR Jinoyat-protsessual kodeksi amalga kiritildi. Unda prokuror funksiyalari ham belgilangan bo'lib, ularga jinoyatlarni tergov qilish ustidan nazorat qilish bo'yicha juda katta vakolatlar berilgan edi.

1922-yil 21-noyabrda Umumbuxoro MIQ (Markaziy Ijroiya Qo'mitasi) qarori bilan Umumbuxoro MIQ Oliy nazorati bo'linmasi sifatida Prokuratura tashkil etilgan edi. Mazkur qoida qabul qilinishi

bilan amalda 1922 yilning noyabridan faoliyat ko'rsatayotgan BXSR (Buxoro Xalq Sotsialistik Respublikasi) prokuraturasining yuridik jihatdan huquqiy maqomi belgilandi.

1923-yildagi Adliya xalq nozirligi to'g'risidagi nizomga ko'ra Adliya xalq noziri bir vaqtning o'zida respublika prokurori ham edi va shu munosabat bilan unga juda keng vakolatlar berilgan edi. Prokuror nazorati BXSR Adliya xalq nozirligining davlat prokuraturasi bo'limi orqali amalga oshirilar edi. Bo'limga BXSR prokurori yordamchisi bo'lgan mudir rahbarlik qilar edi, u respublika prokurori tomonidan tayinlanar va lavozimidan ozod etilar edi.

1924-yil 24-sentyabrda XXSR (Xorazm Xalq Sotsialistik Respublikasi) MIQ qarori bilan Adliya xalq nozirligi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomga ko'ra Adliya nozirligi Nozir, bir vaqtning o'zida XXSR davlat prokurori sifatida rahbarlik qilardi, uning zimmasiga respublikada qonuniylik ustidan umumiy nazorat amalga oshirish yuklatilgan edi. Bevosita prokuror nazoratini Adliya nozirligi prokuratura bo'limi orqali amalga oshirar edi, uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi: davlat nomidan barcha hokimiyat organlari, xo'jalik muassasalari, jamoat va xususiy muassasalar harakatlari qonuniyligi ustidan aybdorlarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish hamda noqonuniy qarorlar ustidan protest bildirish yo'li bilan nazoratni amalga oshirish; jinoyatlarni ochish borasida tergov va surishtiruv organlari, shuningdek, davlat siyosiy boshqarmalari faoliyatini bevosita kuzatish, ozodlikdan mahrum etish joylari va axloq tuzatish muassasalarining to'g'ri faoliyat ko'rsatishini kuzatish; Oliy sudga nisbatan prokuror nazorati funksiyalarini amalga oshirish.

1926-yil 29-sentyabrda O'zSSR MIQ tomonidan tasdiqlangan va 1927-yil 15-fevralda amalga kiritilgan O'zSSR sud tuzilishi to'g'risidagi nizom 1925-yildagi Adliya xalq nozirligi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha tarzda prokuraturaga qonun buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar ustidan intizomiy va ma'muriy ish yurituv qo'zg'atish huquqi berildi, shuningdek, uning zimmasiga jinoyat ishlari bo'yicha kassatsiya instantsiyalarida xulosalar berish va jinoyat bilan kurash olib borayotgan barcha organlar faoliyati ustidan umumiy kuzatishni amalga oshirish majburiyatlarini yukladi.

O'zSSR prokurori bir vaqtning o'zida respublika adliya xalq noziri bo'lganligi tufayli respublika hukumati tarkibiga ham kirgan. Natijada respublika prokurori O'zSSR MIQ tomonidan tayinlanib va vazifasidan

ozod etilishiga qaramay, adliya xalq noziri sifatida respublika Xalq nozirlari Sovetiga hisobdor edi. Respublika prokurori qonuniylik ustidan nazorat funksiyasini boshqaruv funksiyasi bilan mujassamlashtirar edi, va bu nazorat funksiyalarini amalga oshirishda salbiy ta'sir etardi.

1929-yil 27-yanvarda O'zSSR Adliya xalq nozirligi hay'ati AXN huzuridagi prokuratura bo'limi to'g'risidagi nizomni tasdiqladi. Nizomga ko'ra O'zSSR hududida prokuratura organlari faoliyatiga rahbarlik respublika prokuratura bo'limiga o'tdi; bo'linga endi xalq noziri emas, O'zSSR adliya xalq noziri o'rinbosari rahbarlik qilardi, bir vaqtning o'zida u respublika prokurori ham edi.

1931-yil 23-sentyabrda O'zSSR MIQ va XNK O'zSSR adliya xalq nozirligi to'g'risida yangi nizomni tasdiqladi. Unga ko'ra prokuratura endi bo'lim emas, lavozimi bo'yicha Adliya xalq noziri o'rinbosari bo'lgan respublika Prokurori tomonidan boshqariladigan AXN tarkibidagi mustaqil muassasa sifatida tashkil etildi.

1933-yil 10-iyulda Sobiq Ittifoq MIQ va XNK "Ittifoq prokuraturasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi prokuratura tarixida ulkan voqea bo'ldi. Sobiq Ittifoq MIQ va XNK 1933-yil 17-dekabrda qarori bilan Ittifoq prokuraturasi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Shu bilan bir vaqtda Ittifoq Oliy sudi Prokuraturasi tugatilishi amalga oshirildi. Nizomda Ittifoq Prokuraturasi funksiyalari va ularni amalga oshirish tartibi, shuningdek, prokuror nazoratining yo'nalishlari belgilandi: umumiy nazorat; davlat siyosiy boshqarmalari va militsiya harakatlari to'g'riligi va qonuniyligi ustidan nazorat; dastlabki tergov ustidan nazorat; sud organlari tomonidan qonunlarni to'g'ri va bir xilda qo'llanilishi ustidan nazorat; axloq-tuzatish muassasalari faoliyati to'g'riligi va qonuniyligi ustidan nazorat.

Prokuratura hayotining muayyan davri birinchi planga jazolash muassasalari chiqishi, ularning ustuvorligi oliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tan olinganligi bilan bog'liq bo'lgan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati deformatsiyalangan davr bilan bog'liq. Faqat 50-yillarning o'rtalarida qonuniylikni mustahkamlash, davlat rivojlanishining huquqiy negizini yaratishga doir urinishlar bo'ldi.

Prokuratura rivojlanishi jarayonida navbatdagi muhim davr bo'lib 1955-yil 24-mayda Ittifoqda prokuror nazorati to'g'risidagi nizomning qabul qilinishi hisoblanadi. Unda davlatda qonuniylikning o'rni va uni og'ishmay ta'minlashda prokuror nazorati organlarining roli

to'g'risidagi fikrlar qonuniy tartibda belgilanib qo'yildi va keyinchalik o'z rivojini topdi. Nizomda prokurorlarning vazifalari, vakolatlari jinoyat va fuqarolik ish yurituvida aniqlangan qonun buzilish holatlariga prokuror ta'ir etish choralari belgilandi. Nizomning ko'pgina qoidalari keyinchalik jinoyat va fuqarolik ish yurituvi asoslariga, axloq tuzatish qonunchiligiga kiritildi.

Harbiy prokuratura organlari ham qayta tashkil etilgan edi. Ularning tizimi va tuzilishi, harbiy prokurorlarning vakolatlari, ularning funksiyalari va hududiy prokurorlar faoliyati bilan o'zaro munosabati – bularning hammasi 1966-yil 14-dekabrda tasdiqlangan Harbiy prokuratura to'g'risidagi nizomda o'z aksini topgan. Unga ko'ra harbiy prokuratura sovet prokuraturasi organlari tizimiga kirardi va Ittifoq Bosh prokuroriga bo'ysunardi.

Qonuniylik ustidan tegishli nazoratni ta'minlashga doir keyingi qadamlar 1977-yilda Konstitutsiya qabul qilinishi bilan bog'liq. Ittifoq prokuraturasi to'g'risidagi Qonun ishlab chiqish haqidagi qaror ushbu qadamlardan biri edi. Bunday qonun o'ninchi chaqiriq Ittifoq Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi tomonidan 1979-yil 30-noyabrda qabul qilindi. Unda sovet prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy printsiplari, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari o'z ifodasini topgan va huquqiy tartibga solingan.

Prokuror nazorati ma'muriy-buyruqbozlik tizimining bo'lagi sifatida 1980-1990-yillardagi avtoritar rejim o'tkazuvchisi bo'ldi. Iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va tashkiliy richaglar ishlashi kerak bo'lgan joylarda zo'rlik choralarini ishlatish maqsadida prokuratura qo'llanar edi. Bunday amaliyot ko'pchilik idoralar sovet va nazorat organlari qonuniylik va intizomga rioya qilish ustidan nazoratning mukammalligi va samaraliligini ta'minlamasligiga, prokuror va jinoiy-huquqiy ta'sir choralariga tayangan holda ularga taqdim etilgan huquqlarni to'la ishlatmasligiga olib keldi.

O'zbekiston prokuraturasining yangi maqomiga suverenitet g'oyalari asosida 1991-yil 31-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'rsida"gi Qonuni va 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi asos solib berdi.

Prokuratura organlarini isloh qilish uning faoliyatini demokratizatsiyalashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan prioritetlarni aniqlash, qonuniylikni mustahkamlash,

fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonun bilan quriqlanadigan jamiyat va davlat manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilishga qaratilgan.

Totalitar rejim davrida prokuratura organlari partiya elitasi qo'lida qo'rqitish vositasi va quroli bo'lgan. Uning faoliyati inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga emas, aksincha, sotsialistik tuzum va sotsialistik mulkni himoya qilganda prokuratura oddiy odamlarning kundalik huquqlarini buzgan. 1992-yil 9-dekabrda "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan prokuraturani demokratizatsiyalashtirish va uning faoliyatini O'zbekistonning davlat mustaqilligi manfaatlariga, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishga bo'ysundirish maqsadlarida prokuratura organlarini isloh qilish jarayoni boshlandi.

Nisbatan qisqa muddat davrida O'zbekiston o'z ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida sezilarli natijalarga erishdi. Mamlakatda mulkchilikning turli shakllari paydo bo'ldi, yangi iqtisodiy munosabatlar yuzaga keldi, shaxs huquqlarining kafolatlangan himoyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Biroq qonunlarga rioya etish ustidan nazorat borasidagi prokuratura organlari faoliyati ko'pincha jazolash xarakteriga ega edi va o'zining yaratuvchi va ijobiy rolini yo'qotar edi. Prokurorlar faoliyatida uchrab turadigan qonunlarni erkin talqin etish holatlari ham xavotirlanishga sabab bo'lar edi. Barcha mazkur omillar 2001-yil 29-avgustda prokuratura vakolatlari doirasi; uning faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va prokuratura organlari vazifalarini aniqlab bergan O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi belgilab berdi.

6.2. Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari va prinsiplari

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari: qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni

mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini, Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari:

➤ vazirliklar, davlat qoʻmitalari, idoralar, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

➤ fuqaroning huquq hamda erkinliklarini taʼminlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

➤ Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

➤ tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

➤ jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

➤ sudlarda jinoyat ishlari koʻrib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni koʻrishda ishtirok etish, qonunlarga zid boʻlgan sud hujjatlariga protest keltirish;

➤ soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

➤ ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy taʼsirning boshqa choralarini ijro etish chogʻida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

➤ qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari – birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.

Prokuratura organlari Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va Oʻzbekiston

Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek u o'z bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir. Prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari har yili tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari Kengashlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi; zarur bo'lgan hollarda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qonuniylikning va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida xabardor qiladi.

6.3. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tuzilishi va tizimi

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi;
3. viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
4. tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
5. viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;
6. tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.
7. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek ularning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, shuningdek viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning vakolat muddati besh yil.

1)O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

rahbarlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosariga, o‘rinbosarlariga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo‘limlarning boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori vakolatlari:

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko‘rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko‘rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida ishtirok etadi, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo‘llash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha Plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay‘atining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

➤ prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajali unvonlar berish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

➤ prokuratura organlari xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;

➤ prokuratura organlari xodimlarini «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlaydi;

➤ buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

➤ chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to'g'risidagi bitimlar tuzadi;

➤ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir va muntazam ravishda hisobot taqdim etadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga quyidagilar haqida axborot taqdim etadi:

➤ qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida – muntazam ravishda;

➤ o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida – zudlik bilan;

➤ prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida – har olti oyda. Agar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarini ijro etish maqsadida o'tkazilgan tekshiruvlar davomida davlat boshqaruvi organlari va hokimlarning qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo'lgan hujjatlari aniqlangan taqdirda, Bosh prokuror bu hujjatlarni to'xtatib turish yoki bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi. Shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va hokimlarning hujjatlari fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini jiddiy ravishda kamsitayotgan bo'lsa, Bosh prokuror bu hujjatlarni to'xtatib turish yoxud bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritishi mumkin.

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi, u O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdordir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tegishincha tuman, shahar prokuraturalarining va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasida boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi. Boshqarmalar va bo‘limlarning boshliqlari hamda ularning o‘rinbosarlari, prokurorning katta yordamchilari, prokurorning ichki xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha yordamchisi, katta prokuror-kriminalist O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining yordamchilari, boshqarmalar va bo‘limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, prokuror-kriminalistlar, alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

3) Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar, ular O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar hamda lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo‘ysunadilar va uning oldida hisobdordirlar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tegishincha tuman, shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan

lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari bo‘ladi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi.

Boshqarmalar va bo‘limlarning boshliqlari, prokurorlarning katta yordamchilari, prokurorlarning ichki xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha yordamchilari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Boshqarmalar va bo‘limlar boshliqlarining o‘rinbosarlari, katta prokuror-kriminalistlar va prokuror-kriminalistlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning yordamchilari, boshqarmalar va bo‘limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

4) Tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladi, ular O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo‘ysunadilar va ularning oldida hisobdordirlar.

Tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o‘rinbosarlari bo‘lishi mumkin.

Tumanlar, shaharlar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning katta yordamchilari, yordamchilari, prokuratura katta tergovchilari va tergovchilari, ish o‘rganuvchilari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar

prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

5) O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi.

6) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tuziladi. Departamentga maqomi, mehnatga haq to‘lash shartlari, tibbiy va transport xizmatlari ko‘rsatilishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosariga tenglashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Departament boshlig‘i rahbarlik qiladi.

Departament boshlig‘ining o‘rinbosarlari Departament boshlig‘ining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departamentning markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalari boshliqlari Departament boshlig‘ining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departamentni va uning joylardagi bo‘linmalarini tashkil etish hamda ularning faoliyati tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

7) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda uning hududiy bo‘linmalari. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etiladi. Byuroni maqomi, mehnatga haq to‘lash, tibbiy va transport ta‘minoti shart-sharoitlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosariga tenglashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan hamda lavozimidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod etiladigan direktor boshqaradi.

Byuro direktori lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat ijrochisi hisoblanadi.

Byuro direktorining o‘rinbosarlari Byuro direktorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuro hududiy boshqarmalarining boshliqlari Byuro direktorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuroning tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari Byuro direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuro va uning hududiy bo‘linmalarining tashkil etilishi va faoliyati tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Prokuratura organlarining hay‘atlari.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay‘at tuziladi. Hay‘atning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda prokuror (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari va prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay‘at tuziladi. Hay‘atning tarkibi tegishli prokurorning taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tuziladigan hay‘atlar maslahat organlari bo‘lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko‘rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yishga doir va boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo‘linmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi. Hay‘at qarorlari asosida tegishli prokurorlar buyruqlar chiqarishi mumkin.

6.4. Prokuror nazorati. Prokurorning vakolatlari

Prokuror nazorati nazorat predmetiga ko'ra bir necha turlarga ajratiladi:

1. Qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi.

2. Fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi nazorat predmeti hisoblanadi.

3. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat.

Jinoyatlar to'g'risidagi arizalar va xabarlarni ko'rib chiqish hamda hal qilish va tergovni olib borishning qonun hujjatlarida belgilangan protsessual tartibi, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat predmeti hisoblanadi. Prokuratura organlari jinoyat-protsessual qonunga binoan o'z vakolatlariga berilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar yuzasidan tergov o'tkazadilar.

Prokuror jinoyat-protsessual qonunga muvofiq har qanday jinoyatni tergov qilishni o'z ish yurituviga olishga yoki o'ziga bo'ysunuvchi prokurorga topshirishga, shuningdek birgalikda tergov o'tkazish uchun prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari hamda boshqa organlarning tergovchilari va tezkor xodimlaridan iborat tergov guruhini tuzishga haqlidir.

4. Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa

choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat.

Bularga quyidagilar kiradi:

➤ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etuvchi muassasalarda shaxslar saqlanishining qonuniyligi;

➤ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etish tartibi va sharoitlari haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi;

➤ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlarning, shuningdek jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari qo'llanilgan shaxslarning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishi;

➤jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini qo'llayotgan organ va muassasalar, mansabdor shaxslar faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishi.

5. Sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlari.

Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instantsiya sudlarida ishlar ko'rilayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi. Prokuror sudlarda jinoyat ishlari ko'rilayotganda davlat ayblovini quvvatlaydi. Prokuror sudda dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, qonunning qo'llanishi xususida o'z fikrini bildiradi. Ishlar sudlarda ko'rilayotganda ishtirok etayotgan prokurorning vakolatlari protsessual qonunlar bilan belgilanadi.

Ishlarni suddan talab qilib olish va chaqirib olish. Sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qarori qonuniy kuchga kirgan har qanday ishni prokuror o'z vakolatlari doirasida suddan talab qilib olish huquqiga egadir. Prokuror yoki uning topshirig'iga binoan prokuratura organlarining boshqa xodimlari sudlarda bunday ishlarning har qanday toifasini o'rganib chiqish huquqiga ega.

Sud qarorlariga protest keltirish. Prokuror protsessual qonunda belgilangan tartibda o'z vakolatlari doirasida sudning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi va qaroriga protest keltirishga haqli.

Protest keltirish prokurorning vakolat doirasidan chetga chiqib ketadigan hollarda u protest keltirish to'g'risidagi taqdimnoma bilan yuqori turuvchi prokurorga murojaat etadi.

Prokuror nazorati hujjatlari.

Prokuror nazorati hujjatlarining turlariga quyidagilar kiradi: **protest, qaror, taqdimnoma, ariza** va **ogohlantiruv** prokuror nazorati hujjatlaridir.

Protest – qonunga zid bo‘lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi.

Protest kelib tushgan vaqtdan boshlab o‘n kunlik muddatdan kechiktirmay ko‘rib chiqilishi shart. Qonunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror protestni ko‘rib chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqli. Protestni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma’lum qilinadi.

Qaror – prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat ishi, ma’muriy yoki intizomiy javobgarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida qaror chiqaradi. Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi.

Ma’muriy yoki intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko‘rib chiqilishi shart. Uni ko‘rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddatda prokurorga yozma ravishda ma’lum qilinadi.

Taqdimnoma – prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo‘lgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi.

Taqdimnoma darhol ko‘rib chiqilishi va ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma’lum qilinishi lozim.

Taqdimnoma kollegial organ tomonidan ko‘rib chiqiladigan hollarda majlis kuni haqida prokurorga ma’lum qilinadi va u majlisda ishtirok etishga haqlidir.

Ariza – prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Prokurorning arizasi sud tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi. Prokuror arizasidan davlat boji olinmaydi.

Ogohlantiruv – prokuror fuqarolarning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi.

Ogohlantiruv to‘g‘risida prokuror yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga), shuningdek ogohlantiruv e‘lon qilingan shaxsning ish, o‘qish joyi bo‘yicha ish beruvchiga (ma‘muriyatga) yoki yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga ma‘lum qilishga haqli.

6.5. Prokuratura organlari xodimlari

Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo‘yiladigan talablar. Prokuratura organlarida prokurorlar, tergovchilar, surishtiruvchilar va ish o‘rganuvchilar lavozimiga oliy yuridik ma‘lumotga ega, zarur kasbiy fazilatlari bo‘lgan, zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog‘lig‘i imkon beradigan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi.

Alohida hollarda, prokuratura organlaridagi xizmatga iqtisodiyot, moliya, sotsiologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida va boshqa sohalarda oliy ma‘lumotga, zarur bilim va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar qabul qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmagan shaxslar tayinlanadi.

Prokuratura organlari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilishi lozim.

Prokuratura organlari xodimlariga ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanish taqiqlanadi.

Prokuror yoki tergovchi lavozimiga birinchi marta tayinlanayotgan shaxs qasamyod qabul qiladi. Qasamyod qabul qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan belgilanadi.

Prokurorlar faoliyatini baholash.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, shuningdek viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning faoliyati tegishli yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan ularning vakolat muddati davomida kamida ikki marta kompleks o‘rganib chiqiladi. Prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ta‘minlanishi hisoblanadi.

O‘z faoliyati davrida tegishli hududda qonunlar ijrosi ustidan lozim darajada nazorat o‘rnatilishini ta‘minlab bera olmagan shaxslar prokuror lavozimiga takroran ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Prokuratura organlarining ichki xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmasi - O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi tuzilmasida prokuratura organlarining ichki xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmasi tuziladi.

Prokuratura organlarining ichki xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmasi prokuratura organlari xodimlari tomonidan sodir etilgan xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish, korrupsiya va egallab turgan lavozimiga noloyiq boshqa nojo‘ya xatti-harakatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘yicha xizmat tekshiruvlari o‘tkazadi, prokuratura organlarida ichki xavfsizlikni ta‘minlash sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, Bosh prokuratura hay‘atining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari, farmoyishlari va ko‘rsatmalari so‘zsiz ijro etilishini ta‘minlaydi.

Prokuratura organlari xodimlariga egallab turgan lavozimlari va mehnat stajiga muvofiq darajali unvonlar yoki harbiy unvonlar beriladi.

Prokuratura organlari va muassasalaridagi xizmat.

Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o‘tash, prokuratura organlari va muassasalarining xodimlariga darajali unvonlar va harbiy unvonlar berish hamda ulardan mahrum etish, ularni rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizomda belgilab qo‘yiladi.

Prokuratura organlari xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'qotar qurol hamda boshqa shaxsiy himoya vositalari olib yurish huquqiga ega.

Prokuratura organlari xodimining daxlsizligi masalasida alohida ta'kidlash kerakki, prokuror, tergovchi va surishtiruvchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi.

Prokuratura organlari xodimlarining intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat ekanligini izohlab bering?
2. Prokuratura organlarining o'z funksiyasini bajarishda boshqa davlat organlari bilan munosabatlarini tahlil qiling?
3. Prokuror nazorati hujjatlarining turlari hamda ularning farqli jihatlarini bayon eting?
4. Prokuror nazoratining qanday turlari mavjud?
5. So'ngi yillarda prokuratura organlari faoliyati bilan bog'liq milliy qonunchiligimizda yuz bergan o'zgarishlarni tushuntirib bering?

7-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

Reja:

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini tashkil etilishi va uning faoliyatining asosiy prinsiplari.

7.2. Ichki ishlar organlarining vazifalari va huquqlari.

7.3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatini tashkil etilishi va ular faoliyatining asosiy prinsiplari.

7.4. Davlat xavfsizlik organlarining vazifalari va huquqlari.

7.5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi faoliyatining huquqiy asoslari.

7.6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi vakolatlari va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.

7.7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasida Milliy gvardiyada harbiy xizmatni o‘tash tartibi va shartlari.

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini tashkil etilishi va uning faoliyatining asosiy prinsiplari

Ichki Ishlar Vazirligining faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi Qonun (2016-yil 16-sentabr) bilan tartibga solinadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatining **asosiy prinsiplari** quyidagilar hisoblanadi:

qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflikdan iborat.

Qonuniylik prinsipi – Ichki ishlar organlari xodimlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga aniq rioya etishi hamda ularni bajarishi shart.

Qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko‘ra yuz berganidan qat’iy nazar, qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ichki ishlar organlarining xodimlari xizmat majburiyatlarini bajarish chogʻidagi oʻzining qonunga xilof xatti-harakatlarini (harakatsizligini) oqlash uchun xizmat manfaatlarini, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikni, yuqori turuvchi mansabdor shaxslarning qonunga xilof talablari, buyruqlari va farmoyishlarini yoki qonunga muvofiq boʻlmagan boshqa biror-bir holatni roʻkach qilishi mumkin emas. Ichki ishlar organlarining xodimlariga kimnidir gʻayriqonuniy harakatlarni sodir etishga bevosita yoki bilvosita qiziqtirish, koʻndirish, undash taqiqlanadi.

Yagonalik prinsipi – Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlardir va Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri rahbarlik qiladigan yagona tizimdan iborat.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish prinsipi – Ichki ishlar organlari oʻz faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish asosida amalga oshiradi va himoya qilinishini taʼminlaydi.

Qiynoqlarga solish, zoʻravonlik qilish, boshqa shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsitadigan tarzda muomalada boʻlish ichki ishlar organi xodimiga taqiqlanadi. Ichki ishlar organining xodimi fuqaroga qasddan ogʻriq, jismoniy yoki maʼnaviy azob yetkaziladigan xatti-harakatlarga chek qoʻyishi shart.

Ichki ishlar organi xodimi fuqaroga murojaat qilish tartibi qonun bilan tartibga solinadi. Jumladan, oʻz lavozimini, unvonini, familiyasini, ismini, otasining ismini aytishi, fuqaroning talabiga koʻra xizmat guvohnomasini koʻrsatishi, shundan soʻng murojaat qilishining sababi va maqsadini maʼlum qilishi; fuqaroga nisbatan uning huquq va erkinliklarini cheklovchi choralar qoʻllanilgan taqdirda, bunday choralar qoʻllanilishining sababini hamda asoslarini, shuningdek fuqaroning shu munosabat bilan yuzaga keladigan huquqlari va majburiyatlarini unga tushuntirishi shart.

Ochiqlik va shaffoflik prinsipi deganda, ichki ishlar organlari oʻz faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi tushuniladi.

Ichki ishlar organlarining tizimi quyidagi ierarxiyadan tashkil topgan: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari), transportda xavfsizlikni ta‘minlash boshqarmalari (bo‘limlari), jazoni ijro etish muassasalari, ichki ishlar organlarining o‘ta muhim va toifalangan ob‘ektlardagi bo‘linmalari, shaharcha ichki ishlar bo‘linmalari va ichki ishlar organlarining tayanch punktlari, shuningdek ta‘lim va tibbiyot muassasalari, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa bo‘linmalar va tashkilotlardan iboratdir.

Shuningdek, bu tizimga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda huquqlar va imtiyozlardan foydalanadigan qorovul qo‘shinlari hamda xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shinlar ham kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, qonun hujjatlariga muvofiq ayrim masalalar bo‘yicha esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risidagi axborotni yiliga ikki marta O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga taqdim etadi.

Ichki ishlar xodimlarini tayinlash masalasi. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o‘z maqomiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri va uning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan;

Viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan;

Tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalarining (bo‘limlarining) boshliqlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar

vazirining, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari – Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘ining, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining taqdimnomalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

7.2. Ichki ishlar organlarining vazifalari va huquqlari

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta‘minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash;
- tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o‘tkazish;
- jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan terrorchilik harakatlariga chek qo‘yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo‘li bilan kurashish, shuningdek odam savdosiga qarshi kurashish;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;
- ehtiyot choralarini, jinoiy jazoni va jinoiy-huquqiy ta‘sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ijro etish, shuningdek shaxslarni qidirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;
- ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, ma‘muriy jazolarni qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etish;
- yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash;
- pasport tizimi talablarining bajarilishini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berishga hamda rasmiylashtirishga doir ishlarni, pasport tizimiga va O‘zbekiston

Respublikasi hududida bo'lish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirish;

➤ sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, psixotrop moddalarning va ular prekursorlarining muomalada bo'lishi sohasida nazorat qilish;

➤ ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish;

➤ davlat ob'ektlarini, o'ta muhim, toifalangan ob'ektlarni va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash;

➤ litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish;

➤ harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish;

➤ qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish.

Ichki ishlar organlarining huquqlari va majburiyatlari
Qonunning 16 va 17-moddalarida ifodalangan. Ularning ayrim huquqlariga to'xtalib o'tiladi:

➤ fuqarolardan qonun hujjatlariga rioya etishni, g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni tugatishni talab qilish, bu talablar bajarilmagan taqdirda esa majburlov choralarini qo'llash;

➤ fuqarolarning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarini tekshirish, fuqarolarni shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni;

➤ agar tergovga qadar va tergov harakatlarini, tezkor-qidiruv va qidiruv tadbirlarini o'tkazish, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik, hodisa holatlarini hujjatlashtirish yoki jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik izlarini, hodisa holatlarini saqlab qolish uchun zarur bo'lsa, fuqarolardan jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyni, hodisa joyini tark etishni talab qilish;

➤ sodir etilayotgan jinoyatlarga chek qo'yish, shuningdek ularni sodir etayotgan shaxslarni ta'qib qilish hamda ushlab turish uchun, agar buning kechiktirilishi fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, jamiyat va davlat xavfsizligini tahdid ostiga qo'yishi mumkin bo'lsa, tashkilotlar va fuqarolarning hududiga, turar joylariga va boshqa binolariga, yer uchastkalariga, transport vositalariga sutkaning istalgan vaqtida to'sqinliksiz kirish (oshib tushish);

➤ fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish, ularni sodir etgan yoki qidiruvda bo'lgan shaxslarni aniqlash hamda ushlash maqsadida fuqarolarga tegishli bo'lgan turar joylarda va boshqa binolarda, ularga qarashli yer uchastkalarida fuqarolarning roziligi bilan, tashkilotlar joylashgan hududda va binolarda ularning ma'muriyati ruxsati bilan yoki mulkdorning roziligi bilan bo'lish;

➤ jinoyat ishlarini tergov qilish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish, jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklar va hodisalar haqidagi arizalar hamda xabarlarini ko'rib chiqish doirasida davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga kirish, zarur hujjatlar va materiallar bilan tanishish, shuningdek davlat organlaridan, boshqa tashkilotlardan hamda fuqarolardan ma'lumotlarni va boshqa zarur hujjatlar hamda materiallarni so'rash va olish;

➤ terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilayotgan zonada jismoniy shaxslarni shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni, ulardagi ashyolarni, transport vositalarini hamda olib o'tilayotgan yuklarni ko'rikdan o'tkazishni, shu jumladan nazorat qilishning texnik va boshqa vositalarini qo'llagan holda ko'rikdan o'tkazishni amalga oshirish va h.k.

Ichki ishlar organi xodimi o'ziga biriktirilgan o'qotar qurol va maxsus vositalarni xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida olib yurish, saqlash, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llash huquqiga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda ega bo'ladi.

7.3. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatini tashkil etilishi va ular faoliyatining asosiy prinsiplari

Davlat xavfsizlik xizmati faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Davlat xavfsizlik xizmati tshg'risida"gi O'RQ-471-son 05.04.2018-yildagi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat.

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'z faoliyatini maxsus vositalar, shakllar va uslublar bilan amalga oshiradigan maxsus vakolatli davlat organi bo'lib, faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

➤ O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini va davlat manfaatlari tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

➤ O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga bo'lgan tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;

➤ O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish;

➤ O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga bo'ladigan xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;

➤ terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog', giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;

➤ davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, etnik va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;

➤ davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlariga hamda xavfsizligiga tahdid soluvchi korruptsiya holatlariga qarshi kurashish;

➤ tergovni Davlat xavfsizlik xizmati vakolatiga kiritilgan jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni o'tkazish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

➤ axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish ustidan nazorat qilish.

Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining **asosiy prinsiplari** qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, fuqarolarning yordamiga tayanish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi

ustuvorligi, yagonalik, mustaqillik, konspiratsiyadan (o'z faoliyatining, tezkor-xizmat axborotini olish, rasmiylashtirish, saqlash va undan foydalanishning alohida tartibini, shuningdek tezkor-xizmat hujjatlari bilan ishlash qoidalarini belgilagan holda amalga oshiradi) iboratdir.

7.4. Davlat xavfsizlik organlarining vazifalari va huquqlari

Davlat xavfsizlik xizmati tizimi Davlat xavfsizlik xizmatining markaziy devonxonasi, Davlat xavfsizlik xizmatining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, ularning tumanlar (shaharlar) bo'yicha bo'limlari (bo'linmalari), Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo'shinlari va Davlat xavfsizlik xizmatining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa organlardan iborat bo'ladi.

Davlat xavfsizlik xizmatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan rais boshchilik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat xavfsizlik xizmatida Davlat xavfsizlik xizmati raisi, uning o'rinbosarlari, markaziy devoni bo'linmalarining va Davlat xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Davlat xavfsizlik xizmati bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va unga hisobdordir. Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasini o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlari yuzasidan muntazam ravishda xabardor qiladi.

Davlat xavfsizlik xizmatining huquqlari:

➤ mansabdor shaxslar va fuqarolarning hujjatlarini, shu jumladan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish, ularni shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ashyolarni, transport vositalarini hamda tashilayotgan yuklarni ko'zdan kechirish, bunda nazoratning texnik va boshqa vositalari qo'llanilishi mumkin;

➤ mansabdor shaxslar va fuqarolardan tezkor-qidiruv, qidiruv hamda boshqa tadbirlar, tergovga qadar tekshirishlar va tergov harakatlari o'tkaziladigan joylarni tark etishni talab qilish;

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga va boshqa ob'ektlariga to'sqinliksiz kirish, zarurat bo'lganda qulflash moslamalari

va boshqa ashyolarni buzgan holda kirish, bu joylarni jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslar ta'qib qilinayotganda yoxud u yerda jinoyat sodir etilayapti yoki sodir etilgan yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlardan yashiringan shaxs bor deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lganda yoxud kechiktirish fuqarolar hayoti va sog'lig'ini xavf ostida qoldiradigan bo'lsa, yigirma to'rt soat ichida prokurorga bu haqda xabar bergan holda, shuningdek yetkazilgan zararining o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplagan holda ko'zdan kechirish;

➤ jinoyatlarning oldini olish, ularni sodir etgan yoki qidiruvda bo'lgan shaxslarni topish va ushlash maqsadida jismoniy hamda yuridik shaxslarning turar joylarida va boshqa ob'ektlarida ularning roziligi bilan vaqtincha bo'lish;

➤ davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga kirish, zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, fuqarolardan ma'lumotlarni hamda boshqa zarur hujjatlar va materiallarni so'rash va olish;

➤ Davlat xavfsizlik xizmatining ish yurituvida bo'lgan ishlar va materiallar yuzasidan fuqarolarni, mansabdor shaxslarni chaqirish, zarur hujjatlarni, ma'lumotlarni va ularning ko'chirma nusxalarini bepul olish;

➤ fuqarolarni ularning roziligi bilan ko'maklashishga jalb etish, Davlat xavfsizlik xizmatiga ko'maklashgan fuqarolarni taqdirlash;

➤ davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

➤ jinoyatlarning holatlarini aniqlash hamda surishtiruv, dastlabki tergov organlaridan, suddan yashirib yurgan va jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni qidirish, shuningdek jinoyatlarning oldini olish uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ta'sis etilgan ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan bepul foydalanish va h.k.

7.5. O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi faoliyatining huquqiy asoslari

Ushbu atama quyidagi tuzilmalarni ifodalaydi: militsiya (ko'ngillilar, 1789–1827-yy.; 1830–1872-yy.dagi Frantsiya Milliy gvardiyasi yoki AQSh Milliy gvardiyasi), jandarmeriya – harbiylashgan

politsiya (Rossiya milliy gvardiyasi qo'shinlari yoki Portugaliya Respublika Milliy gvardiyasi), hududiy mudofaa (1940-yildan boshlab Shvetsiya Milliy gvardiyasi), Qurolli kuchlar zaxirasi (AQSh Milliy gvardiyasi va MGning boshqa ko'plab turlari), Qurolli kuchlarning ilg'or (elitar) va imtiyozli qismi (Shri-Lanka Milliy gvardiyasi), umuman Qurolli kuchlar (1925–1979-yy. dagi Nikaragua Milliy gvardiyasi yoki Kipr Milliy gvardiyasi).

Milliy gvardiya (fr. Garde Nationale, ingl. National Guard), milliy posbonlar (ital. guardia – posbon)—turli mamlakatlarda va tarixiy davrlarda har xil qurolli tashkilotlarning nomi.

Gvardiya tuzilmalari ichki ishlar vazirligi yoki mudofaa vazirligiga yoxud birdaniga ikkalasiga, shuningdek maxsus idoraga bo'ysunishi mumkin. Turli mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq Milliy gvardiya kuchlari mudofaa idoralari tasarrufiga o'tkazilishi ham nazarda tutilgan.

Ayrim mamlakatlarda Milliy gvardiya shaxsiy tarkibi ko'ngillilardan (ular maosh olmaydilar, ammo ofitserlari Qurolli kuchlar yoki politsiya kadrlar tarkibidan berilishi mumkin) ham, ozgina maoshga ishlaydigan (avvalgi faoliyatini tashlamagan va/yoki boshqa asosiy daromadi bo'lgan) yoki to'liq bandlik uchun shartnoma imzolagan shaxslardan, shuningdek harbiy majburiyat asosida shakllantirilishi mumkin. Milliy gvardiya maqomi muntazam, nomuntazam yoki paramilitar (yarim harbiy) bo'lishi mumkin.

Gvardiya qo'shilmalari dunyoning 40 dan ziyod mamlakatlarida turli davrlarda mavjud bo'lgan yoki hamon faoliyat ko'rsatadi. Odatda, ular ichki ishlar yoki mudofaa vazirligiga bo'ysunuvchi ko'ngillilar yoki maxsus qo'shilmalar bo'lib, mustaqil qo'shin turi sifatida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin.

1992-yil 23-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29-son qarori bilan, “O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida”gi (1991-yil 31-avgust) qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi IIVning 3408-son harbiy qismi negizida Milliy gvardiya brigadasi tashkil etilib, mamlakat Mudofaa ishlari vazirligi tasarrufiga berilgan edi. Milliy gvardiya tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad davlat suverenitetini, fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini hamda O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'lgan.

2017-yil avgust oyidan e'tiboran Milliy gvardiya mamlakat Qurolli kuchlari tarkibidagi mustaqil qo'shin turi sifatida faoliyat yuritmoqda. 2019 yil yanvar oyida Ichki ishlar vazirligi Qo'riqlash bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufidan chiqarilib, mamlakat Milliy gvardiyasi tarkibiga o'tkazildi.

Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasida mustaqil qo'shin turi sifatida qisqa vaqt mobaynida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa-da, yuqori darajada samarali ekanligini, tarkibiy tuzilishi va tayyorgarligi O'zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan mavjud va imkoniyatdagi jamoat va davlat xavfsizligi darajasiga muvofiqligini ko'rsatdi.

Hozirgi kunda Milliy gvardiya bo'linmalarini zamonaviy qurol-yarog' turlari va bronetexnika bilan jihozlash jarayoni jadal davom etmoqda, shaxsiy tarkibni maxsus harbiy tayyorlash jarayoni takomillashmoqda. Shu bilan birga, kompetentsiya borasida, mamlakatning milliy manfaatlariga qarshi harakatlar va tahdidlarga qarshi kurashishning barvaqt oldini oluvchi tizimni shakllantirish uchun mamlakat xavfsizligiga tahdidlarni tahlil qilish va prognozlash borasidagi ishlar yo'lga qo'yilgan.

Milliy gvardiya jamoat va davlat xavfsizligini ta'minlashga, aholini turli xil terrorchilik tahdidlaridan, jinoiy va boshqa g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qilishga, o'ta muhim toifalangan davlat va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlashga xizmat qiladi.

7.6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi vakolatlari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

➤ shaharlar va aholi punktlarida jamoat tartibi va xavfsizlikning saqlanishini ta'minlashda ko'maklashish;

➤ davlat ahamiyatiga ega ob'ektlar, hayotiy muhim ob'ektlar, xorijiy davlatlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash va himoya qilish;

➤ terrorizm va ekstremizm harakatlarining oldini olishda ishtirok etish;

➤ mamlakatning hududiy yaxlitligi va mudofaasini ta'minlashda ishtirok etish;

➤ tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda ko'maklashish;

➤ xorijiy davlatlarning rasmiy vakillarini kutib olish va kuzatishda yuksak darajadagi marosim tadbirlarini ta'minlash.

Milliy gvardiya o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib boradi:

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

➤ davlat ahamiyatiga ega maxsus vazifalarni bajarish, shu jumladan jamoat tartibini, jismoniy va yuridik shaxslarning xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, qurollangan jinoyatchilar hamda terrorchilik guruhlarini qo'lga olish va yo'q qilish, tezkor-qidiruv va boshqa maxsus tadbirlarni jangovar ta'minlash;

➤ qo'riqlash faoliyati sohasida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, davlat, o'ta muhim, toifalangan va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlashni tashkillashtirish va ta'minlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek davlat qo'riqlash organlari faoliyatini nazorat qilish;

➤ fuqaroviy va xizmat qurollari hamda ular o'q-dorilarining muomalada bo'lishi sohasini nazorat qilish;

➤ fuqaroviy va xizmat qurollari muomalasi sohasida litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish;

➤ qonunchilikka muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni o'tkazish, ma'muriy huquqbuzarliklarga doir ishlarni yuritish, tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish;

➤ Milliy gvardiya kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish, tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimini, shuningdek harbiy xizmatchilari va xodimlarini huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilishni tashkil qilish;

➤ rasmiy uchrashuvlarda va chet davlatlar rasmiy vakillari, xorijiy delegatsiyalarni kuzatishda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida o'tkaziladigan yuqori darajadagi bayram va tantanali marosimlarda rasmiy tantanali tadbirlarni o'tkazish;

➤ jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o'tkazishda va aholi gavjum bo'ladigan joylarda davlat organlariga bevosita ko'maklashish;

➤ qo'riqlanadigan shaxslar xavfsizligini ta'minlashda, shu jumladan favqulodda vaziyatlar sharoitida, alohida davrlarda huquqiy rejimni ta'minlash va terrorchilikka qarshi operatsiyalar o'tkazishda ishtirok etish;

➤ Qurolli Kuchlarning jangovar qo'llash rejalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasida, shuningdek, terrorchilik harakatlari va tabiiy hamda texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

➤ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan yuklatilishi mumkin bo'lgan boshqa vazifalarni bajarish.

Milliy gvardiya faoliyatining **asosiy prinsiplari** qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish, yagonalik, mustaqillik, konspiratsiya, faoliyatning mobilligi va tezkorligi, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishda boshqaruv organlari va bo'linmalarning doimiy jangovar shayligidan iboratdir.

Milliy gvardiya tarkibiga Milliy gvardiya markaziy devoni, maxsus bo'linmalar, mintaqaviy boshqaruv organlari va harbiy qismlar, qo'riqlash, fuqaroviy va xizmat qurollari hamda ular o'q-dorilarining muomalada bo'lishi sohasini nazorat qilish bo'yicha bo'linmalari va surishtiruv organlari, shuningdek ta'lim, tibbiy, sport muassasalari va Milliy gvardiyaga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa tashkilotlar.

Milliy gvardiya bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi. Milliy gvardiya faoliyatiga rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va ozod etiladigan Milliy gvardiya qo'mondoni tomonidan amalga oshiriladi. Milliy gvardiya qo'mondoni lavozimi maqomi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi vaziri lavozimiga tenglashtiriladi.

7.7. Milliy gvardiyada harbiy xizmatni o'tash tartibi va shartlari

Milliy gvardiyaning shaxsiy tarkibi shartnoma asosidagi, muddatli harbiy xizmatchilarni xodimlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Xodimlar harbiy lavozimlarga harbiy unvon berilib va harbiy xizmatni o'tash to'g'risida kontrakt tuzilgan holda qonunchilikda belgilangan tartibda tayinlanishi mumkin. Harbiy xizmatchilar xodimlar lavozimiga maxsus unvon berilib va harbiy xizmatni o'tash to'g'risidagi kontraktni tugatgan holda tayinlanishi mumkin.

Milliy gvardiya oliy harbiy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari xodimlar lavozimiga maxsus unvon berilgan holda tayinlanishi mumkin.

Milliy gvardiyada harbiy xizmatni o'tash tartibi umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi, Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari bajarayotgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda ushbu Qonun va qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Milliy gvardiya xodimlari davlat xizmatida bo'ladi.

Milliy gvardiyada xizmatni o'tashning ushbu Qonunda belgilangan hollardan tashqari tartibi Milliy gvardiyada xizmat o'tash to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar (xodimlar) haftalik xizmat vaqtining umumiy davomiyligi, qonun hujjatlarida belgilangan normal haftalik ish vaqti davomiyligidan oshishi mumkin emas, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Zarur bo'lgan hollarda, Milliy gvardiya xodimlari xizmatni o'tashga kuchaytirilgan yoki sutkalik rejimda jalb qilinishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat xavfsizlik organlarining vazifalari va huquqlarini aytib bering?
2. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan fuqarolarning yordamiga tayanish prinsipini izohlab bering?
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini tashkil etilishi va uning faoliyatining asosiy prinsiplari haqida gapirib bering?
4. Ichki ishlar organlarining vazifalari va huquqlari nimalardan iborat?
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi vakolatlari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida so'zlab bering?

8-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI

Reja:

8.1. Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari.

8.2. Adliya organlari va muassasalari tizimi. Davlat xizmatlari agentligi va Intellektual mulk huquqi agentligi.

8.3. Respublika sud ekspertiza markazining asosiy vazifalari va huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi o‘rni.

8.4. Adliya vazirligi tizimidagi ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari.

8.1. Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi adliya organlari va muassasalari faoliyatiga umumiy rahbarlik qiluvchi va uni muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Vazirlik Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo‘yicha esa bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi.

Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, hududiy adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5415-son Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, adliya organlari va muassasalari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari deb quyidagilar belgilab olindi:

birinchidan, adliya organlarini “Odilona qonunlarni qabul qilish, jamiyatda qonunga hurmat ruxini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir” degan kontseptual g‘oyani hayotga tatbiq etishga qaratilgan yagona davlat huquqiy siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydigan professional xizmatga aylantirish;

ikkinchidan, adliya organlari faoliyatiga, ustuvor ravishda, tanqidiy tahlil va huquqiy muammolarni, avvalo, bevosita joylarda ishlarni samarali tashkil etish yo‘li bilan hal etishga asoslangan, sifat jihatidan yangi mexanizmlarni joriy etish;

uchinchidan, davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) tuzilmalarining qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini

tashkil etish sohasidagi faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish, tanqidiy tahlil asosida izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

to'rtinchidan, huquqiy targ'ibot va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishning zamonaviy va ta'sirchan uslublarini joriy qilish, ularga qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodsizligiga barham berish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini, ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlarining sifatini kompleks va tanqidiy tahlil qilishda adliya organlarining rolini oshirish, bu sohalarda qonunchilikni yanada takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

oltinchidan, o'z faoliyatlari yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma'lumotlar taqdim etish yo'li bilan adliya organlari mansabdor shaxslarining hisobot berish tartibini joriy etish, ularning aholini tashvishga soluvchi muammolarga yuzaki munosabatda bo'lishi holatlariga chek qo'yish, shuningdek, ularning faoliyatini baholashning aniq mezonlarini belgilash;

yettinchidan, yuridik kadrlarni, ayniqsa, talab qilinayotgan tor doiradagi va sohaviy mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning sifat jihatidan yangi tizimini tashkil etish, yurisprudentsiya sohasidagi mutaxassislarni o'qitishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, yuridik kadrlarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalariga tizimli ravishda yuborish;

sakkizinchidan, xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini huquqiy himoya qilishning samarali tizimini, xalqaro jamoatchilik va xorijiy investorlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar haqida xabardor qilish mexanizmlarini tashkil etish;

to'qqizinchidan, adliya organlari va muassasalari faoliyatining moddiy-texnika ta'minotini yanada yaxshilash, xodimlarni ijtimoiy va moddiy rag'batlantirishning yangi mexanizmlarini, shu jumladan ularni xizmat uylari bilan ta'minlashni joriy etish;

o'ninchidan, adliya organlari va muassasalarining barcha tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yil 13 aprelda adliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarori ham qabul qilindi. Mazkur qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomga muvofiq vazirlikning boshqa vazifalari bilan bir qatorda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo‘yicha choralarni amalga oshirish vazirlikning asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi:

Vazirlik markaziy apparati;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari;

tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlari;

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi;

«Adolat» milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi;

«Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi» davlat muassasasi;

davlat notarial idoralari va arxivlari;

Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari;

Yuristlar malakasini oshirish markazi;

Toshkent davlat yuridik universiteti;

yuridik texnikumlar; Akademik litsey

Vazirlikning asosiy vazifalari:

➤ yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish;

➤ davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari asosida tahlil va monitoring qilish;

➤ qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlikni amalga oshirish;

➤ davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta‘minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish;

➤ nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat va xo‘jalik

boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat tashkilotlari bilan hamkorligini samarali tashkil etish;

➤ ma'muriy tartib-taomillar sohasini ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari asosida muntazam ravishda takomillashtirib borish;

➤ davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta'minlash;

➤ huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodsizligini yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;

➤ huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;

➤ notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

➤ fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarni amalga oshirish;

➤ xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

➤ xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash, xalqaro hamjamiyat, xorijiy investorlarni milliy huquq tizimi va o'tkazilayotgan huquqiy islohotlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;

➤ yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudentsiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash;

➤ sud ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

➤ adliya organlari va muassasalari faoliyatida, birinchi navbatda aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ishlashning innovatsion uslublarini joriy qilish;

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni joriy qilish va rivojlantirish;

➤ siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini oshirish bo‘yicha tizimli va izchil choralar ko‘rish.

Adliya vazirligi funksiyalari:

➤ inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlarini doimiy ravishda tahlil qiladi va uni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

➤ davlat organlari va tashkilotlari tomonidan inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

➤ davlat organlari va tashkilotlarida inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi holati to‘g‘risidagi axborot va materiallarni tahlil qiladi va umumlashtiradi, ularni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

➤ fuqarolarning o‘z huquqlari va erkinliklari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarini xolisona va har tomonlama ko‘rib chiqilishini ta‘minlaydi, ularga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq choralar ko‘radi;

➤ inson huquqlari va erkinliklari buzilishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g‘risida axborot yig‘ish va xalqaro shartnomalarda aks ettirilgan inson huquqlari va erkinliklari universal standart printsiplarini hisobga olgan holda uni baholashni amalga oshiradi;

➤ inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan o‘tkazilayotgan monitoring natijalarini o‘rganadi;

➤ fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash bo‘yicha choralar ko‘radi.

1997-yil 10-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida fuqarolarning qonunchilikning buzilishi yuzasidan shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqish boshqarmasini tuzish to‘g‘risida”**gi, 1997-yil 21-iyulda **“O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi qoshida yuristlar malakasini oshirish markazini tashkil etish to‘g‘risida”**, 1997-yil 22-iyulda **“Huquqiy ma‘rifat targ‘iboti markazini tashkil qilish va huquqiy adabiyotlarni aholiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida”** qarorlar qabul qilindi.

Huquqiy targ‘ibotda yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog‘ida aholining huquqiy savodxonligi va madaniyatini oshirishga xizmat qiluvchi 5 ta huquqiy portal ishlab chiqilgan bo‘lib, bugungi kunda ushbu portallar aholiga bepul huquqiy maslahat berish bo‘yicha salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda.

Xususan:

- Buyuk Britaniyaning tajribasi asosida yaratilgan, turli hayotiy holatlar bo‘yicha Advice.uz (e-maslahat.uz) huquqiy portali;
- barcha huquqiy sayt va nashrlarni yagona portalga birlashtirgan Milliy huquqiy internet portali;
- yosh bolalar uchun yaratilgan “Bolahuquqlari.uz” elektron;
- aholiga huquqiy axborotlarni tahliliy tarzda yetkazishga qaratilgan hudud24.uz yangiliklar veb-saytidir.

Adliya vazirligi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda targ‘ibotni amalga oshirishda muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.

8.2. Adliya organlari va muassasalari tizimi. Davlat xizmatlari agentligi va Intellektual mulk huquqi agentligi

Aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish maqsadida “Madad” nodavlat tashkiloti va uning hududiy byurolari tashkil qilingan. Vazirlik va uning hududiy boshqarmalarida fuqarolarga sayyor huquqiy maslahat berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi **“Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF–5997-son Farmoni bilan Vazirlik huzuridagi «Adolat» huquqiy axborot markazi davlat muassasasi, «Inson va qonun» gazetasi tahririyati davlat unitar korxonasi hamda «Huquq va burch» ijtimoiy-huquqiy jurnali tahririyatini birlashtirish yo‘li bilan ularning negizida Vazirlik qoshida davlat muassasasi shaklidagi «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi tashkil etilgan.

“Adolat” milliy huquqiy markazining asosiy vazifalari:

- O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasini shakllantirish va yuritish, undan jismoniy va yuridik shaxslarning belgilangan tartibda foydalanishini ta’minlash, shuningdek, qonun hujjatlarining Milliy bazada rasmiy nashr etilishini ta’minlash;

➤ normativ-huquqiy hujjatlar matnlarining hamda zarur bo'lgan taqdirda, tegishli axborot-tahliliy materiallarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha barcha davlat organlariga va tashkilotlarga elektron shaklda yuborilishini ta'minlash;

➤ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

➤ huquqiy axborotni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning dasturiy-texnik vositalari va texnologiyalari joriy etilishini tashkil qilish;

➤ aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha tizimli amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ davlat organlari va tashkilotlar bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarning norma va qoidalarini aholiga tushuntirish bo'yicha namunaviy hujjatlar to'plamini tayyorlash va tarqatish;

➤ qonun hujjatlari normalarini tushuntirish bo'yicha norasmiy sharhlar va tushuntirish materiallarini tayyorlash;

➤ aholining huquq va majburiyatlarini tushuntirishga qaratilgan, shuningdek dolzarb va aholini qiziqtiradigan aktual masalalar yuzasidan zarur targ'ibot materiallarni tayyorlash va tarqatish;

➤ qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini, shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatini keng yoritish bo'yicha tezkor axborot-tahliliy media materiallarni, shu jumladan, audio va videoroliklar, ijtimoiy reklamalar, voqea joyidan reportajlarni tayyorlash;

➤ outsorsing shartlarida yuridik adabiyotlar va rasmiy nashrlarning rasman chop etilishini ta'minlash;

➤ normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini yetkazish, shuningdek ijtimoiy-huquqiy sohada qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini yoritishga qaratilgan davriy huquqiy nashrlarni tayyorlash va chop etish;

➤ yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlarning tashkilotlari buyurtmasiga asosan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xorijiy davlatlar qonunchiligi bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish;

➤ normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilishi, shuningdek, turli huquqiy hujjatlarning loyihalari va namunalarini tayyorlash bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish, shu jumladan shartnoma asosida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish yoki ishlab chiqishda ishtirok etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi **“Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-5278-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”**gi 2017-yil 12-dekabrdagi PQ-3430-son qarori bilan Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi.

Agentlikning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-yanvardagi 70-son qarori bilan tasdiklangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi to‘g‘risidagi Nizom bilan tartibga solinadi. Agentlik jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi va uning tizimiga kiradi.

Agentlik faoliyatiga umumiy rahbarlik va nazorat qilish, Agentlik xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

Agentlik faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolar huquqlarini himoya qilish va murojaatlar bilan ishlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalari tomonidan amalga oshiradi.

Agentlik o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»** 2017-yil 12-dekabrdagi PF-5278-son Farmoni va **«O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»** 2017-yil 12-dekabrdagi PQ-3430-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

Agentlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Agentlik tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Agentlikning markaziy apparati;
2. hududiy boshqarmalar;
3. Davlat xizmatlari markazlari.

Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf etish hisobiga davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish, shuningdek idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish;
- Davlat xizmatlari yagona reestrini shakllantirish, ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat xizmatlari ko'rsatishda foydalaniladigan axborot tizimlari, resurslar va ma'lumotlar bazalarini loyihalashtirish, ishlab chiqish, joriy etish va integratsiya qilishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan tegishli axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash;
- davlat xizmatlari ko'rsatishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishni tashkil qilish, ushbu sohada qonunchilik va huquqni ko'llash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish.

Agentlik markaziy apparatining asosiy vazifalari:

- hududiy boshqarmalar hamda davlat xizmatlari markazlari bilan birgalikda Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta'minlash;
- rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirishni tashkil etish va ularni ko'rsatish sifati monitoringini olib borish;
- Agentlik, shu jumladan, boshqarmalar, davlat xizmatlari markazlari va FHDYoning hududiy arxivlarifaoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; «FHDYoning yagona elektron arxivi» axborot tizimini texnik ta'minlash va yuritish;
- hududiy boshqarmalar, davlat xizmatlari markazlari va FHDYo arxivlari kadrlar bilan ta'minlanishini muvofiqlashtirish;
- davlat xizmatlari markazlarini rivojlantirishga ko'maklashish, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi va istiqbollari aniqlash;
- davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantiradi;

➤ davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritadi.

Agentlik huquqlari:

➤ davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini qonun hujjatlari va ma'muriy reglamentlar talablariga rioya etilishi nuqtai nazaridan tekshirish;

➤ davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

➤ davlat xizmatlari markazlari orqali ularning binolari va tutash hududlarida reklama faoliyatini, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda tadbirkorlik sub'ektlarining muhr va shtamplarini tayyorlash faoliyatini amalga oshirish;

➤ davlat organlari va mansabdor shaxslardan Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va axborotlarni, shu jumladan, statistik ma'lumotlarni so'rash va tekin olish;

➤ Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda Vazirlikka kiritish;

➤ talab etilishi va davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish zarurligi asosida Vazirlik hamda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga «yagona darcha» tamoyili asosida faqatgina davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ro'yxatiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish va h.k.

Agentlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Direktor boshchilik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o'rinbosariga ega bo'ladi.

Intellectual mulk agentligi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-iyuldagi 609-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan.

Agentlik intellectual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga bo'ysunadi. Uning tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi va uning tizimiga kiradi.

Agentlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Agentlik Butunjahon intellectual mulk tashkilotida va intellectual mulk sohasidagi boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan vakillik qiladi.

Agentlikning asosiy vazifalari:

➤ intellectual mulk sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlash, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellectual mulk ob'ektlarini huquqiy himoya qilish;

➤ intellectual mulk ob'ektlarining huquqiy himoyasi holatini kompleks tahlil qilish, mazkur sohasini rivojlantirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish;

➤ intellectual mulk sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ intellectual mulk masalalari bo'yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikni, shu jumladan intellectual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni o'zaro muhofaza qilish haqida xalqaro shartnomalarni tuzish orqali o'rnatish va mustahkamlash;

➤ intellectual mulk sohasidagi ilmiy-tadqiqotlar va boshqa ishlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

➤ jamiyatda intellectual mulkka nisbatan huquqiy madaniyatni oshirish va hurmat hissini shakllantirish.

Agentlik huquqlari:

➤ davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

➤ davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini o‘rganish;

➤ davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga intellektual mulk sohasida aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

➤ intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantirish;

➤ intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga nisbatan ma‘muriy jazo qo‘llash;

➤ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda, malakali xorijiy mutaxassislarni ularga istisno tariqasida Agentlikning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan xorijiy valyutada ish haqi va boshqa to‘lovlarni belgilagan holda xodimlar va maslahatchilar sifatida jalb qilish;

➤ davlat organlari va mansabdor shaxslardan Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va axborotlarni, shu jumladan statistik ma‘lumotlarni so‘rash va tekin olish;

➤ Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tekshirishlar o‘tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganish, shuningdek, axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash uchun vazirliklar va idoralar, shuningdek boshqa tashkilotlar vakillarini chaqirish va jalb etish;

➤ teshkirish va tahlil davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlarini chaqirish, qonun hujjatlarining buzilishi holatlari yuzasidan og‘zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

➤ Adliya vazirligiga belgilangan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Agentlikka yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni kiritish;

➤ Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat va tariflarga muvofiq pullik xizmatlar ko‘rsatish;

➤ O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari loyihalarini belgilangan tartibda ishlab chiqish, Adliya vazirligi bilan kelishilgan

holda Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha idoralararo xarakterdagi xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

➤ Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda, Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan xalqaro darajada O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini belgilangan tartibda ifoda etish;

➤ Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda, o'z vakolati doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish va h.k.

Agentlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi. Direktor adliya vaziri tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan ikki nafar o'rinbosarga ega bo'ladi va o'z faoliyatida adliya vaziriga hisobdordir.

8.3. Respublika sud ekspertiza markazining asosiy vazifalari va huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirish, jamoat tartibini, xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatlar va huquqbuzarlikka qarshi kurashish masalalarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarga maxsus bilimlarni qo'llash yo'li bilan ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan.

Markazning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

➤ Markazni har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, sud ekspertizasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, mamlakatda sud ekspertizasi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish;

➤ fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirish, jamoat tartibini, xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatlar va huquqbuzarlikka qarshi kurashish masalalarida huquqni muhofaza qilish organlari va sudlarga maxsus bilimlarni qo'llash yo'li bilan ko'maklashish;

➤ huquqni muhofaza qilish organlari va sudlarning maxsus bilimlarga bo'lgan ehtiyojlarini tizimli o'rganish, zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlari, ilmiy tavsiyalar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yangi metodikalarni sud-ekspertlik amaliyotiga joriy etish;

➤ fuqarolik, xo'jalik ishlari, ma'muriy va jinoiy ishlar, tergovgacha bo'lgan tekshiruvlar materiallari bo'yicha sud ekspertizalarini,

shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bo'yicha ekspert ixtisosliklariga muvofiq tadqiqotlarni o'tkazish;

➤ maxsus bilimlar va texnika vositalarini qo'llashda huquqni muhofaza qilish va sud organlari xodimlariga metodik yordam ko'rsatish, ularni sud ekspertizasi sohasidagi zamonaviy yutuqlar va imkoniyatlar bilan tanishtirish;

➤ maxsus bilimlar asosida huquqbuzarliklarni sodir etishga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularning oldini olishga doir takliflar ishlab chiqish;

➤ Adliya vazirligi tizimidagi sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini, shuningdek boshqa sud ekspertlarining huquqiy bilimlarini oshirish;

➤ sud ekspertlarining malakasi va huquqiy bilimlarini oshirish bo'yicha o'quv jarayonini ta'limning majburiyligi, uzluksizligi va sifatini monitoring qilish printsiplariga amal qilgan holda hamda yangi texnologiyalarni (ta'lim, sud-ekspertlik, axborot va boshqalar) joriy etish asosida tashkil etish;

➤ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi muammolari bo'yicha kengash faoliyati doirasida davlat organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash.

Respublika sud ekspertizasi markazi huquqlari:

➤ sud ekspertizasini rivojlantirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ sud-ekspertlik amaliyotiga yangi uslublarni joriy etish yuzasidan boshqa sud ekspertizasi muassasalariga tavsiyalar berish;

➤ ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish maqsadida grant mablag'lari olish uchun tanlov va tenderlarda ishtirok etish;

➤ belgilangan tartibda boshqa davlatlar sud ekspertizasi muassasalari bilan tuzilgan shartnomalar (kelishuv) asosida mutaxassislar, ilmiy-texnik hujjatlar, ilmiy-ishlab chiqarish tajribasi va boshqa axborotlar almashinuvini amalga oshirish;

➤ ekspertlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, moddiy va ijtimoiy ta'minlash choralarini ko'rish;

➤ davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tgan xodimlarga belgilangan tartibda guvohnomalar, malaka va huquqiy bilimlarni oshirishdan o'tgan xodimlarga belgilangan tartibda sertifikatlar berish;

➤ o'z faoliyatini rivojlantirish maqsadida Markazni rivojlantirish jamg'armasini tashkil qilish;

➤ xalqaro konferentsiya, seminar va boshqa anjumanlarni tashkil qilish hamda ularda ishtirok etish.

Respublika sud ekspertizasi markazining Ustavi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi **“Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ-4125-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019-yil 29-maydagi 171-um-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil tuzilma.

Respublika sud ekspertizasi markazi bevosita O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga bo‘ysunadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Markaz faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Respublika sud ekspertizasi markazi ixtisoslashgan davlat sud ekspertizasi muassasasi hisoblanadi. Respublika sud ekspertizasi markazi tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan hududiy bo‘limlar kiradi.

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markaziga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i bilan Prezident administratsiyasi bilan kelishilgan holda tayinlanadigan va ozod qilinadigan direktor rahbarlik qiladi.

Respublika sud ekspertizasi markazi tarkibi:

Markaziy apparat:

Direktor;

Ilmiy Kengash;

Direktorning ekspertlik faoliyati va ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari;

Direktorning innovatsiyalar, moliya-xo‘jalik va tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari;

Bevosita sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshiruvchi laboratoriya va bo‘limlar;

Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasi;

Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi;

Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi;

Sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi;

Sud-fonografiya ekspertizasi laboratoriyasi;

Sud-ballistika va izshunoslik ekspertizasi laboratoriyasi;
Sud-tovarshunoslik ekspertizasi laboratoriyasi;
Yong'in-texnik ekspertizasi laboratoriyasi;
Sud-qurilish-texnik ekspertizasi bo'limi;
Sud-iqtisodiy ekspertizasi bo'limi;
Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar bo'limlari;

Boshqa tarkibiy tuzilmalar:

Arxiv;
Axborot-resurs markazi;
Axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni joriy qilish bo'limi;
Bosh yuriskonsult;
Buxgalteriya hisobi va nazorat bo'limi;
Devonxona;
Ishlar boshqarmasi;
Kadrlar bo'limi;
Tashkiliy nazorat va tahlil bo'limi;
Sifat menedjmenti bo'limi;
Sud ekspertlarining malakasini oshirish o'quv markazi;
Xalqaro hamkorlik va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi.

8.4. Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari

Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi Respublikamiz Prezidentining 1997-yil 25-iyundagi "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi PF-1791-sonli Farmoni asosida tashkil topgan. Markaz o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 531-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazining Ustavi asosida olib boradi.

Markaz faoliyatining asosiy maqsadi adliya organlari hamda advokatura xodimlarini, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, boshqa tashkilotlarning yuridik xizmati xodimlarini (yuriskonsul'tlarini) qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Markazning asosiy vazifalari:

➤ tinglovchilarni qabul qilinayotgan yangi qonunlar va amaldagi qonun hujjatlariga kiritilgan oxirgi o'zgartirish va qo'shimchalar mazmun-mohiyati, davlat va jamiyat qurilishi sohasini yanada demokratlashtirish jarayonlari, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi, sud, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida huquqni qo'llashning zamonaviy talablari hamda ushbu sohadagi xorijiy davlatlar tajribasi bilan yaqindan tanishtirish;

➤ o'quv, ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va amalga oshirish uchun respublikaning yetakchi ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari, davlat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalarining tajribali olimlari, boshqa xodimlari va ekspertlarini jalb etish, shu jumladan shartnoma asosida jalb etish.

Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

➤ davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi islohotlarning yo'nalishlari va zamonaviy talablari asosida adliya, yuridik xizmat, advokatura bo'yicha huquqshunos va boshqa kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

➤ boshqa soha mutaxassislarining huquqiy bilimlarini oshirish bo'yicha shartnoma asosida o'qishlar tashkil etish;

➤ huquqshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish;

➤ huquqshunos kadrlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish va taqdim etish;

➤ huquqshunos kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy davlatlar ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qilish.

Markaz rahbariyati direktor va uning ikki o'rinbosaridan iborat bo'lib, uning professor-o'qituvchilari va ilmiy-tadqiqot xodimlariga adliya organlari xodimlari uchun belgilangan unvon darajalari joriy etiladi.

Markaz tuzilmasida Davlat-huquqiy fanlari, Fuqarolik-huquqiy fanlari, Jinoiy-huquqiy fanlari, Xalqaro-huquqiy va inson huquqlari, O'zbekistonda demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedralari, shuningdek, o'quv-uslubiyot, o'quv-axborot kompyuter, xalqaro aloqalar bo'limlari, hamda nashriyot va kutubxona mavjud.

Markazda ilmiy-uslubiy ishlarni muvofiqlashtirib boruvchi Ilmiy kengash faoliyat ko'rsatadi.

Toshkent davlat yuridik universiteti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2013-yil 28-iyunda qabul qilingan **“Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi Qarori, shubhasiz, yuridik ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu qarorga muvofiq Adliya vazirligi huzuridagi Toshkent davlat yuridik instituti universitetga aylantirildi.

Universitet oldiga huquqshunoslik asoslari, yo'nalishlari, ilmiy-tadqiqot tamoyillarini chuqur o'zlashtirgan, davlat va jamoat tashkilotlari oldidagi nazariy hamda amaliy vazifalarni hal etishga qodir, yuksak madaniy saviya, kasbiy bilimdonlik va axloqiy-estetik barkamollikni o'zida aks ettirgan vatanparvar, fidokor, yuqori malakali mutaxassis – bakalavr va magistr kadrlar tayyorlash hamda mavjud kadrlarning malakasini oshirish vazifasi qo'yilgan.

2020-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi farmoni bilan TDYuU «yurisprudentsiya» mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash bo'yicha bazaviy oliy ta'lim va ilmiy-metodik muassasasi etib belgilandi. Samarqand, Namangan va Termiz davlat universitetlarida yuridik fakultetlar tashkil etildi. Shuningdek, davlat, huquq va siyosiy-huquqiy ta'limot sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Davlat va huquq institutini tashkil etish vazifasi belgilandi.

Quyidagilar yuridik ta'lim va fanni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

➤ zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro yuridik tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrleydigan, halol kadrlar tayyorlashni ta'minlash;

➤ o'qitishning kredit-modul tizimini va talabalar bilimini baholash usullarini takomillashtirish, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash hamda o'quv bazasini modernizatsiyalash;

➤ klinik yuridik ta'limni rivojlantirish yo'li bilan o'quv jarayoni va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash;

➤ rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish;

➤ axborot huquqiy texnologiyalar va tizimlarni (Legal Tech) ishlab chiqqan holda davlat va huquq sohasida ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni o'tkazish;

➤ xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yuridik kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) amalga oshirish, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qilish;

➤ «Elektron universitet» (E-University) tizimini joriy etgan holda ochiq, shaffof, sub'ektivlik va suiiste'molchiliklardan xoli bo'lgan ta'lim muhitini yaratish;

➤ TDYuU va yuridik fakul'tetlarni xalqaro tan olingan ta'lim muassasalari reytingiga kiritish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali milliy yuridik ta'lim raqobatbardoshligini oshirish.

Shuningdek, Farmon bilan TDYuUni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

Toshkent Davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litsey
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagi **“Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish to'g'risida”**gi 77-sonli hamda Toshkent shahar hokimining 1998-yil 25-dekabrda 534-sonli qarorlari asosida tashkil etilgan.

Poytaxtimizning Yunusobod tumani Markaz-5, 88-uyda joylashgan mazkur o'quv dargohiga O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazining 2000-yil 10-martdagi 39-sonli buyrug'i bilan akademik litsey maqomi berildi. Ta'lim sohasidagi islohotlarning natijasi o'laroq, 2009-yilda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2009-yil 9-sentyabrdagi 210-sonli buyrug'i bilan akademik litsey Toshkent shahar Sirg'ali tumani 7-mavze 39-A uyda joylashgan zamonaviy talabga to'la javob beradigan yangi binoga ko'chirib o'tildi.

Akademik litsey o'qituvchilari tomonidan Toshkent davlat yuridik universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat pedagogika

universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti kabi bir qator nufuzli oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot institutlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-oktabrdagi **“O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik kollejlarda o'qishni tashkil qilish choralari to'g'risida”**gi qarori bilan o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi, xususan mamlakatimizda yuridik kollejlarda tizimi tubdan takomillashtirildi. Mazkur o'zgarishlar quyidagilarda ko'rinadi.

Birinchidan, qaror bilan Adliya vazirligining yuridik kollejlariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomga ko'ra, yuridik kollejlarda o'qishga qabul qilish vazirlik tomonidan belgilangan qabul kvotalari doirasida to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, kam ta'minlangan oila farzandlari, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, ko'zi ojiz abituriyentlar qabul kvotalaridan tashqari vazirlik tomonidan maxsus ajratilgan o'rinlar asosida qabul qilinadi. Ushbu o'quvchilar qonun hujjatlariga muvofiq davlat granti bo'yicha tahsil oladilar.

Qolaversa, nizomda xorijiy fuqarolarni yuridik kollejlarga o'qishga qabul qilish suhbat asosida amalga oshirilishi belgilandi.

Ikkinchidan, Adliya vazirligi yuridik kollejlarining namunaviy tuzilmasi tasdiqlandi. Unga ko'ra kollej direktorining o'quv ishlari bo'yicha, yoshlar bilan ishlash bo'yicha, moliya-xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosarlari hamda har bir o'rinbosarlarga bo'ysunadigan bo'limlar, shuningdek asosiysi dekanatlar va kafedralar tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

Ilgari kollejlarda namunaviy tuzilma bo'lmagan. Buning o'rniga ular o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlari asosida faoliyat yuritib kelishgan.

Uchinchidan, Adliya vazirligi yuridik kollejlarining o'quv yuklamasi xajmi tasdiqlandi. Bu o'rinda Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik kollejlarda o'quv-metodik jarayonni muvofiqlashtirishi, **“yurisprudensiya”** yo'nalishi bo'yicha zamonaviy standartlarni hisobga olgan holda malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlashi, shuningdek ularga amaliy

va axborot-resurs jihatidan ko‘maklashish bo‘yicha mas’ul ekanligi belgilab o‘tildi.

To‘rtinchidan, yuridik kollejlarni moddiy-texnik ta‘minlash yo‘lida 2 tadan navbatchi yengil avtotransport vositasi ajratildi. Shu bilan birga, adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hamda adliya organlari va muassasalarining byudjetdan tashqari boshqa mablag‘lari hisobidan yuridik kollej xodimlarini 100 foizigacha miqdorda moddiy qo‘llab-quvvatlash tartibi joriy etildi.

Beshinchidan, qaror bilan 2019–2020-o‘quv yilidan boshlab Adliya vazirligi tuzilmasiga kirmagan kollejlarda “Yurisprudensiya”, “Huquqshunoslik”, “Ijtimoiy muhofaza qilish huquqshunosi” yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quvchilarni tayyorlash to‘xtatildi. Mazkur tartib esa 2019-yil 1-apreldan boshlab amalga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»** 2018-yil 13-apreldagi PF-5415-son Farmoni Toshkent davlat yuridik universitetining Huquqiy tadqiqotlar markazi negizida tashkil etildi. Mazkur Farmon ijrosi yuzasidan qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-iyundagi 442-sonli “O‘zbekiston respublikasi adliya vazirligi huzuridagi huquqiy siyosat tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga ko‘ra Tadqiqot instituti yagona davlat huquqiy siyosatini amalga oshirish, qonuniylikni mustahkamlash, adliya organlari faoliyatini takomillashtirish sohasida respublikaning yetakchi davlat ilmiy-tadqiqot ekspert muassasasi etib belgilandi.

Huquqiy siyosat tadqiqot instituti faoliyatining asosiy maqsadi O‘zbekiston huquqiy siyosatining dolzarb masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, norma ijodkorligi faoliyatini ilmiy-uslubiy ta‘minlashning samaradorligini oshirish, huquq ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirish, shuningdek, aholining huquqiy madaniyatini oshirishning yaxlit tizimini joriy etishda ishtirok etishdir.

Tadqiqot institutining asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilangan:

qonunchilikni va uning tarmoqlarini rivojlantirish sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish hamda ilmiy kontseptsiyalar ishlab chiqish; adliya organlari faoliyatini o'rganish va takomillashtirish; sud-huquq sohasidagi qonun hujjatlari qo'llanilish amaliyotini tahlil qilish, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning huquqiy muammolarini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash; yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik olib borish.

Huquqiy siyosat tadqiqot instituti tuzilmasida Sud-huquq sohasidagi qonunchilikni o'rganish bo'limi, Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni o'rganish bo'limi, Davlat boshqaruvi samaradorligini o'rganish bo'limi, adliya organlari faoliyatini o'rganish va takomillashtirish bo'limi, shuningdek, umumiy bo'lim mavjud.

Nazorat uchun savollar

1. "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyilining asosiy mazmuni va ushbu tamoyilni amalga oshirish mexanizmini tushuntirib bering?

2. Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining faoliyatiga izoh bering?

3. Adliya organlari va muassasalari tizimini haqida gapirib bering?

4. Davlat xizmatlari agentligining asosiy vazifalari nimalardan iborat. Ushbu Agentlikning tashkil etilishi fuqarolar uchun yaratgan qulayliklar haqida aytib bering?

5. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda adliya organlarining roliga baho bering?

9-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA VA SOLIQ ORGANLARI

Reja:

9.1. Bojxona organlarning asosiy vazifalari.

9.2. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining tashkil etilishi, uning vazifalari, funksiyalari va huquqlari.

9.3. Soliq organlarning asosiy vazifalari.

9.4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining tashkil etilishi, uning vazifalari, funksiyalari va huquqlari.

9.1. Bojxona organlarning asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida zamonaviy iqtisodiy yuksalish sharoitida tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati ortib borayotganligi ta’kidlab o‘tilgan. Xususan, jahon bozorlarini egallash mahsulot sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish, yangi texnologiyalarni jalb qilish va chuqur bozor islohotlarini o‘tkazishni taqozo etadi. Bundan tashqari, jahon bozorida muvaffaqiyatli raqobat olib borish uchun xalqaro sanoat zanjirlariga qo‘shilish, mehnat bozori talablariga javob berish va iqtisodiy integratsiya jarayoniga o‘tish lozim.

Iqtisodiy integratsiyani kengaytirishning muhimligini e’tirof etgan holda tashqi iqtisodiy faoliyat sub’ektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida mamlakatimiz bojxona organlari oldiga tashqi savdo sohasida nazorat jarayoni va chegara infratuzilmasini takomillashtirish vazifasi qo‘yildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajriba asosida bojxona postlarida nazoratni amalga oshiruvchi bojxona, sanitariya, karantin, veterinariya va boshqa davlat organlari faoliyatini isloh etishga ko‘maklashish topshirildi.

Bojxona organlari ekspertlari tomonidan rivojlangan davlatlarning tashqi savdo operatsiyalari monitoringini amalga oshirish, eksport-import kontraktlarining bajarilishini tahlil qilish, tashqi savdo operatsiyalari va chegarada nazoratni amalga oshirishda qonunchilikka rioya etish tajribalari o‘rganib chiqildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning (Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti va b.) bojxona ma’muriyatchiligi usullari va shakllarini takomillashtirish bo‘yicha bergan tavsiyalari o‘rganildi.

Natijada, 2020–2023-yillarda bojxona ma'muriyatchiligini isloh qilish va O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish Kontsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi **“Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”**gi PF-6005-son Farmoni bilan tasdiqlangan mazkur **Konsepsiya**, bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish, bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish, **«qog'ozsiz va elektron bojxona»**ning mantiqiy davomi va rivojlanishi bo'lgan **«raqamli bojxonani»** shakllantirish, bojxona ishi sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish maqsadida ishlab chiqildi. Yuqoridagi Kontsepsiya bilan 2020–2023-yillarda bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan:

- mavjud kuch va vositalarni optimal qo'llagan holda bojxona organlari faoliyati va infratuzilma obyektlarining institutsional asoslarini rivojlantirish;

- raqamli iqtisodiyot doirasida zamonaviy va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bojxona sohasiga joriy etish orqali bojxona organlari faoliyati shaffofligi hamda samaradorligini ta'minlash;

- bojxona organlarining fiskal funksiyalarini amalga oshirishni takomillashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni (keyingi o'rinlarda – TIF) tarif va notarif jihatdan tartibga solishni soddalashtirish;

- xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bojxona xizmatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish;

- kontrabanda va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga qarshi kurashish;

- bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasi va mahoratini yanada oshirish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

- bojxona sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yuqoridagi farmonda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutilmoqda:

➤ bojxona organlaridagi mavjud axborot tizimlarining mantiqiy nazorat funktsiya-larini yanada takomillashtirish orqali davlat byudjetiga bojxona to‘lovlari tushumini har yili 25 %ga oshirish;

➤ asosiy chegara o‘tkazish punktlari, ularga tutash bo‘lgan hududlarni kengaytirish va modernizatsiyalash hisobiga bojxona postlarining o‘tkazuvchanlik imkoniyatini 3 barobarga oshirish;

➤ «Yagona darcha» bojxona axborot tizimini takomillashtirish orqali bojxona rasmiylashtiruvi uchun sarflanadigan vaqtni eksportda 5 barobarga va importda 2 barobarga qisqartirish;

➤ bojxona ma‘muriyatchiligining zamonaviy usullarini qo‘llash orqali TIF ishtirokchilarining xarajatlarini qisqartirish evaziga O‘zbekiston Respublikasini xalqaro reytinglarda yuqori pog‘onaga ko‘tarilishiga munosib hissa qo‘shish;

➤ bojxona organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarini keng joriy etish asosida xalqaro norma va standartlarga muvofiq ma‘lumotlarni inson omilisiz to‘siqsiz olish imkoniyatini ta‘minlash hamda bojxona rasmiylashtiruvi va nazorati jarayonlarini soddalashtirish;

➤ bojxona organlari xodimlari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar sonini kamaytirish;

➤ mamlakatning turizm va investitsion jozibadorligini oshirish;

➤ eksport salohiyatini oshirish va importni optimallashtirish;

➤ bojxona organlari infratuzilmasini rivojlantirish va xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

Ta’kidlash joizki, bojxona organlarida Xavflarni boshqarish tizimi joriy qilinganidan buyon bojxona yuk deklaratsiyalarining 61,3% “import” va 83,5% “eksport” bojxona rejimiga soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilgan. Kelgusida “Ko‘k yo‘lak” soddalashtirilgan bojxona rasmiylashtiruvi tizimini (xavf darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichli tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi) joriy etish orqali ushbu ko‘rsatkichlarni oshirish rejalashtirilmoqda. Bu esa tovarlar muomalaga chiqarilganidan keyin bojxona nazoratini qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Yuqoridagi farmon bilan bilan bojxona qo‘mitasiga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatilgan:

➤ bojxona nazorati shakli sifatida tovarlar chiqarib yuborilgandan ke yin TIF ishtirokchisi faoliyatini baholash hamda ularning tovarlar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan keyingi hisobini tekshirishni nazarda tutuvchi bojxona auditini amalga oshirish;

➤ O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazorati organlarining TIFni notarif tartibga solish choralari qo'llash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

➤ tovarlar importi va eksporti tuzilmasi hamda dinamikasining chuqur holatliy tahlilini, shuningdek, import hajmi ham jismoniy, ham qiymatliy o'sishining sabablari tahlilini amalga oshirish;

➤ ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish masalalari bo'yicha manfaatdor idoralar bilan hamkorlik o'rnatish.

Bojxona organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida quyidagi huquqlar berildi:

➤ tovar va transport vositalari ustidan ular saqlanadigan va sotiladigan joylarga chiqqan holda, bojxona auditini amalga oshirish;

➤ olib kiriladigan va (yoki) olib chiqiladigan tovarlar va transport vositalari hisobi, jumladan buxgalterlik hisobi va hisoboti hujjatlari, dastlabki hujjatlar yuritilishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish.

Shu bilan birga, bojxona qo'mitasi markaziy apparati va hududiy boshqarmalari tarkibida yangi tuzilmalar tashkil etilib, ular quyidagi vazifalarni bajarishi ko'zda tutilgan:

➤ bojxona audit;

➤ tashqi iqtisodiy faoliyatda notarif tartibga solishni nazorat qilish va bojxona ekspertizasini o'tkazish;

➤ tovar va transport vositalarining harakatlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish va tahlil qilish.

Bojxona organlari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va fiskal funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, eksport-import operatsiyalarining strukturasini optimallashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha tizimli sa'yi-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Ishbilarmon doiralarning manfaatlarini inobatga olgan holda, bojxona protseduralarini soddalashtirish va tezlashtirish, bojxona nazorati shakllari va usullarini takomillashtirish va optimallashtirish, tovar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali

harakatlanayotganda bojxona qoidabuzarliklariga yo'l qo'ymaslik hamda tashqi savdo aylanmasini tezlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar ko'rib chiqilmoqda. Bunda tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan. Buning uchun bojxona organlari o'z vakolati doirasida chegara oldi infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona postlarining texnik jihozlanishini yaxshilash, kadrlar malakasi va salohiyatini oshirib, mavjud bojxona protseduralarini avtomatlashtirishmoqda.

Bojxona xizmati sifatini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari va davlat idoralarining bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan xarajatlarini kamaytirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bojxona rasmiylashtiruvi va nazorati mexanizmlarini takomillashtirish, bojxona protseduralari shaffofligini oshirishda bojxona rasmiylashtiruvini va bojxona organlarini operativ boshqarishni avtomatlashtirish bojxona ma'muriyatchiligi tizimini yanada rivojlantirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Bojxona texnologiyalarini avtomatlashtirish har qanday aniq qarorni qabul qilishda "inson omili"ning salbiy ta'sirini kamaytirishi kerak. Bunda bojxona faoliyatini yagona operativ bosh qaruv tizimiga integratsiyalashgan "sun'iy intellekt" elementlari bo'lgan axborot texnologiyalari vositalarini qo'llaniladi.

Bojxonani kompleks avtomatlashtirish bo'yicha vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmonida belgilangan bo'lib, bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati jarayoniga axborot texnologiyalarini kompleks joriy etishni nazarda tutadi. Shu jumladan:

- xavflarni boshqarish tizimidan foydalangan holda bojxona nazorati shakllarini tanlash va tahlil natijalarini avtomatlashtirish;
- bojxona hududiga kirib kelayotgan tovar va transport vositalari hujjatlarini tekshirish va o'rganish jarayonini avtomatlashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun boj to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish;
- bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini avtomatlashtirish jarayoniga situatsion modellashtirish tizimini joriy etish va boshqalar.

9.2. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining tashkil etilishi, uning vazifalari, funksiyalari va huquqlari

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Bojxona qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o‘tkazilishini, bojxona ishlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini, bojxona organlari tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi.

Bojxona qo‘mitasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro bitimlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga amal qiladi.

Bojxona qo‘mitasining qonunchilikka muvofiq o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari, mulkchilik shartlaridan qat’i nazar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ijro bajarilishi majburiydir.

Bojxona organlarining tizimini quyidagilar tashkil etadi:

Bojxona qo‘mitasi markaziy apparati;

Bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari;

ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari (IBK);

bojxona postlari;

milliy kinologiya markazi.

Bojxona qo‘mitasi markaziy apparati, IBK yuridik shaxs hisoblanadilar, bank muassasalarida hisob-kitob, joriy va boshqa schyotlarga, shu jumladan valyuta schyotlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va o‘z nomi yozilgan muhrga ega bo‘ladilar.

Bojxona qo‘mitasida belgilangan tartibda moddiy yordam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi tashkil etiladi.

Bojxona qo‘mitasi organlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

➤ respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va belgilangan vakolatlar doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash;

➤ respublika boj siyosati ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida qatnashish;

➤ boj qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazorat o‘rnatish;

➤ boj ishlarini amalga oshirishda fuqarolarning, shuningdek yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

➤ respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga ko‘maklashish;

➤ xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashish;

➤ O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalardan kelib chiquvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash;

➤ boj poshlinalari, soliqlar va boshqa boj to‘lovlarini undirish;

➤ respublikaning boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, valyuta-moliyaviy munosabatlarini boj-tarif tartibga solish vositalarini ishlab chiqish va samarali qo‘llash;

➤ O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o‘tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona tekshiruvini ta‘minlash;

➤ respublikaning bojxona chegarasi orqali tovar oboroti o‘tishini jadallashtirishga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlar yaratish;

➤ kontrabandaga, bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish, respublikaning bojxona chegarasi orqali giyohvandlik moddalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog‘, valyuta boyliklari, milliy boylik hisoblangan badiiy, madaniy-tarixiy va arxeologik meros buyumlari, intellektual mulk ob‘ektlari g‘ayriqonuniy olib o‘tilishining oldini olish;

➤ bojxona statistikasi va maxsus bojxona tizimini yuritish, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatini, manfaatdor vazirliklar va idoralarni bojxona ishiga tegishli masalalar bo‘yicha axborot bilan ta‘minlash;

➤ bojxona ishi sohasidagi faoliyat to‘g‘risidagi axborotni to‘plash va uni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

➤ tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini yuritish;

➤ kadrlar to‘g‘ri tanlanishi va joy-joyiga qo‘yilishini, DBQ organlari shaxsiy tarkibi xizmat tayyorgarligi va intizomi yuqori darajada bo‘lishini ta‘minlash;

➤ bojxona tashuvchilari faoliyati, bojxona va erkin omborlar, bojsiz savdo do‘konlari ishi, tovarlarga bojxona hududidan tashqarida, bojxona hududida va bojxona nazorati ostida qayta ishlov berilishi ustidan nazoratni ta‘minlash;

➤ bojxona ishi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini va maslahatlar berishni tashkil etish;

➤ bojxona organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, bojxona atrofi infrastrukturasini rivojlanishiga ko‘maklashish;

➤ O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va tuzilgan xalqaro shartnomalar va bitimlar bilan belgilanadigan boshqa vazifalar.

Bojxona qo‘mitasi organlarining funksiyalari:

➤ yagona bojxona siyosati amalga oshirilishining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqadi, ularning amalda qo‘llanilishini ta‘minlaydi, bojxona ishi sohasida qonun hujjatlari va normativ hujjatlar loyihalari tayyorlanishida qatnashadi;

➤ O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ishlab chiqilishida qatnashish, belgilangan tartibda va o‘z vakolatlari doirasida bojxona masalalari bo‘yicha xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzadi;

➤ respublikaning bojxona hududida davlat xavfsizligini, jamoat tartibi, inson hayoti va salomatligi himoya qilinishi, hayvonlar va o‘simliklar muhofaza qilinishi, atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga ko‘maklashadi;

➤ belgilangan tartibda bojxona nazorati amalga oshirilishini ta‘minlaydi va uning shakllarini takomillashtiradi;

➤ bojxona qonunchiligiga va o‘z vakolatlari doirasida – soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

➤ bojxona tartibga solish vositalari qo‘llanilishini ta‘minlaydi, bojxona-tarif mexanizmi ham shu jumlagi kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari, litsenziyalash va deklaratsiya taqdim etish ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashadi;

➤ boj poshlinalari, soliqlar va boshqa to‘lovlar davlat byudjetiga o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilishini ta‘minlaydi;

➤ o‘z vakolatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshiradi;

➤ bojxona statistikasi metodologiyasini takomillashtiradi, bojxona ishi sohasida statistika ma‘lumotlari to‘planishi, ularga ishlov berilishi va tahlil qilinishini tashkil etadi, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo va to‘lov balansini mustahkamlash bo‘yicha prognoz hisob-kitoblarni amalga oshiradi va takliflarni ishlab chiqadi;

➤ bojxona ishi sohasidagi faoliyat to'g'risida axborot to'planishi va ishlab chiqilishi hamda avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishini yuritadi, shuningdek bojxona statistika ma'lumotlarini tegishli idoralar va manfaatdor organlarga taqdim etadi;

➤ kontrabandaning, bojxona qonunchiligining, o'z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va ularga barham berish chora-tadbirlarini mustaqil ravishda yoki huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqadi va qo'llaydi, shuningdek xalqaro terrorizmga va O'zbekiston aeroportlarida xalqaro fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga qarshi kurashishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qo'llaydi;

➤ bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalarini buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi;

➤ yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan bojxona qoidalarini buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralarini belgilangan tartibda qo'llaydi;

➤ giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog' respublikaning bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va qo'llaydi;

➤ respublikaning va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar nazorat ostida yetkazib berilishini amalga oshiradi;

➤ Davlat xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari bilan o'zaro hamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiradi;

➤ aybdorlarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalan bojxona organlari vakolatlari doirasidan tashqariga chiqqanda qonun buzilishlari faktlari bo'yicha materiallarni tergov, sud organlari va boshqa organlarga topshiradi;

➤ bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, bojxona organlari mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan tushgan viloyatlar va e'tirozlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

➤ bojxona organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalar amalga oshirilishini ta'minlovchi ilmiy-texnik xizmatlar, laboratoriyalar, uquv markazlari, boshqa korxonalar va tashkilotlarni tashkil etadi;

➤ bojxona organlari xodimlarini tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi;

➤ bojxona va erkin omborlar, bojsiz savdo do'konlari, bojxona tashuvchilari, tovarlarga bojxona hududidan tashqarida, bojxona hududida ishlov berish yuzasidan nazoratni amalga oshiradi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda bojxona va erkin omborlar, bojsiz savdo do'konlari, bojxona tashuvchilari faoliyatini amalga oshirish huquqiga ruxsatnoma beradi;

➤ xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashadi, xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning bojxona xizmatlari bilan axborotni o'zaro ayirboshlaydi;

➤ bojxona organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, tashqi savdo yuklarini bojxona rasmiylashtirishi uchun punktlar tarmog'ini va bojxona infrastrukturasi boshqa ob'ektlarini kengaytirish ham shu jumlag kiradi;

➤ Bojxona qo'mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasiga tushadigan mablag'lar hisobiga respublikada bojxona ishini rivojlantirish chora-tadbirlarini mablag' bilan ta'minlaydi;

➤ xavfli yuklar, qurol-yarog'lar, harbiy texnika, harbiy mol-mulk, portlovchi moddalar va buyumlar, shuningdek harbiy tarkiblar tranziti chog'ida qonunchilikka muvofiq xulosalar beradi va nazoratni amalga oshiradi.

Bojxona qo'mitasiga qonunchilik bilan boshqa funksiyalar ham yuklanishi mumkin.

Bojxona qo'mitasi organlari yuklangan vazifalarni samarali bajarish maqsadida qonunchilikda belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

➤ bojxona huquq buzilishlarini aniqlashning texnik va maxsus vositalarini qo'llash;

➤ bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv olib borish;

➤ bojxona qoidalarini buzilishi to'g'risidagi ishlarni yuritish, bunday ishlarni ko'rib chiqish hamda yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan

bojxona qonunchiligi buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash, ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash;

- tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

- bojxona nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan tovarlar va transport vositalari ko'zdan kechirilishi (qayta ko'zdan kechirilishi)ni hamda ularga hujjatlar taqdim etilishini talab etish; tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish (qayta ko'zdan kechirish), yetarlicha asoslar mavjud bo'lganda esa – jismoniy shaxslarni shaxsan ko'zdan kechirish;

- bevosita bojxona huquq buzilishlari buyumlari hisoblangan tovarlar, transport vositalari va boshqa buyumlarni ushlash va olib qo'yish;

- eksport qilish taqiqlangan buyumlar va mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga chiqarishda, shuningdek, aktsiz markalari bilan markalanmagan tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga keltirishda, transportda tashishda (xalqaro tranzitdan tashqari) va saqlashda musodara qilish (xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan sud tartibida) to'g'risida qaror qabul qilish;

- transport vositalarini majburan to'xtatish, O'zbekiston Respublikasi boj hududini bojxona organlarining ruxsatisiz tark etgan dengiz, daryo va havo kemalarini qaytarish;

- plombalarni ochish, bagajniklar, yuk bo'lmalari, transport vositalari kuzovlari, konteynerlar va boshqa transport tarasining tamba qurilmalarini ochish;

- mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik va jismoniy shaxslarning bojxona nazoratidan o'tishi kerak bo'lgan tovarlari va transport vositalari turgan hududiga va binolariga tusiqsiz kirish, shuningdek nazorat qilish bojxona organlariga yuklangan faoliyatni amalga oshirish;

- tovarlar va boshqa buyumlar probalari va namunalarini olib qo'yish ularni tadqiq (ekspertiza) qilish;

- shaxsdan uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish;

- vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlaridan, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan (mulkchilik shakllari va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar) bojxona

ishi (nazorati)ni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, materiallar va hujjatlarni so'rash va olish;

➤ xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob-kitob schyotlaridan bojxona to'lovlari so'zsiz tartibda o'tkazilishi to'g'risida, bojxona to'lovlari byudjetdan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar schyotiga qaytarilishi to'g'risida banklarga va boshqa moliya-kredit muassasalariga belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

➤ ko'rsatib o'tilgan topshiriq kechiktirilgan yoki bajarilmagan har bir kun uchun o'tkazilishi yoki qaytarilishi kerak bo'lgan bojxona to'lovlari summasidan banklardan yoki boshqa moliya-kredit muassasalaridan, shuningdek xo'jalik sub'ektlaridan qonun hujjatlarida belgilangan miqdorida bojxona to'lovlari to'lash muddati kechiktirib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan tartibda 0,5 foiz miqdorida penya undirish;

➤ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda bojxona yig'implari stavkalarini belgilash;

➤ bojxona va erkin omborlarni, bojsiz savdo do'konlarini ochish, bojxona tashuvchilari sifatidagi faoliyatni amalga oshirish huquqiga ruxsatnomalar berish;

➤ tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchilarining tashqi iqtisodiy faoliyatini to'xtatish to'g'risida belgilangan sabablari ko'rsatilgan taqdimnoma kiritish;

➤ bojxona nazoratini amalga oshirishga ko'maklashish uchun mutaxassislar va ekspertlarni jalb qilish;

➤ o'z vakolatlari doirasida bojxona nazorati ostidagi tovarlarni qayta ro'yxatdan o'tkazish va ushbu tovarlarga taalluqli hujjatlarni tekshirish.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish chog'ida tabel o'qotor qurolini va yakka tartibda himoyalaniish vositalarini olib yurish, saqlash, qo'llash va foydalanish huquqiga ega bo'ladilar.

9.3. Soliq organlarning asosiy vazifalari

Zamonaviy talablarga javob beradigan soliq tizimi – iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni kengaytirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida soliq solish

bazasini kengaytirish orqali soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish masalalari alohida o'rin tutadi.

O'tgan davr mobaynida tadbirkorlik sub'ektlarida tekshirishlarni qisqartirish va ularning faoliyatiga asossiz aralashishlarga barham berish bo'yicha zarur choralar ko'rildi. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirish tartiblari bekor qilindi, hisobotlarning shakli va taqdim etish muddatlari soddalashtirildi.

Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirishda bir qator muammolar mavjudligi sababli Farmon bilan davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlari belgilandi:

➤ soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

➤ soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan ishonchli axborotini o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini oshirish;

➤ soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

➤ makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirishni ta'minlash bo'yicha samarali tadbirlarni amalga oshirish;

➤ faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

➤ soliq solish masalalari, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek

mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

➤ kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Bugungi kunda bilan soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etilmoqda.

Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga o'z vaqtida va samarali xizmat ko'rsatish maqsadida ular bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi funksiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalariga yuklatilmoqda.

Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilar – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliq ta'tillari berish tarzidagi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi shakli nazarda tutilmoqda. Shuningdek soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qaytarish yoki hisobga olish muddati ikki baravarga qisqartirilmoqda.

Soliq nazoratining to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz shakllari samaradorligini oshirish maqsadida kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to'lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini sud tartibida undirish joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida "sog'lom raqobat"ni ta'minlash va "xufiyona biznes" yuritishga barham berish maqsadida:

➤ davlat soliq xizmati organlariga kirim hujjatlarini rasmiylashtirmasdan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qiladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni 5 bank kunigacha bo'lgan muddatga vaqtinchalik to'xtatib turish vakolati berilmoqda;

➤ soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta'minlaydigan nazorat-kassa mashinalarini qo'llash

orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, real ish o‘rinlarini legallashtirish uchun davlat soliq xizmati organlariga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish vazifalari yuklatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tuzilmasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to‘liqligini nazorat qilish inspeksiyasi tashkil etilib, uning faoliyati byudjet daromadlarini ko‘paytirish zaxiralarini aniqlash va ularning safarbar etilishini ta‘minlash, soliq va bojxona to‘lovlarining yig‘iluvchanlik darajasini tizimli tahlil qilish, Davlat byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlarining xolisligi va asoslilikini baholash, soliq solish ob’ektlari va soliq solinadigan bazani to‘liq qamrab olish ustidan nazoratni amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini muvofiqlashtirish va soliq to‘lovchilarga interaktiv davlat xizmatlari taqdim etish amaliyotini kengaytirish uchun mas‘ul bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosari lavozimi joriy etildi.

Bundan tashqari, Soliq qonunchiligi va soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha Ishchi komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiyaga, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifalari yuklatildi:

- soliq ma‘muriyatchiligi va nazoratini tashkil etish tartibi va metodologiyasini tubdan takomillashtirish;

- soliq yukini yanada kamaytirish, bir xil soliq solish ob’ektlariga ega bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni birlashtirish;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash uchun qo‘shimcha mezon (oborotning chegaraviy miqdori) joriy etishni va ushbu miqdor oshgan korxonaga, kichik tadbirkorlik sub’ekti maqomini saqlab qolgan holda, qo‘shimcha soliq majburiyatlarini belgilash;

- ayrim yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalarini optimallashtirish;

- halol, shu jumladan ish o‘rinlari va mehnatga haq to‘lash fondini legallashtiradigan soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish choralarini joriy etish.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi soliq ma‘muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlari hisoblanadi:

birinchidan, davlat soliq xizmati organlarini soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan “Soliq xizmati–insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori” degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish;

ikkinchidan, eksterritoriallik printsipi asosida soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi, biznesni qonuniy, shaffof va qulay yuritish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, soliq to‘lovchilarning qoniqish darajasining oshishini ta‘minlash;

uchinchidan, soliq ma‘muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, shuningdek, korruptsiyaviy omillarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha preventiv va oldini olish choralarini qo‘llash;

to‘rtinchidan, soliq to‘lovlarining o‘z vaqtida va bir xildagi tushumini ta‘minlash, ma‘muriy tartib-taomillarni maksimal darajada kamaytirish va soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga byudjetlarning daromad qismini barqaror shakllantirish;

beshinchidan, tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma‘lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlashni ta‘minlaydigan zamonaviy, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choralarini yanada kuchaytirish;

oltinchidan, davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, davlat soliq xizmati organlarining strategik maqsad va vazifalariga erishish uchun o‘z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish.

2019-yil 1-yanvardan davlat soliq xizmati organlari xizmat ko‘rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlari uchun yagona soliq to‘lovini, yagona yer solig‘ini, yuridik shaxslardan yer solig‘ini, shuningdek, bank aylanmalari haqidagi ma‘lumotlar, shuningdek, boshqa tashqi manbalar asosida deklaratsiya qilinadigan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash tarzida soliq to‘lovchilarga servis xizmatlari ko‘rsatadi hamda hisoblangan soliqlar summasi haqida soliq to‘lovchining “shaxsiy kabineti” orqali xabarnoma yuboradi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyati samaradorligini baholashning quyidagi asosiy mezonlari belgilandi:

➤ davlat soliq xizmati organlari ishining sifatini qoniqarli baholaydigan soliq to'lovchilar, shuningdek, ularning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlarning soni;

➤ kameral nazorat natijasi bo'yicha undirilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning umumiy summasi;

➤ xronometraj va ko'zdan kechirish natijalari bo'yicha aniqlangan Davlat byudjeti daromadlarini oshirish zaxiralari summasi va ularni undirish darajasi;

➤ pasportlari tuzilgan soliq to'lovchilarning soni;

➤ hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlar undirilishining to'liqligi va soliq qarzdorligining pasayish darajasi;

➤ davlat soliq xizmati organlari bilan o'zaro munosabatlarda "shaxsiy kabinet"dan foydalanish darajasi;

➤ elektron hisobvara-fakturalarni hisobga olish va onlayn nazorat-kassa mashinalarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni qo'llayotgan soliq to'lovchilarning qamrab olinishi.

Davlat soliq xizmati organlariga quyidagi huquqlar berildi:

➤ soliq to'lovchi qayd etilgan manzilda bo'lmagan, shuningdek, soliq to'lovchi tomonidan soliq yoki moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari yuzasidan tafovutlarning asoslari yoxud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan muddatda taqdim etilmagan hollarda soliq to'lovchi-yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish;

➤ davlat ulushlari bo'yicha dividendlarni va davlat unitar korxonalarining sof foydasidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga ajratmalarni undirish;

➤ soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladigan axborotning ishonchliligini hamda soliq to'lovchining hisobotlarida aks ettirilgan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llashning qonuniyligini tasdiqlash uchun kameral nazorat natijasi bo'yicha joyiga chiqqan holda mavzuga oid va ekspress-o'rganishlarni amalga oshirish;

➤ yuzaga kelgan soliq qarzdorligini soliq to'lovchi-jismoniy shaxslarning plastik kartalariga xizmat ko'rsatuvchi bank hisobvaraqlaridan oyiga eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdoridan ko'p bo'lmagan summada so'zsiz hisobdan chiqarish.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining **“Respublika axborot-maslahat markazi”** va **“Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash markazi”** davlat unitar korxonalari negizida **“Soliq-servis”** davlat unitar korxonasi va uning hududiy markazlarini tuzgan holda tashkil etildi.

Quyidagilar “Soliq-servis” DUKning asosiy vazifalari etib belgilandi:

➤ soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda texnik jihatdan ko‘maklashish, shuningdek, hisobotlar va deklaratsiyalarni qabul qilish bo‘yicha soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish yuzasidan davlat soliq xizmati organlariga amaliy yordam berish;

➤ davlat soliq xizmati organlarining avtomatlashtirilgan axborot tizimini texnik, dasturiy va axborot ta‘minotini boshqarish;

➤ davlat soliq xizmati organlari faoliyati natijasida yuzaga keladigan hujjatlarni qog‘oz va elektron shaklda markazlashgan holda arxivda saqlash;

➤ “call-markaz” maxsus servisi orqali aholiga axborot xizmatlarini ko‘rsatish;

➤ soliq to‘lovchilarni elektron hisobvara-q-fakturalarni yuritish qoidalari bo‘yicha o‘qitish, ularga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalarini yetkazish;

➤ axborotni himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish;

➤ davlat soliq xizmati organlari xodimlarining bilim va malakasini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida **Soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal qilish kengashi** tashkil qilinib, quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilandi:

➤ soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llashda nizoli masalalar yuzasidan xulosalar chiqarish;

➤ soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishini aniqlashda soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni ko‘rib chiqish;

➤ soliq nizolarini ko‘rib chiqish jarayonida aniqlangan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish.

9.4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining tashkil etilishi, uning vazifalari, funksiyalar va huquqlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda Qo‘mita deb ataladi) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini va davlatning iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlash sohasidagi nazorat bo‘yicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi.

Qo‘mita o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, soliq to‘lovchilar, shu jumladan yuridik va jismoniy shaxslarning ijro etishi uchun majburiy hisoblanadi.

Qo‘mita, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari (keyingi o‘rinlarda davlat soliq xizmatining hududiy organlari deb ataladi), Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda Hududlararo inspeksiya deb ataladi), shuningdek, Qo‘mita tizimiga kiradigan tashkilotlar yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, bank hisobraqamlariga, shu jumladan chet el valyutasidagi hisobraqamlariga ega.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Quyidagilar Qo‘mitaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

➤ davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy

to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan nazoratni ta'minlash;

➤ O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti (keyingi o'rinlarda Davlat byudjeti deb ataladi) va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash hisobiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromad qismini barqaror shakllantirish;

➤ soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlarining o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish;

➤ soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta'sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig'ilishini oshirish bo'yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

➤ pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi yuzasidan muntazam nazoratni ta'minlash;

➤ bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

➤ soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati -insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish;

➤ soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarish;

➤ soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish yo'li orqali soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish;

➤ qonun hujjatlarini takomillashtirish va soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish;

➤ kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, shuningdek, kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

➤ davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korruptsiya faktlariga keskin barham berish bo'yicha ta'sirchan choralarni, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to'qnashuvini hal qilish yo'li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash, o'z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish;

➤ hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat soliq xizmati organlariga birlashtirilgan sektorlarda soliq solish sohasidagi tizimli muammolarni o'rganish va aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Qo'mita o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan soliq nazoratini ta'minlash sohasida:

➤ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushishi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi;

➤ soliq to'lovchilar faoliyatining soliq tekshiruvlarini, shuningdek, soliq to'lovchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida kiritilishi tekshiruvlarini belgilangan tartibda o'tkazadi;

➤ davlat soliq xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini soliq tekshiruvi o'tkazilishida qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

➤yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;

➤soliq to'lovchilardan yoki ularning mansabdor shaxslaridan tushuntirishlar oladi, soliq to'lovchining mol-mulki mavjudligini tekshiradi, shuningdek, hududlarni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan soliq to'lovchilar tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish ob'ektini saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechiradi yoki tekshiradi;

➤xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan pul mablag'lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini, korxonalar hududiga moddiy boyliklarni olib kirish va u yerdan olib chiqishda korxonalarda ruxsat berish tizimi ishlarining tashkil etilishi holatini tekshiradi;

➤soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) jarayonida hisobotdagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligini aniqlash, davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarida faktlarning buzib ko'rsatilishini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun buxgalteriya hisoblarini va moliyaviy hisobotlarni tekshiradi;

➤moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) davomida xom ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va tayyor buyumlarni tortib ko'radi va o'lchaydi, ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini va taqdim etilgan soliq hisob-kitoblarining to'g'riligini aniqlash uchun xomashyo va materiallar sarfi normalari, ularning mahsulot ishlab chiqarish uchun to'g'ri hisobdan chiqarilishini, tayyor mahsulotning to'liq kirim qilinishini, mahsulot chiqishi normalari hamda moddiy boyliklarni saqlash va tashishda tabiiy yo'qotishlar normalari to'g'ri belgilanishini aniqlash uchun xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishda nazorat tariqasida ishlatib ko'radi, xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni nazorat tariqasida tekshiradi;

➤yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

➤jismoniy va yuridik shaxslardan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risida kelib tushgan murojaatlar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshiradi;

➤ soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlarini tahlil qiladi hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli organlarga takliflar kiritadi;

➤ huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning uzoq muddatli hamda joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

b) Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash hisobiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromad qismini barqaror shakllantirish sohasida:

➤ soliq to'lovchilarning majburiyatlari paydo bo'lishi (to'xtatilishi) to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

➤ belgilangan tartibda soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan moliya va soliq hisobotlarini, shuningdek, soliq to'lovchilarning faoliyati to'g'risida soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida yig'ilgan boshqa hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida kameral nazoratni amalga oshiradi;

➤ o'zaro tuzilgan kelishuv asosida soliq monitoringida ishtirok etayotgan soliq to'lovchi tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi soliq monitoringini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi;

➤ davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni sotishdan olingan pul mablag'larining davlat daromadiga to'liq va o'z vaqtida tushishi nazoratini, shuningdek, davlat organlariga berilgan mol-mulkning hisobga olinishini ta'minlaydi;

➤ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tushumini ta'minlash, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash bo'yicha moliya organlari, manfaatdor vazirliklar va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qiladi.

v) soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarining o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish sohasida:

➤ soliq to'lovchilar, soliq solinadigan baza, shuningdek, soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlarning to'liq, o'z vaqtida va ishonchli hisobga olinishini ta'minlaydi;

➤ yuridik va jismoniy shaxslarga, ularni soliq to'lovchining identifikatsiya raqamlari berilgan holda soliq to'lovchilar sifatida hisobga qo'yish to'g'risida hujjatlar berilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil qiladi;

➤ O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestrini shakllantiradi va yuritadi;

➤ soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida soliq to'lovchilar bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblab chiqilishi va amaldagi tushumlari hisobini yuritadi;

➤ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar hisobini yuritadi;

➤ banklar tomonidan tegishli axborot taqdim etilishiga ko'ra bank hisobvaraqlari bo'yicha olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik faoliyati bo'yicha - uch oy mobaynida) pul operatsiyalarini amalga oshirgan holda moliya-xo'jalik faoliyatini yuritmayotgan korxonalarni aniqlaydi;

➤ tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bo'yin tovlash mexanizmlarini o'rganadi, aniqlaydi va bartaraf etadi;

➤ axborot xavfsizligi ta'minlanishini hisobga olgan holda, barcha soliq to'lovchilar va soliq tushumlari bo'yicha soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasini yaratadi;

➤ soliq axborotlarini qabul qilib olish, qayta ishlash, uzatish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish choralarini ko'radi;

➤ davlat soliq xizmati organlarida, axborot xavfsizligini ta'minlashni hisobga olgan holda, yagona axborot, dasturiy-texnik va telekommunikatsiya tizimi joriy etilishini tashkil qiladi;

➤ soliq ma'murchiligi jarayonida davlat soliq xizmati organlari ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi hamda xarajatlarni maqbullashtirish va resurs ta'minotini rivojlantirish

uchun ularni texnologik jarayonlarni yuritishning zamonaviy tizimlari va boshqarishning tezkor vositalari bilan jihozlaydi.

g) soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta'sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig'ilishini oshirish bo'yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish sohasida:

- soliq to'lovchilarni "xavf-xatar" guruhi bo'yicha segmentlashni amalga oshiradi;

- soliqlar va boshqa boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash faktlarini aniqlaydi va tegishli choralar ko'radi;

- soliq nazoratini amalga oshirishda zamonaviy usullarni qo'llaydi;

- Qo'mitaning texnik bazasini modernizatsiya qilish, mustahkamlash va yangilash bilan tashqi va ichki manbalardan kelib tushadigan ma'lumotlarni tahlil qilishning ilg'or avtomatlashtirilgan usullarini joriy etadi;

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq qarzini undirishni belgilaydigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning tashkillashtirilishini va qo'llanishini ta'minlaydi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida belgilangan tartibda xronometraj ko'zdan kechirish o'tkazadi;

- soliq solinadigan bazaga tuzatishlar kiritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'zdan kechirish hamda so'rov o'tkazishni amalga oshiradi;

- ishlab chiqarish va daromadlar miqdorlarini yashirish, sotilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmlarini kamaytirib ko'rsatish mexanizmlarini o'rganish va aniqlashni tashkillashtiradi va amalga oshiradi, ko'rsatib o'tilgan mexanizmlarning qo'llanishini bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

➤ soliq ma'muriyatchiligi islohoti va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi va uning ijrosi monitoringini amalga oshiradi.

d) pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi yuzasidan muntazam nazoratni ta'minlash sohasida:

➤ savdo va xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishning qonun hujjatlariga muvofiqligi, shu jumladan nazorat-kassa mashinalarini, plastik kartochkalardan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha hisob-kitob terminallarini qo'llash, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

➤ naqd pul mablag'lari muomalada bo'lishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul aylanmasiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

➤ tadbirkorlik sub'ektlarida, shuningdek, bozorlar va savdo komplekslarida, bir martalik yig'imlar, bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun ijara to'lovlarining o'z vaqtida va to'liq undirilishi, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari bajarilishi, naqd pul mablag'lari yoki plastik kartochkalar bo'yicha to'lov shakliga qarab narxlarning sun'iy ravishda oshirilishi yoki pasaytirilishi, nazorat-kassa mashinalarining, to'lov terminallarining qo'llanilishi, shuningdek, belgilangan tartibda talon va cheklarning berilishi, naqd pul tushumining o'z vaqtida va to'liq hajmda inkassatsiya qilinishi masalalari bo'yicha belgilangan tartibda qisqa muddatli tekshirishlarni amalga oshiradi.

e) bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish sohasida:

➤ bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlaydi, oldini oladi va bartaraf etadi;

➤bozorlar va savdo komplekslari hududlarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) yoki noqonuniy olib kirilgan tovarlarni tayyorlash va sotishga qarshi kurashadi;

➤bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylari, shuningdek, ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatidan olingan pul oqimlari harakati monitoringini va mablag'lar tushumi hisobining to'liqligini ta'minlaydi;

➤bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek, ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari pul mablag'lari tushumlari va tovar aylanmasi to'g'risida davlat soliq xizmati organlariga tushadigan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish uchun banklar hamda statistika organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

➤bozorlar, savdo komplekslari hududlarida, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylarida moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqni buzish sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruvlarni tashkil etadi va olib boradi, jinoiy ishlar qo'zg'aydi, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga beradi;

➤soliqqa oid huquqbuzarliklar natijasida davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararning belgilangan tartibda undirilishini ta'minlash choralari ko'radi.

j) soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati - insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish sohasida:

➤soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashadi;

➤soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlash uchun soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha choralarni amalga oshiradi;

➤qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ayrim turdagi soliqlarni hisoblash tarzida soliq to'lovchilarga servis xizmatlari ko'rsatadi;

➤yuridik va jismoniy shaxslarning soliq sohasidagi huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari himoyalanihini ta'minlaydi;

➤ davlat soliq xizmati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlaydi;

➤ soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlarning qonun hujjatlariga muvofiq sir tutilishiga rioya etish ishlarini tashkil qiladi.

z) soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarish sohasida:

➤ soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlarni soliq to'lovchilarga va aholiga o'z vaqtida tanishtirish va yetkazish ishlarini tashkil etadi;

➤ soliq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati to'g'risida joylarda va ommaviy axborot vositalari orqali keng tushuntirish ishlarini olib boradi;

➤ soliqqa doir qonun hujjatlarini nashr etish, ko'paytirish va davlat soliq xizmatining hududiy organlariga yetkazish, maslahat xizmatlari ko'rsatish, soliq to'lovchilarni soliqlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishga, soliq hisobotlarini va soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish, to'lash bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishga o'qitish uchun servis-markazlar tashkil qiladi;

➤ soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar to'plamlarini nashr etadi, davlat soliq xizmati organlarini qonun hujjatlari bilan ta'minlash choralari ko'radi;

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning soliq solish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi masalalari bo'yicha murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

➤ soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

➤ soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan ularning sodir etilishi sabablarini aniqlaydi va bartaraf etadi;

➤ huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

➤ aktsizosti tovarlarini ishlab chiqarishda va aylanmasida huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etilishini belgilangan tartibda tashkillashtiradi va amalga oshiradi;

➤ soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir qilgan shaxslarni qidirib topish uchun materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga

beradi, davlatga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirishni ta'minlash choralari ko'radi;

- ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni yuritadi;

- soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etgan jismoniy va yuridik shaxslarning hisobini yuritadi, mazkur ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi;

- soliqqa oid jinoyatlarning sodir etilishi holatlarini aniqlash uchun, surishtiruv, tergov va suddan yashirinib yurgan shaxslarni qidirib topish uchun ommaviy-axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanadi.

i) soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish yo'li orqali soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish sohasida:

- soliq to'lovchilar bilan ishlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilishini ta'minlaydi;

- soliq to'lovchilarga real vaqt rejimida keng ko'lamli interaktiv xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etadi;

- soliq to'lovchilarga soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali, shu jumladan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi;

- soliq to'lovchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ayrim soliqlar bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliqlar summasi haqida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi.

k) qonun hujjatlarini takomillashtirish va soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish sohasida:

- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini, shu jumladan tabiiy resurslardan ehtiyotlab va samarali foydalanishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliqqa oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni birxillashtirish, soliq yukini qisqartirish, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag'batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferentsiyalar berish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;

- qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

➤ soliq hisobotlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlar shakllarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

➤ O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan ma'lumotlarni almashish va soliq sohasida hamkorlik qilish masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi hamda ularning belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlaydi.

l) kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, shuningdek, kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish sohasida:

➤ qo'yilgan talablarga muvofiq davlat soliq xizmati organlariga ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlarni tanlash va to'ldirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

➤ belgilangan tartibda ta'lim muassasalari tashkil etish yo'li bilan, davlat oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalangan holda davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarining tizimli ravishda tashkil etilishini ta'minlaydi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning soliq organlari va o'quv muassasalari bilan tajriba almashishning kengaytirilishini amalga oshiradi;

➤ davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining malaka tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazadi, ularga o'z vakolatlari doirasida maxsus unvonlar beradi;

➤ tegishli tanlovdan o'tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan bo'shatilgan shaxslarning ishga qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan nazoratni ta'minlaydi;

➤ davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash bo'yicha xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan tizimni joriy etadi, soliq to'lovchilar bilan nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda ularga stressga bardoshlilikni singdirish, shuningdek, xodimlarning axloqiy - psixologik holatini oshirish bo'yicha psixologik treninglarni joriy qiladi.

m) davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korruptsiya faktlariga keskin barham berish bo'yicha

ta'sirchan choralarni, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to'qnashuvini hal qilish yo'li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash, o'z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish sohasida:

➤ kadrlarni O'zbekiston Respublikasiga sodiqlik, vatanparvarlik, halollik hamda huquqiy davlat g'oyalari va asoslarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash yuzasidan uzluksiz ishlarni amalga oshiradi;

➤ davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan g'arazli maqsadlarda noqonuniy ta'sir ko'rsatish holatlarini aniqlaydi va ularga barham beradi;

➤ davlat soliq xizmati organlarida korruptsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga, qarshi kurashishga va bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, tashkil etadi va ularni amalga oshirishda qatnashadi;

➤ davlat soliq xizmati organlarining xodimlari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

➤ xizmat vazifalarini bajarayotganda davlat soliq xizmati organlari xodimlarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

➤ har ikki yilda ko'pi bilan bir marta davlat soliq xizmatining hududiy organlari hamda Hududlararo inspeksiyaning byudjet va xo'jalik faoliyati bo'yicha xarajatlarni smetalari ijrosi yuzasidan taftishni amalga oshiradi. Juda zarur bo'lganda va moliya-xo'jalik faoliyatida qonun buzilishlariga yo'l qo'yilgan holatlar to'g'risida ishonchli axborot mavjud bo'lgan taqdirda navbatdan tashqari taftishlar o'tkazilishi mumkin;

➤ davlat soliq xizmatining hududiy organlari hamda Hududlararo inspeksiya tomonidan moddiy va pul resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bajarilishini ta'minlaydi, xo'jasizlik, isrofgarchilik, davlat mablag'larini va byudjetdan tashqari mablag'larni asossiz ravishda sarflash, smeta-shtat intizomini buzish hollariga barham beradi;

➤ mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish borasida vijdonan xizmat qilayotgan xodimlarni ularning shaxsiy hissasidan kelib chiqqan holda rag'batlantirish mexanizmlarini yaratadi.

n) hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat soliq xizmati organlariga biriktirilgan sektorlarda soliq solish sohasidagi tizimli muammolarni o'rganish va aniqlash xamda ularni bartaraf etish buyicha takliflar ishlab chiqish sohasida:

➤ soliq solish sohasida ishlarni haqqoniy holatini chuqur va xar tomonlama o'rganishni amalga oshiradi;

➤ birinchi navbatda, uyma-uy yurish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, aholining turli qatlamlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish orqali to'plangan muammolar va tizimli kamchiliklarni aniqlash bo'yicha ishlarini amalga oshiradi;

➤ soliq solish sohasidagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

➤ soliq to'lovchilar o'rtasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyatini tushuntirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi.

Nazorat uchun savollar

1. Bojxona organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuchishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llash masalalari haqida nimalarni bilasiz?

2. Bojxona organlari xodimlarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish haqida nimalarni bilasiz?

3. Bojxona organlarida xizmatga qabul qilish va xizmatni o'tash tartibini izohlab bering.

4. Soliq organlarning asosiy vazifalari haqida so'zlab bering?

5. O'zbekiston Respublikasi Soliq xizmatining tashkil etilishi, uning vazifalarini tushuntirib bering?

10-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI

Reja:

10.1. Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etilishining zarurati va jamiyatdagi ahamiyati.

10.2. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy faoliyat yo‘nalishlari va vakolatlari.

10.3. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining huquq va majburiyatlari.

10.4. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligida xizmatni o‘tash tartibi va shartlari.

10.1. Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etilishining zarurati va jamiyatdagi ahamiyati

O‘zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurash bo‘yicha alohida mustaqil tuzilmaning tashkil etilishi korruptsiyaga qarshi kurash bo‘yicha tashlangan eng katta qadamlardan biri desak bo‘ladi. Avval ham korruptsiyaga qarshi kurashilgan, turli tuzilmalar bo‘lgan, bu ishlar asosan huquqni muhofaza qilish organlari huzurida tashkil etilgan, asosan jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish bilan shug‘ullanishgan. Yoki respublika komissiyalari bo‘lgan va ular jamoatchilik asosida ishlashgan.

Alohida agentlik tashkil etilishini O‘zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurash bo‘yicha olib borilayotgan ochiqlik siyosatning mantiqiy davomi desak bo‘ladi. Dastlab davlat idoralari faoliyatining ochiqligi, ularning parlament oldida hisob berish amaliyotining yo‘lga qo‘yilgani birinchi qadam bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yangi tizimi paydo bo‘ldi. Korruptsiyaga qarshi kurash agentligining tuzilgani davlatning eng katta siyosiy irodasi. Bu bir tomondan, mamlakat bu illat o‘zida chuqur ildiz otganini tan olgani bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlat rahbari darajasida korruptsiyaga qarshi kurashish kerakligi va buning uchun tuzilmaning tashkil etilgani bo‘ldi.

Tan olish kerak, barcha mamlakatlarda korruptsiya bor, hech qaysi davlatda korruptsiya tamomila yo‘q deb ayta olmaymiz. Davlatlar bir-biridagi korruptsiya darajasi bilan farqlanishi mumkin. Bizda, afsuski, eng quyi pog‘onadan tortib, eng yuqori darajagacha korruptsiya holatlari mavjud va ayrim sohalarda bu hattoki mentalitet, «o‘zbekchilik» sifatida

ham baholanadigan bo‘lib qolgan. Aslida bunday bo‘lmasligi kerak. Aniq vazifalar davlat rahbarining 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-sonli qarorida ham belgilab o‘tilgan. Korrupsiya holatlariga eng ko‘p yo‘l qo‘yilayotgan nuqtalar mahalliy davlat hokimiyati idoralari ekanligini ko‘ryapmiz. Senat raisi rahbarligida 44 ta a‘zodan **Korrupsiyaga qarshi kurash milliy kengashi** tashkil etildi. Ularning orasida huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari, jamoatchilik organlari vakillari ham kiritilgan. Va har bir hududda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha komissiya tuzilgan. Bu **kengashlarning rahbarlari hokimlar** hisoblanadi. Ma‘lumki, hokimlar va vazirlar parlament oldida hisob berishadi. Ular hisobot berishidan avval o‘sha hududning korrupsiyaviy holatini o‘rganib, bu masala bo‘yicha ularning alohida hisobotini eshitish amaliyotini yo‘lga qo‘yilishi belgilangan.

Agentlikning asosiy maqsadi mansabdor shaxslarda korrupsiyadan uzoqlashtirish va korrupsiya imkoniyatlarini qiyinlashtirish.

Nepotizm illati bizda keng urchagan. Achinarli jihati, o‘ saman degan, malakali kadrlar buning natijasida so‘nib boradi. Baribir ilgari harakatlana olmayman, degan fikr paydo bo‘ladi. Misol uchun, Yaponiyada biron ishga kirsangiz, qanday ishlasangiz, 10 yildan keyin o‘zingizni qaerda ko‘rishingizni bilasiz.

Nepotizm bu – qarindoshlari, do‘stlari yoki yaqin do‘stlariga jamoat ishlarida yoki egallab olinadigan lavozim uchun ularning qobiliyatlarini baholamasdan tan olinishda imtiyoz berish

Aniq tartib-qoida bor. Mana shu tartib bo‘yicha ishlasa, mana shu mezonlarga javob bersa, 10 yildan keyin qaerda bo‘lishini aniq biladi va shunga qarab intiladi. Asosiysi, u 10 yildan keyin yaxshi ishlamagani uchun lavozimidan pasaytirilishi mumkin, lekin tajribasi borligining hisobiga ham oyliги hatto rahbarnikidan baland bo‘lishi mumkin. Biz ham mana shunday tizimni yaratishimiz kerak.

Nepotizmni yo‘qotish boshqa sohalarda – biznesda va boshqa yo‘nalishlarda qiyin, lekin aynan davlat boshqaruvida mansabdor shaxslarni tayinlashning qonuniy asoslarin takomillashtirgan, tizimni yaratgan holda buning oldini olsa bo‘ladi.

Prezident farmonida agentlikka katta vakolat berilgan – davlat hokimiyati idoralari rahbarlari tomonidan chiqarilgan qarorlarga nisbatan korrupsion nuqtayi nazardan shubha bo‘ladigan bo‘lsa, agentlik

ularni to‘xtatib turish yoki bekor qilish xususida **taqdimnoma** kiritish vakolatiga ega. “Transparency International” tashkilotining 2018-yildagi “Korrupsiya indeksi”da O‘zbekiston Respublikasi 180 ta davlat orasida 158-o‘rinda edi. 2022-yilda esa O‘zbekiston Respublikasi 126-o‘rinni egalladi.

Kengash yoki agentlik bo‘lsa ko‘tarilib ketamiz, degani emas. Gruziyada radikal choralar ham ko‘rilgan – javobgarlikni kuchaytirish, u yoki bu sohani to‘laligicha ishdan bo‘shatib, qaytadan tanlov asosida ishga olish masalasi, oylikni oshirish masalasi ham bor. Ular ishga olishda, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda fuqarolar bilan davlat o‘rtasida inson omilini yo‘qotishga harakat qilishgan.

10.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy faoliyat yo‘nalishlari va vakolatlari

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tashkil etildi.

Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining prinsiplari:

- qonuniylik;
- xolislik;
- hisobdorlik;
- ochiqlik va shaffoflik;
- boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqillik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdordir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan boshqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Agentlik zimmasiga:

➤ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta‘minlash;

➤ BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari yuklatilgan.

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilangan:

➤ mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta‘minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

➤ fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

➤ vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa

nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

➤ davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplains-nazorat") hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo'yicha reytingini tuzish;

➤ normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

➤ davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini hamda deklaratsiyalarning haqqoniyligi tekshirilishini tashkil etish, shuningdek, ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o'z vaqtida ta'sir choralari ko'rilishini ta'minlash;

➤ davlat xizmatiga halollik standarti ("halollik vaktsinasi") va manfaatlar to'qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko'maklashish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rish, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

➤ byudjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

➤ korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korrupsiyaning

oldini olish va unga qarshi kurashishning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

➤ korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillari bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish;

➤ davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish, shu jumladan ularning normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan ma'lumotlarni Internet tarmog'iga joylashtirish (e'lon qilish) bo'yicha majburiyatlari hisobini yuritish;

➤ davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari orqali samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha choralarning ishlab chiqilishi va joriy etilishiga ko'maklashish;

➤ jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan kelib chiquvchi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligiga oid dolzarb masalalarni "Mening fikrim" veb-portali orqali umumxalq muhokamasiga chiqarish;

➤ Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini uzluksiz to'ldirish, takomillashtirib borish va yangilab borish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishga ko'maklashish;

➤ ommaviy axborot vositalari orqali davlat organlari va tashkilotlari xizmatchilariga "davlat organlari faoliyati ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligi" madaniyatini singdirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar xalq oldida hisobdorligini ta'minlash muhimligi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish.

Agentlik quyidagi vakolatlariga ega:

➤ har yili ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruzani tayyorlaydi hamda uni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi;

➤ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'lgan qo'mitalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining tegishli qo'mitasi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar

Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari bilan hamkorlik qiladi;

- korrupsiyaga oid, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro imidjiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi hamda natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi;

- korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar to‘liq qoplanilishiga erishish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritadi;

- fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi Korrupsiyani qabul qilish milliy indeksini tuzishni tashkillashtiradi;

- davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida davlat buyurtmachisi ISO 37001 korrupsiyaga qarshi standartini qo‘llashni ko‘zda tutuvchi talabni o‘rnatadi;

- joylarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

- korrupsiya holatlariga doir materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi.

10.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining huquq va majburiyatlari

Agentlikka quyidagi huquqlarga ega:

- byudjet mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni talab qilish, olish va o‘rganish;

- o‘z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan o‘rnatilgan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

➤ davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida korrupsiya holatini o'rganish;

➤ korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tizimli korrupsiyaning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish maqsadida qonunchilik, shu jumladan, jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq jinoyat ishlari materiallarini o'rganish;

➤ o'rganish va boshqa tadbirlar natijalari bo'yicha to'plangan materiallarni faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan shaxslarga nisbatan qonunga muvofiq choralar ko'rish, jumladan, jinoyat ishlarini qo'zg'atish uchun huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

➤ korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy surishtiruvlar o'tkazish;

➤ ijro hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalarni kiritish;

➤ davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohlantirishlar hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish to'g'risida taqdimnomalar kiritish.

Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va murojaatlari o'n kun ichida ko'rib chiqilishi va natijalari yuzasidan yozma axborot berilishi shart.

Agentlikning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish va tekshirishlar o'tkazish, mutaxassislar ajratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolar uchun majburiydir.

Agentlik xodimlari o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaning sabab va shart-sharoitlarini o'rganish hamda tahlil qilish maqsadida davlat organlari va tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ushlab turilganlarni va qamoqqa olinganlarni saqlash joylari, jazoni ijro etish muassasalariga moneliqsiz kirishga va hujjatlar bilan tanishishga haqli.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy ravishda Agentlik bilan kelishilishi lozim.

10.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida xizmatni o'tash tartibi va shartlari

Agentlik xodimlarining tarkibi yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa sohalar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar orasidan to'ldiriladi.

Agentlikni yuqori malakali kadrlar bilan, birinchi navbatda, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amaliy ish tajribasiga ega va Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarni professional darajada bajarishga qodir shaxslar orasidan to'ldiriladi.

Agentlik faoliyati tashkil etilishini tartibga soluvchi hujjatlar paketi, shu jumladan, Agentlik tuzilmalari to'g'risida nizomlar va xodimlarining odob-axloq qoidalari ishlab chiqiladi.

Belgilab qo'yilganki:

➤ Agentlikni xodimlar bilan to'ldirish konkurs asosida xalqaro standartlarga muvofiq Agentlik tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi;

➤ Agentlikka birinchi marta ishga qabul qilinadigan xodimlar ishdan ajratilgan holda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning nazariy va amaliy masalalari, xorijiy tajriba va xalqaro standartlarni o'rganishni qamrab oluvchi maxsus o'quv dasturlari bo'yicha ta'lim oladi.

Nazorat uchun savollar

1. "Transparency International" tashkilotining "Korrupsiya indeksi"da O'zbekiston Respublikasining korrupsiya kamayish tendensiyasini izohlab bering?

2. Korrupsiya holatlariga eng ko'p yo'l qo'yilayotgan nuqtalar mahalliy davlat hokimiyati idoralari ekanligining asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?

3. Korrupsiyaga qarshi kurash agentligining asosiy vazifalari haqida aytib bering?

4. Korrupsiyaga qarshi kurashda ko‘plab yutuqlarga erishgan biror davlat va uning bu harakatlarida qo‘llanilgan usullar haqida aytib bering?

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy faoliyat yo‘nalishlari va vakolatlariga izoh bering?

11-MAVZU. SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR BO‘YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA XALQARO STANDARTLAR

Reja:

11.1. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etishning xalqaro standartlari tushunchasi va ahamiyati.

11.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining xorijiy tajribasi.

11.3. Huquqni muhofaza qilishni tashkil etishning xalqaro standartlarini O‘zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish.

11.1. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etishning xalqaro standartlari tushunchasi va ahamiyati

Huquqni muhofaza qilish organlar faoliyatini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi, chunki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, qonuniylilikni ta’minlash huquqni muhofaza qilish organlarning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Huquqni muhofaza qilish organlari deganda mamlakatda qonun ustuvorligini, jamoat tartibi va xavfsizligini, fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, buzilgan huquqlarni tiklash, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarni fosh etish, tezkor-qidiruv, ma’muriy va jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshiruvchi hamda aholiga huquqiy yordam ko’rsatuvchi, zarur

Har qaysi davlat, har bir jamiyat hayotiga aloqador biror-bir masala yo‘qki, xoh u ijtimoiy-iqtisodiy, xoh siyosiy-huquqiy sohada bo‘ladimi, xalqaro huquq bilan tartibga solinmagan bo‘lsa. Bugun xalqaro huquq, unda belgilangan tamoyillar va normalar davlatlar, mintaqalar chegaralaridan o‘tib, Xalqaro huquq qonunchiligiga nazar tashlasak, sudya, advokat, tergovchi, journalist yoki shifokor bo‘ladimi, barcha kasb egalarining sohasi bo‘yicha, hatto davlat xizmatchisi sifatida ish vaqtida va ish vaqtidan tashqari nimalarga amal qilishi zarurligi, kasb-etikasi haqida ustuvor qoidalar qabul qilingan.

Boshqacha aytganda, advokat qanday bo‘lishi kerakligi, voyaga yetmagan shaxslar huquqlari qanday tartibda himoya qilinishi lozimligi, ushlab turilgan shaxsga nimalarni tushuntirish kerakligi, sudya yoki jurnalistning xolisligi va mustaqilligi qanday ta’minlanishiga oid asosiy

mezon va qoidalar xalqaro huquqda allaqachon belgilangan bo‘lib, bugungi kunda ushbu xalqaro standartlar davlatlar qonunchiligida o‘z ifodasini topgan.

Masalan, odil sudlovga oid xalqaro standartlar xalqaro huquqda **“Miranda qoidasi”, “Bangalor prinsiplari”, “Sudyalar mavqeyi to‘g‘risida Yevropa Xartiyasi”, “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro Bill”, “Milan qoidalari”, “Yuvenal yustitsiya”, “Karakas deklaratsiyasi”, “Pekin qoidalari”, “Ar-Riyod prinsiplari”, “Bangkok deklaratsiyasi”, “Vena deklaratsiyasi”, “Insoniylik mezonlari”** deb o‘ziga xos tarzda nomlanib, ularning barchasi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning asosini tashkil etadi va sudlar faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Gap inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqda umume’tirof etilgan sudlar faoliyati bilan bevosita bog‘liq xalqaro shartnomalar haqida borarkan, bu borada quyidagi 3 ta muhim xalqaro hujjatni alohida qayd etib o‘tish lozim.

Birinchi xalqaro hujjat BMTning asosiy shartnomalaridan biri **“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”**gi xalqaro Pakt va unga 2 ta qo‘shimcha protokoldir.

Ikkinchi xalqaro hujjat **“Sud organlarining mustaqilligiga oid asosiy printsiplar to‘g‘risida”**gi Rezolyutsiya hisoblanadi.

Uchinchi xalqaro hujjat **“Sudyalarning xulq-atvoriga oid”** Bangalor prinsiplaridir.

Xo‘sh, nima uchun aynan uchta xalqaro hujjat, ushbu xalqaro shartnomalarning sudlar faoliyatida ustuvor o‘rni, o‘ziga xos jihati va ahamiyati nimada?

Avvalo shuni aytish kerakki, 167 ta davlat a‘zo **“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”**gi xalqaro Pakt BMT tomonidan hozirgi kunga qadar qabul qilingan 9 ta asosiy shartnomalardan biridir. E’tiborli jihati shundaki, mazkur xalqaro hujjatlar haqida so‘z yuritganda, hech qachon “shartnoma” deb emas, hamma vaqt “asosiy shartnoma” deb gapirishimiz zarur. Chunki, xalqaro huquqda inson huquqlari bo‘yicha yuzlab shartnomalar qabul qilingan, lekin asosiy shartnoma 9 ta. Ushbu asosiy shartnomalar, shu jumladan yuqoridagi xalqaro Pakt hozirgi zamon xalqaro huquq tizimining bosh huquqiy manbayi bo‘lib, birorta ham boshqa xalqaro hujjat zid kelishi mumkin emas va ularga muvofiq ravishda qabul qilinishi lozim. Shu bilan birga, a‘zo davlatlar o‘z hududida boshqa shartnomalar emas, balki aynan ana shu asosiy

shartnomalarning bajarilishi bo'yicha BMTga davriy hisobotlarni taqdim etib boradi.

Bundan tashqari, mazkur xalqaro hujjat hozirgi zamon inson huquqlari tarixida o'zining ahamiyati va muhimligi bilan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidagi normalar ijrosini ta'minlash hamda inson huquqlari sohasida davlatlarning so'zsiz hisobdorligi va javobgarligini belgilab bergan yagona bosh shartnomadir.

Shu ma'noda, davlat ichida Konstitutsiya qanday ustuvor yuridik kuchga ega bo'lsa, **“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”**gi xalqaro Pakt ham xalqaro hujjatlar ierarxiyasida shunday oliy yuridik maqomga ega bo'lgan fundamental xalqaro shartnoma hisoblanadi.

Ushbu Paktda sudlar faoliyatiga oid muhim, jumladan inson va fuqarolarning huquqlari ustuvorligi, shaxs daxlsizligi, barcha fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi, har bir shaxsning himoyalaniish huquqiga ega ekanligi, aybsizlik prezumpsiyasi kabi umume'tirof etilgan minimal standart qoidalari mustahkamlangan.

Jumladan, Paktning 14-moddasida barcha shaxslarning sudlar oldida tengligi, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har qanday kishi qonunga muvofiq aybi isbotlanmaguncha aybsiz deb sanalish huquqiga ega ekanligi, voyaga yetmaganlarga nisbatan sud jarayoni ularning yoshi va ularni qayta tarbiyalanishiga yordamlashish xohishi inobatga olingan holda olib borilishi kerakligi, bir jinoyat uchun ikki marta jazoga tortilishi mumkin emasligi haqida normalar belgilangan.

“Sud organlarining mustaqilligiga oid asosiy prinsiplar to'g'risida”gi Rezolyutsiya ham xalqaro huquqda sudlar faoliyati bo'yicha qabul qilingan maxsus xalqaro hujjatlardan biridir. Aytish joizki, sud hokimiyati mustaqilligi va xolisligini ta'minlash bilan bog'liq normalar ko'plab xalqaro hujjatlarda u yoki bu tarzda belgilangan. Ammo, ushbu Rezolyutsiya bugungi kunda sud va sudyalarning mustaqilligi qanday ta'minlanishi kerak degan savolga atroflicha javob bergan yagona xalqaro hujjat hisoblanib, xalqaro huquq qonunchiligida hozircha bundan boshqa xalqaro shartnoma yo'q.

Ushbu shartnomaga O'zbekiston 1997-yil 30-avgustda qo'shib, sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligini ta'minlashga qaratilgan Rezolyutsiyadagi asosiy normalar Konstitutsiya va **“Sudlar to'g'risida”**gi Qonunda o'z ifodasi topgan.

Xususan, Rezolyutsiyaning 1-bo'limida qayd etilishicha, sud organlarining mustaqilligi davlatlar tomonidan kafolatlanadi va

Konstitutsiya yoki qonunlarda mustahkamlanadi. Barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar sud organlarining mustaqilligini hurmat qilishi va unga rioya qilishi shart.

Rezolyutsiyada sud organlari faoliyatining mustaqilligi, sudyalarning almashtirilmasligi, sudyaning daxlsizligi, favqulodda sudlar tuzish taqiqlanishi hamda sudlov jarayonida tomonlarning tortishuvi va teng huquqliligi kabi prinsiplar belgilangan.

“Sudyalarning xulq-atvoriga oid” Bangalor prinsiplari jahon sud-huquq sohasida XXI asrda qabul qilingan eng asosiy, sudyaning sudya sifatida huquq va majburiyatlarini, umume’tirof etilgan kasb-etikasi qoidalarini, professional faoliyatda ishda va ishdan tashqari vaqtda nimalarga amal qilishiga oid minimal standart qoidalarini belgilab bergan yagona xalqaro hujjatdir.

Bangalor prinsiplariga muvofiq sudya uchun odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyat boshqa majburiyatlarga nisbatan ustuvor bo‘lib, o‘z vazifalarini yuqori professional darajada odilona, tezkor va vijdonan bajarishi shart.

Bangalor prinsiplarida sudyalarning faoliyati va xulq-atvoriga oid quyidagi 6 ta muhim qoida belgilangan. Bular mustaqillik, ob'ektivlik, halollik, kasb-etikasi qoidalariga rioya etish, sud majlisining barcha

Umuman aytganda, mazkur xalqaro hujjatlar jahon mamlakatlari sud-huquq islohotlari rivojiga katta hissa qo‘shib, inson huquqlarini himoya qilishda sud va sudyalarning mustaqilligini ta’minlashda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sudyaning intizomiy javobgarligi masalasi sud tizimi samaradorligini va sudyalarning mustaqilligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksariyat davlatlar sudyalarning o‘dab-axloq normalarida sudya tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lmagan xatti-harakatlar ro‘yxati keltirilgan.

Yevropa Kengashi Vazirlar qo‘mitasining 2010 yildagi (CM/Rec12) tavsiyalariga ko‘ra, qasddan yoki qo‘pol ehtiyotsizlik holatlaridan tashqari sudya ishni ko‘rish jarayonida qonun normalari, faktlar yoki dalillarni noto‘g‘ri

Intizomiy javobgarlik choralari qo'llash uchun asos bo'luvchi normalarni turlicha talqin qilishning oldini olish maqsadida esa, ba'zi Yevropa davlatlari qonunchiligida intizomiy nojo'ya xatti-harakatning qat'iy asoslari belgilangan.

Ba'zi qonunlarda uncha og'ir bo'lmagan va og'ir nojo'ya xatti-harakatlar o'rtasidagi farqlar belgilangan. Ispaniyaning «**Sud hokimiyati to'g'risida**»gi Qonuniga ko'ra, uncha og'ir bo'lmagan nojo'ya xatti-harakatlarga sudyaning o'z rahbariyatiga yoki boshqa sud xodimlariga nisbatan hurmatsizligi, ularning ko'rsatmalarini yoki topshiriqlarini bajarmasligi yoxud o'z ish joyida uzoq vaqt davomida sababsiz bo'lmasligi kiradi. Intizomiy jazo choralari qo'llashga olib keladigan og'ir nojo'ya xatti-harakatlar jumlasiga, Konstitutsiya qoidalarini buzish, manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda ishni ko'rishdan o'z xohishiga ko'ra voz kechmaslik, sudyalik obro'siga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlarni sodir etish, protsessual muddatlarga rioya qilmaslik, o'z vakolatini suiiste'mol qilish, maxfiy ma'lumotlarni yoki kasbiy sirni oshkor qilish kabilar kiradi. O'ta og'ir nojo'ya xatti-harakatlarga Ispaniya Konstitutsiyasiga rioya qilmaslik, agar bunday huquqbuzarlik sud qarori bilan yakuniy tarzda mustahkamlangan bo'lsa, siyosiy partiyalar yoki kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish orqali olingan majburiyatni bajarish yoki xizmat qilish, o'zining sudyalik funksiyasini bajarishda boshqa sudya yoki magistratga buyruq berish yoki bosim o'tkazish orqali asoslantirilmagan aralashish sodir etish, ishni ko'rishda ishtirok etishga xalaqit beradigan qandaydir yuridik holatlar ta'sirida qolish unga oldindan ma'lum bo'lsa-da, sudya yoki magistr ishni ko'rishdan voz kechmasa, ishni ko'rishni asossiz yoki takroriy ravishda cho'zish, ishni qo'zg'ash, yuritish yoki uning doirasida qaror qabul qilish, boshqa har qanday sud vazifalarini bajarish zaruratini inkor qilish va boshqalar mansubdir.

Aytish joizki, ba'zi intizomiy javobgarlikka tortish uchun asoslarning mavhumligi, masalan, sudyaga nisbatan intizomiy jazo choralari «siyosiy faoliyat», «noloyiq munosabat» yoki «noprofessional axloq» kabi umumiy tushunchalardan kelib chiqib qo'llash muqarrar ravishda sudyalarning mustaqilligining buzilishiga olib keladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sudyaning odob-axloq qoidalari aniq va yetarlicha tushunarli tarzda ifodalangan bo'lishiga qaramasdan,

intizomiy jazo choralari faqat sudya tomonidan qasddan yoki qo‘pol ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yilgandagina qo‘llanilishi kerak.

Sudyalarga nisbatan intizomiy javobgarlik ishlarini yuritish vaqtida inson huquqlarining asosiy prinsiplari kafolatlanishi lozim.

Intizomiy javobgarlikka olib keladigan nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etishda shubhalanayotgan sudyalar ham kafolatlangan huquqlarga ega.

Avvalo, sudya o‘ziga nisbatan rasman xizmat tekshiruvi ishlari boshlanganligi to‘g‘risida xabardor qilinishi lozim. Shikoyat asoslantirilmagan hamda keyingi bosqichlarda shikoyatdan voz kechilgan bo‘lsa, sudyaga nisbatan kelib tushgan har qanday shikoyat to‘g‘risida sudyani zudlik bilan xabardor qilish shart emas.

Sud hokimiyati masalalari bo‘yicha Yevropa tarmog‘i kengashining (ENCJ) Minimal sud standartlarida kelib tushgan shikoyatni ko‘rishning dastlabki bosqichida sudyani zudlik bilan xabardor qilmaslikning asoslari ham mavjud. Jumladan, «sudyani zaruratsiz bezovta qilmaslik, uning xolisligi va mustaqilligini xavf ostiga qo‘ymaslik hamda jamoatchilik oldida obro‘-e‘tiborini tushirmaslik» bilan bog‘liq qoidalar belgilangan. Biroq, shikoyat keyingi taftish uchun qabul qilingan zahoti sudya bu to‘g‘risida xabardor qilinishi kerak. Zotan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro paktning 14-moddasiga muvofiq, barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir. Har bir kishi unga qo‘yilayotgan har qanday jinoiy ayblov ko‘rib chiqilayotganda yoki biron-bir fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida qonunga muvofiq tuzilgan nufuzli, mustaqil va xolis sud tomonidan mazkur ish adolatli hamda ochiq holda ko‘rib chiqilishi huquqiga ega.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasida sudga keltirilgan shaxslar ishlarining adolatli va ommaviy muhokamasini ta‘minlash uchun qonun asosida tuzilgan mustaqil va xolis sud bo‘lishi lozimligi ta‘kidlangan. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining xulosasiga ko‘ra, sudyalarga nisbatan intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ish odil sudlov muhokamasi to‘g‘risidagi Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasi hamda ishning holatiga bog‘liq bo‘lgan tegishli milliy qonunchilik ta‘siri ostida bo‘ladi.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining 2001-yil 8-fevraldagi qaroriga asosan, sudyalar korpusi fuqarolik xizmatining tarkibiga

kirmasa-da, davlat xizmatining bir qismidir. Shu bois, sudya odil sudlovni yuritish sohasida o'ziga berilgan vakolatlarni amalga oshirishda bevosita qatnashadi va davlat manfaatlarini himoya qilish majburiyatiga ega.

Sudyaga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atish tizimida uning fikr-mulohaza bildirishiga imkon beruvchi normalar bo'lishi kerak. Agar intizomiy chora qo'llanilayotgan sudya ishning ochiq ko'rilishini talab qilmasa, dastlabki bosqichda ish yopiq ko'rilishi kerak.

Nazarimizda, intizomiy nojo'ya xatti-harakatlarga oid ishlarni yopiq tarzda ko'rib chiqish uchun asos bo'luvchi holatlarni ham nazarda tutish lozim.

Davlatning milliy xavfsizligi, ommaviy tartibi, voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi masalalar shular jumlasidandir.

Ishda ishtirok etuvchilarning shaxsiy hayotini himoya qilish maqsadida yoki alohida holatlarda, intizomiy ishni ochiq ko'rish odil sudlovning manfaatlariga putur yetkazishi mumkin deb topilishi mumkin. Masalan, Yevropada bunday holatlarda ijtimoiy nazorat muhimligini e'tiborga olib, ishlarni yopiq tarzda olib borish uchun asoslar taqdim qilmaslik Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining qoidalari buzilishiga olib kelishi mumkin.

2009 yil 5 fevraldagi Xorvatiyaga qarshi Olujichning shikoyati yuzasidan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining qarorida shikoyatchining mazkur ishni ommaviy, ochiq ko'rish talabi va ishga nisbatan jamoatchilikning qiziqishi sezilarli darajada yuqori bo'lganiga qaramasdan, sud muhokamasida jamoatchilikning qatnashishi asossiz ravishda bekor qilinishi shikoyatchining huquqlari buzilishiga sabab bo'lganligi qayd etilgan. Intizomiy ish qo'zg'atish jarayoni ochiq yoki yopiq bo'lishidan qat'i nazar, ishni ko'rish yakuni bo'yicha qabul qilingan qarorlar matbuotda e'lon qilinishi shart.

Ayrim davlatlarning (masalan, Avstriya va Bolgariya) intizomiy javobgarlik ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunlariga ko'ra, intizomiy javobgarlik ishlarini ko'rish tartiblari sud muhokamalarini o'z ichiga olishi va ular jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ba'zi qonunlarda intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorlar matbuotda e'lon qilinishi shartligi ko'rsatilgan.

Aksariyat davlatlarda intizomiy javobgarlikka tortish tartibini adolatli va tezkor o'tkazishni ta'minlash maqsadida sudyalari ustidan

shikoyat berishning muddati nazarda tutilgan. Bolgariyaning «**Sud tizimlari to‘g‘risida**»gi Qonunining 310-moddasiga muvofiq, intizomiy javobgarlik ishini qilmish aniqlangan kundan boshlab olti oy ichida va u sodir qilingan kundan boshlab uch yildan kechiktirmasdan qo‘zg‘atish mumkin.

Xorvatiyaning «**Davlat sud kengashi to‘g‘risida**»gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi ish gumon qilingan qilmish aniqlangandan keyin olti oy ichida yoki u sodir etilgan kundan ikki yildan kechiktirmasdan qo‘zg‘atiladi.

Odatda, intizomiy javobgarlik ishini yuritishning barcha bosqichlari uchun muddat chegarasini belgilash nazarda tutiladi, shu jumladan, taftishni tugatish, yakuniy qarorni chiqarish, intizomiy jazo chorasini ish bo‘yicha qaror qabul qilingandan keyin zudlik bilan hech qanday asossiz kechiktirmasdan qo‘llash lozim.

Bu boradagi muddat Bolgariyaning «**Sud tizimlari to‘g‘risida**»gi Qonunining 310-moddasida uch oy, Xorvatiyaning «**Davlat sud kengashi to‘g‘risida**»gi Qonunining 24-moddasida bir yil, Ispaniyaning «**Sud tizimlari to‘g‘risida**»gi Qonunining 425-moddasida uzaytirish imkoniyati bilan olti oy etib belgilangan.

Muddatlar faqat istisno holatlardagina, masalan, taftish murakkab bo‘lsa, sudya kasal bo‘lsa yoki jinoiy tergov harakatlari uzoq davom etsa yoki jinoiy ish yuritish natijalari intizomiy javobgarlik bo‘yicha ishni taftish qilishga bog‘liq bo‘lsa, uzaytirilishi mumkin.

Taraflarning tengligi prinsipidan kelib chiqib, intizomiy javobgarlikka oid nojo‘ya xatti-harakatni sodir qilganlikda ayblangan sudyaga o‘z ishi bo‘yicha ko‘rsatma va dalillarni taqdim etish imkoniyati berilishi kerak.

11.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining xorijiy tajribasi

Rossiya Federatsiyasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga 6 ta davlat organlari kiradi. Xususan: prokuratura, ichki ishlar organlari, federal xavfsizlik xizmati, bojxona organlari, Tergov qo‘mitasi va adliya organlari kiradi.

Prokuratura organlari tergov faoliyati bilan shug‘ullanmaydi. Dastlabki tergovni faqat RF Tergov qo‘mitasi, IIV Tergov qo‘mitasi va FXX tergovchilari olib borishi mumkin. Prokuratura ular faoliyatida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

RF adliya organlarining mamlakatimiz adliya organlaridan farqi shundaki, uning tarkibiga sud pristavlari (ijrochilari) federal xizmati kiradi va adliya vaziri bir vaqtning o'zida RF Bosh sud pristavi hisoblanadi. 1997-yil 21-iyulda qabul qilingan **“Sud pristavlari to'g'risida”**gi Qonunga ko'ra sud pristavlari xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Jazoni ijro etish federal xizmati (jinoiy jazolarning ijrosi bilan shug'ullanadi) ham bevosita Adliya vazirligi tarkibiga kiradi. Bundan oldin mazkur tuzilma Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi boshqarma bo'lgan.

Ukraina davlatining **“Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining davlat himoyasi to'g'risida”**gi Qonuni 2-moddasida huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimiga 15 ta davlat organlari kirishi ko'rsatib o'tilgan. Ukraina Penitentsiar xizmati jazolarni ijro etish xizmati hisoblanib, Adliya vazirligi tarkibiga kiruvchi organ hisoblanadi.

Qozog'iston Respublikasining 2011-yil 6-yanvarda qabul qilingan **“Huquqni muhofaza qiluvchi xizmatlar to'g'risida”**gi QRQ-380-IV-son qonunning 3-moddasiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga 4 ta davlat organlari kiradi. Bular: prokuratura, ichki ishlar organlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Iqtisodiy tergov xizmati organidan iborat.

Amerika Qo'shma Shtatlarida prokuratura funksiyasini Atorneylar xizmati bajaradi. U alohida ikkita tizimga bo'linadi: federal va shtatlar darajasida. Atorneylar xizmati ijro etuvchi hokimiyatning bir qismi bo'ladi. Federal attorneturaga Bosh attorney rahbarlik qiladi, u bir vaqtning o'zida AQSh adliya vaziri hisoblanadi. AQSh Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va Kongress Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Adliya vazirligi tizimida solisitorlar xizmati, marshallar (sud qarorlarini ijro etish politsiyasi) mavjud. Shuningdek federal turmalar va boshqa ozodlikdan mahrum qilish joylari ham Adliya vazirligi tizimiga kiradi.

Har bir shtatda o'zining attorneturasi mavjud. Ularga bosh attorney rahbarlik qiladi. Ko'plab shtatlarda attorneylar gubernatorlar tomonidan tayinlansa, ba'zilarida aholi tomonidan umumiy saylovlarda saylanadi.

Federal attornetura jinoyat ishlari, fuqarolik huquqlarining buzilishi, soliq, tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, trestlarga

qarshi kurashishga doir qonunchilikning buzilishiga doir ishlarda ayblovni amalga oshiradi.

Adliya departamenti huzurida Federal tergov byurosi tashkil etilgan. Attornetura barcha ishlarning tergov yuzasidan rahbarlikni amalga oshiradi va bu borada katta vakolatlarga ega. Bosh attorney va okrug attorneylari jinoyat ishini istalgan bosqichda to'xtatib qo'yishi mumkin.

Germaniya davlatida 6 ta organi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga kiradi. Bular: prokuratura organlari, federal politsiya, chegaralarni qo'riqlash federal xizmati, Bundestag politsiyasi xizmati, Federal kriminal xizmat va hududlarda Yer politsiyalari xizmat olib boradi.

Prokuratura faoliyati **“Sud tuzilishi to'g'risida”**gi Qonun, **“Prokuraturaning tashkiliy tuzilishi to'g'risida”**gi Nizom bilan tartibga solinadi va Adliya vazirligi tarkibiga kiruvchi organ hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada kontinental Yevropadan farqli ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yagona tizimi shakllanmagan. Tizim mamlakat qismlariga qarab belgilangan. Misol uchun, Angliya va Uelsda politsiya faoliyati 1964 yilda qabul qilingan **“Politsiya to'g'risida”**gi Qonun (Police Act) bilan tartibga solinsa, xuddi shu nomda 1967 yilda Shotlandiya, 2000 yilda Shimoliya Irlandiyada qabul qilingan qonunlar bilan tartibga solinadi. Politsiya faoliyatiga rahbarlikni bosh konstabl (chief constable) amalga oshiradi. Bundan tashqari, mustaqil konstabllar ham bo'lib, ular mahalliy politsiyaga bo'ysunmaydi. O'zbekiston tajribasida olib qaraladigan bo'lsa, ular profilaktika inspektorlari vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, ularning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonunlar ham mavjud. 2005 yilda qabul qilingan **“Politsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risida”**gi Qonun, 2006 yilda qabul qilingan **“Politsiya, jamoat tartibi va jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov to'g'risida”**gi Qonun (Shotlandiya), 2006 yilda qabul qilingan **“Politsiya va odil sudlov to'g'risida”**gi Qonun kabi qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi holatni o'rganish natijalari yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirish taklif etiladi.

Tergov organlari faoliyatini tashqi ta'sirlardan xoli qilish, tergov faoliyatida xolislik va qonuniylikni yanada ta'minlash maqsadida AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Avstriya kabi davlatlarning ilg'or tajribasini inobatga olgan holda Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti negizida boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan mustaqil bo'lgan alohida tergov organi taklif etiladi. Bu tergov faoliyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergov asosan Ichki ishlar vazirligining surishtiruvchi va tergovchilari tomonidan amalga oshiriladi. O'ziga tegishli bo'linma tomonidan tergov qilingan ish bo'yicha aybdor deb topilgan shaxsga tayinlangan jazoning ijro etilishini ham shu organ amalga oshirishi maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari, jazolarni ijro etish faoliyatini amalga oshirish "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning 2 va 4-moddalarida belgilangan ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari hamda yo'nalishlariga mos kelmaydi.

Shu sababli hozirda Ichki ishlar vazirligi tarkibida bo'lgan Jazoni ijro etish bosh boshqarmasini AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda Adliya vazirligi tizimiga o'tkazish taklif etiladi.

Prokuraturaning qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ ekanligini inobatga olgan holda uning huzurida tashkil etilgan hamda belgilangan maqsad va vazifalariga muvofiq bo'lmagan vazifalar bilan shug'ullanuvchi Majburiy ijro byurosini prokuratura organlari tizimidan chiqarish taklif etiladi. Bunda Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosini AQSh, Rossiya kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda Adliya vazirligi tizimiga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xorijiy davlatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda, mazkur takliflar huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirishga hamda mazkur organlar faoliyatining rivojlanishiga va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

11.3. Huquqni muhofaza qilishni tashkil etishning xalqaro standartlarini O‘zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish

Ayblovcilar o‘zlarining kasbiy vazifalarini halol va xolis amalga oshirishi, bunda siyosiy, ijtimoiy, diniy, irqiy, madaniy asoslar, jinsiy moyilliklar va har qanday boshqa belgilarga ko‘ra kamsitilishi imkoniyatiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ayblovchi tomonidan o‘z vazifalarining kerakli tarzda amalga oshirilishi uchun unga to‘liq avtonomiya va davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlaridan mustaqillik talab qilinadi. Sudyalarga qo‘yiladigan talablarga nisbatan xalqaro huquqda prokurorlarning institutsional mustaqilligini kafolatlovchi me‘yorlar ko‘zda tutilmagan, chunki ayrim tizimlarda prokurorlar ijroiya hokimiyati tomonidan tayinlanadi, yoki ma‘lum darajada uning oldida hisobdor bo‘ladi. Bu esa ularning zimmasiga vakillik davlat hokimiyati chiqargan u yoki bu buyruqlarni bajarishga majbur qiladi. Davlat ayblovc organining mustaqilligi ijroiya hokimiyatiga hisob beradigan organga nisbatan afzalroq, ammo har qanday holatda davlat prokurorlarga tergovni halol va xolis ko‘rib chiqishi uchun kafolatlar berishi kerak.

Ayblovchining vakolatlari sud vazifalaridan qat‘iyan ajratilib qo‘yilishi kerak. O‘zlarining kasbiy vazifalarini bajarishda prokurorlar ta‘ziyqlarga va zo‘ravonliklarga duch kelmasligi kerak, shuningdek to‘sqinlik ko‘rsa tish va qonunsiz aralashuvlardan, hamda asossiz fuqarolik, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod bo‘lishlari kerak. Ayblovcilar tegishli bilim va malakaga ega bo‘lishi lozim, ular o‘z vakolatlariga kiruvchi ideallar va ahloqiy me‘yorlarni aniq tushunishi va bilishi kerak, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jabrlanuvchilar huquqlarini himoyalash vositalari, shuningdek, milliy va xalqaro huquq tomonidan tan olingan inson huquqlari va erkinliklari dan xabardor bo‘lishi kerak.

Prokurorlar jinoiy protsessda, shu jumladan, jinoyat protsessini qo‘zg‘ashda, jinoyatlar bo‘yicha tergov o‘tkazishda, tergovning qonuniyligini nazorat qilishda, sud qarorlarining bajarilishini nazorat qilishda faol rol o‘ynashi, qonunda ko‘zda tutilgan yoki amaliyotda ishlab chiqilgan holatlarda jamoatchilik manfaatlarini vakili sifatida boshqa vazifalarni amalga oshirishi kerak.

Ayblovcilar, qonunga muvofiq, o‘z vazifalarini xolis, izchil va tezkor bajarishi, inson qadr-qimmatini va huquqlarini himoyalashi, shu tarzda, odil sudlov amalga oshirilishiga xamda jinoiy sudlov tizimi

normal faoliyat ko'rsatishiga o'z hissasini qo'shish kerak. O'z xizmat vazifalarini bajarishda ayblovchi quyidagilarga amal qilishi kerak:

➤ o'z vazifalarini halol bajarishi va har qanday kamsitishdan: siyosiy, ijtimoiy, etnik, diniy, madaniy, jinsiy yoki har qanday boshqa turdagi kamsitishdan saqlanishi kerak;

➤ xolis xatti-harakat yuritgan, gumon qilinuvchi va jabrlanuvchi nuqtai nazarini e'tiborga olgan holda jamoatchilik manfaatlarini himoyalashi, shuningdek, ularning gumon qilinuvchi shaxs uchun foydalimi yoki foydali emasligidan qat'iy nazar ishning barcha holatlariga e'tibor qaratishi kerak;

➤ ish materiallarini qat'iy sir saqlashi kerak, lavozim majburiyatlari yoki odil sudlov manfaatlarini boshqa yo'lni talab qilgan holatlar bundan mustasno;

➤ ularning shaxsiy manfaatlariga daxldor bo'lgan holatlarda jabrlanuvchining fikrlarini e'tiborga olish va jabrlanuvchilar o'z huquqlaridan xabardor bo'lishini kafolatlashi lozim.

Xolis tergov ayblovlarining asossizligini aniqlagan taqdirda, prokurorlar jinoiy ta'qibni boshlamasligi yoki davom ettirmasligi kerak, shuningdek bunday ta'qibni to'xtatish uchun barcha choralarni ko'rishi lozim.

Ayblovchi davlat hokimiyati vakillari tomonidan sodir qilingan jinoyatlar uchun jinoiy ta'qib holatlariga, xususan, poraxo'rlik, xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlariga yetarli e'tibor qaratishi lozim. Prokurorlar tomonidan tegishli ma'lumotlar olingan hollarda yoki gumon qilinuvchi shaxsga nisbatan aybini isbotlovchi dalillar noqonuniy usullar yordamida olinganligi bo'yicha jiddiy asoslar mavjud bo'lgan hollarda, ayniqsa, qiynoqlarga yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki uning qadrqiymatini kamsituvchi muomalaga yoki jazolash hollarga yo'l qo'yilganda, ular har qanday shaxsga nisbatan bunday dalillardan foydalanishdan voz kechishi, bunday usullardan foydalangan shaxslarga qarshi holatlar bundan mustasno, yoki bu haqda tegishli sud organiga xabar qilishi, shuningdek, bunday usullardan foydalangan shaxslarni javobgarlikka tortish uchun barcha zarur choralarni ko'rishi kerak.

Himoyachi, uning iltimosnomalari, shikoyatlari shunchaki ish materiallariga qo'shilishiga emas, balki tergovchi va prokuror tomonidan jiddiy o'rganilishi va qanoatlantirilishi uchun barcha choralarni ko'rishi kerak. Agarda prokuror himoya vajrlarini e'tiborsiz qoldirsa, jinoyat ishini sudga ko'rish uchun tayinlash masalasini hal

qilish bosqichida, O‘zR JPKning 396-moddasiga amal qilgan holda, ish mazkur sudning sudloviga tegishligi, ishni davom ettirishga asoslar mavjudligi, tergov jarayonida JPK talablariga rioya qilinganligi, ehtiyot chorasi to‘g‘ri tanlanganligi va ushbu moddada ko‘zda tutilgan boshqa masalalarni aniqlash lozimligi to‘g‘risida iltimosnoma bilan murojaat qilishi kerak.

Yuqorida sanab o‘tilgan masalalarning har biri muhim ahamiyatga ega, va himoya o‘zining iltimosnomasida yoki shikoyatida sud tomonidan u yoki bu qarorning qabul qilinishi zarurligi to‘g‘risidagi asoslarini keltirishi mumkin. JPKning 397–401-moddalarida sud tomonidan har bir holat bo‘yicha qaror qabul qilish tartibi ko‘zda tutilgan, va himoyachi himoya uchun barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish zarur.

Prokuror tomonidan protsessual hujjatlar mazmunan ko‘rib chiqilgani, yoki rasmiyatchilik uchun javoblar yo‘llangani, masalan «jinoiy ish sudga berilgani tufayli iltimosnoma yoki shikoyat ko‘rib chiqqa olinmaydi», qabidagi javoblardan qat’iy nazar, barcha holatlarda bunday murojaatlar zarur. Himoya vajrlarini birinchi instantsiya yoki apellyatsiya instansiyasi sudlariga taqdim etish, bunda dastlabki tergov va sud jaryonida qanday protsessual xatolarga yo‘l qo‘yilgani ko‘rsatilishi kerak. Zero, bu barcha ichki himoya vositalaridan foydalanilganini isbotlaydi va xabarning BMTning Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. “Sud organlarining mustaqilligiga oid asosiy prinsiplar to‘g‘risida”gi Rezolyusiya haqida nimalarni bilasiz?
2. “Sudyalarning xulq-atvoriga oid” Bangalor prinsiplarining mazmun mohiyati to‘g‘risida so‘zlab bering?
3. Advokatura faoliyatini tashkil etishning xalqaro standartlari tushunchasi va ahamiyatiga izoh bering?
4. Bangalor prinsiplariga ko‘ra sudyalar faoliyati va xulq-atvoriga oid belgilangan 6 ta muhim qoida haqida aytib bering?
5. BMTning asosiy shartnomalaridan biri “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro Pakt va unga 2 ta qo‘shimcha protokolning asosiy mazmunini aytib bering?

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Normativ-huquqiy hujjatlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2021-y. O‘RQ-682-sonli “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 28.07.2021-y. O‘RQ-703-sonli “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining 31.05.2017-y. O‘RQ-431-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 06.04.2017-y. O‘RQ-427-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 29.08.2001-y. 257-II-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 16.09.2016-y. O‘RQ-407-sonli “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 05.04.2018-y. O‘RQ-471-sonli “Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasining 18.11.2020-y. O‘RQ-647-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida” Qonuni.
11. O‘zbekiston Respublikasining 18.10.2018-y. O‘RQ-502-sonli “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida” Qonuni.
12. O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1997-y. O‘RQ-474-I-sonli “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2020-y. PF-5997-sonli “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2020-y. PF-6005-sonli “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston

Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019-y. PF-5729-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020-y. PQ-4761-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

17.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.04.2019-y. 320-sonli “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

18.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.07.2019-y. 555-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmatining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

Asosiy adabiyotlar

1.Mirenskiy B.A., Rahmonqulov A.X., Chinibayev H.J. O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari. Darslik / Mas’ul muharrir prof. M. M. Fayziyev. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 219 b.

2.Rustambayev M.H., Tuxtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. (Ikki jildli. 1-jild). – T.: “Ilm Ziyo”, 2011.

3.Rustamboyev M.H., Nikiforova Ye.N. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: “Turon-Iqbol”, 2007.

4.Rustamboyev M.H., Tuxtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: “Ilm Ziyo”, 2012.

5.Prokuror nazorati. Darslik. D.Xabibullayev, F.Samig‘jonov, A.Matmuratov, D.Nurumov, B.Xamidov, D.Egamberdiyev, O.Narzullayev, F.Ibratova, G.Mamaraimova. Darslik. –T.: TDYuU, 2019.

6.Xalqaro jinoyat huquqi // Umarxanova D., Ochilov H. –T.: TDYuU, 2019. – B. 154-193.

7.Xalqaro tashkilotlar huquqi // Yuldasheva G., Umarxanova D., Ochilov X., Gafurova N., Maxamatov M., Sobirov B. –T.: TDYuU, 2019. – B. 60-182.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.tsul.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.norma.uz>
4. <http://www.public.sud.uz>
5. <http://www.gov.uz>
6. <http://www.lawbook.ru>
7. <http://www.lawlibrary.ru>

GLOSSARIY

ARIZA – fuqarolarning o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimosi bayon etilgan murojaati.

ATTESTATSIYA – xizmatchilarning professional, ishchanlik va shaxsiy xislatlariga baho berish, uning xizmat-lavozim talablariga mos kelishini tekshirish.

BOSHQARUV USLUBI – davlat boshqaruvi faoliyatining maqsadlariga erishish, vazifalarini bajarish va funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan huquqiy vositalar.

BOSHQARUV FUNKSIYALARI – boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan aniq yo‘naltirilgan ta’siri.

BOSHQARUV HUQUQIY AKTLARI – ijro hokimiyati subyektlarining bir tomonlama hokimiyat ko‘rsatmalarini ifodalash, yuridik oqibatlarni vujudga keltirishni nazarda tutuvchi va bajarilishi majburiy bo‘lgan aktlar.

BUYRUQ – ma’muriy huquqda yakkaboshchilikka asoslangan huquqiy hujjat; muayyan tashkilot oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo‘llaniladi.

VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI – Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlari.

VAZIRLAR MAHKAMASINING FARMOYISHLARI – Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo‘yicha qarorlari.

VAZIRLIK – ijro hokimiyati tizimining asosiy organlaridan biri; belgilangan sohada davlat siyosatini va boshqaruvini amalga oshiruvchi, mazkur sohadagi ijro etuvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ.

VAKOLAT BERUVCHI MA’MURIY-HUQUQIY NORMALAR – davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilariga yuridik hokimiyat ko‘rsatmalari doirasida o‘z ixtiyori bo‘yicha harakat qilish imkoniyatini beruvchi normalar.

VERTIKAL MA’MURIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR – ma’muriy-huquqiy tartibga solishning mohiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvi faoliyatiga xos bo‘lgan boshqaruv subyeksi va obyekti o‘rtasidagi subordinatsiyaviy aloqalar.

GORIZONTAL MA'MURIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

– bir tomonning ikkinchi tomonga nisbatan yuridik-hokimiyat irodasining ustunligi mavjud bo‘lmagan munosabatlar; tomonlarning bir xildagi huquqiy darajaga ega ekanligi; bir tomonning ikkinchi tomonga qaratilgan yuridik-hokimiyat irodasining bo‘lmasligi.

DAVLAT BOSHQARUVI (tashkiliy nuqtai nazardan) – boshqaruv subyekti (davlat, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar)ning boshqaruv obyekti (jamiyat, fuqarolar)ga nisbatan hokimiyat ta’siri; qonun asosida va uni amalga oshirish maqsadida turli sohalarda (ijtimoiy-madaniy, xo‘jalik va ma’muriy-siyosiy qurilish) davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlarining maqsadga muvofiq tashkil etilgan, qonunosti, ijrochilik-farmoyish berish va tartibga solishga qaratilgan faoliyati.

DAVLAT INTIZOMI – boshqaruv jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlar faoliyatini tashkil etish va ularning hamkorlikda harakat qilishini belgilab beruvchi asosiy vositalardan biri.

DAVLAT MEXANIZMI – davlat organlari va boshqa tashkilotlarining davlat hokimiyatini, vazifa va funksiyalarini amalga oshirishning yaxlit iyerarxik, ya’ni bo‘ysinuvga asoslangan tizimi.

DAVLAT ORGANLARI – davlat funksiyalarini amalga oshiradigan va hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan davlat mexanizmining bo‘g‘ini.

DAVLAT TASHKILOTI – o‘zining boshqaruv organlariga hamda o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan ma’lum bir xodimlar jamoasi.

DAVLAT XIZMATI (ijtimoiy ma’noda) – ijtimoiy kategoriya, davlat tashkilotida ma’lum bir lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan davlatning ko‘rsatmasiga ko‘ra ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish.

DAVLAT XIZMATI (siyosiy ma’noda) – davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat; davlatning maqsad va vazifalariga barcha ishlab chiqilgan siyosiy kuch orqali erishish; jamiyatdagi muvozanatning asosiy ko‘rinishi.

DAVLAT XIZMATI (huquqiy ma’noda) – davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy o‘rnatish; mansab majburiyatlari, xizmatchilarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishini ta’minlash.

DAVLAT XIZMATI FUNKSIYALARI – davlat xizmati instituti huquqiy normalarini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishi; davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy tartibga solish maqsadiga erishish hamda davlat xizmatining ijtimoiy va davlat-huquqiy rolini bajarish.

DAVLAT XIZMATCHISI – davlat ma‘muriyati apparatida bevosita yoki bilvosita ma‘lum bir haq evaziga domiy yoki vaqtincha xizmat majburiyatlarini amalga oshiruvchi shaxs.

DAVLAT YURISDIKSIYASI – sud va ma‘muriy organlarining o‘z vakolatlaridan kelib chiqib ishlarni ko‘rib chiqish va hal etish huquqi.

DAVLAT QO‘MITASI – ijro hokimiyatining markaziy organlaridan biri; kollegiallik asosida tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiruvchi va faoliyatning ma‘lum bir sohasida tartibga solish vazifasini bajaruvchi organ.

YOZMA BUYRUQ, KO‘RSATMA – huquq normaida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatni amalga oshirish, ya‘ni boshqacha emas, balki aynan shunday harakat qilish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuridik majburiyatni zimmaga yuklash.

JAMOA SUBYEKTLARI – turli ko‘rinishdagi davlat va nodavlat tashkilotlari.

JAMOAT BIRLASHMASI – o‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va xayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma.

JARAYON – qandaydir holatlarning, hodisalarning ketma-ketlikda almashinuvi, nimaningdir rivojlanishi.

JARIMA – ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirish.

IDORALAR – vazirlik yoki davlat qo‘mitasi hisoblanmagan, ijro etish va (yoki) farmoyish berish funksiyalari, shuningdek, umumiy majburiy tusdagi normativ hujjatlarni qabul qilish huquqi berilgan boshkaruvning umumdavlat organlari yoxud maxsus vakolatli boshqaruv organlari (agentliklar, komissiyalar, markazlar, boshqarmalar va boshqalar).

IJRO HOKIMIYATI – abstrak siyosiy-huquqiy kategoriya; davlat hokimiyati mavjudligini ko‘rsatadi; qonunlarni va uning normalarini hayotga tadbiq qilish maqsadida amalga oshiriladi, davlat

organlarining doimiy funksiyalanishini, insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlaydi.

IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI – davlat ijro hokimiyatining bir bo'g'ini, davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan hamda davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot; qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan, boshqaruv harakatlarining maxsus shakl va uslublaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan tashkilot.

IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMI – ijro hokimiyati organlarining yig'indisi va ular o'rtasida kompetensiyani taqsimlash asosida o'zaro munosabatlarning tizimi.

IJTIMOY BOSHQARUV – ijtimoiy aloqalarni tashkil etish; ijtimoiy hayotga yoki uning ko'p yoxud ayrim sohalariga ta'sir etish, ijtimoiy ishlarni boshqarish.

INDIVIDUAL SUBYEKTLAR – fuqarolar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

INTIZOMIY JAVOBGARLIK – intizomiy hokimiyat subyektlari tomonidan ularga bo'ysingan shaxslarga nisbatan ularning intizomiy huquqbuzarliklari uchun intizomiy jazo choralarini qo'llash.

INTIZOMIY ISHLARNI YURITISH – intizomiy javobgarlikni qo'llash bo'yicha tegishli subyektlarning huquq normalari bilan tartibga solingan faoliyati.

INTIZOMIY NOJO'YA XATTI-HARAKAT – jamiyatga qarshi qaratilgan, ma'lum bir ijtimoiy zararni keltirib chiqaradigan, aybli qilmish (harakat yoki harakatsizlik).

INTIZOMIY-HUQUQIY MAJBURLOV – ijro va farmoyish berish faoliyatida intizomiy hokimiyat subyektlari tomonidan, huquq normalariga asoslangan holda, bo'ysinuvchi shaxslarga nisbatan intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar sodir etganligi uchun qo'llaniladigan davlat majburlovi.

ICHKI DAVLAT BOSHQARUVI – ijro hokimiyati organlari tomonidan mazkur organlar tizimini tashkil etish va faoliyat yuritishining huquqiy tartibotini ta'minlashi.

ISHONTIRISH – davlat boshqaruvini amalga oshirishning asosiy uslublaridan biri; shaxslarning namunali irodasini shakllantirish yoki

qayta shakllantirish maqsadida turli xildagi tushuntirish, tarbiyalash, tashkil etish ishlarini olib borish.

KARANTIN – davlat tomonidan mamlakatga yuqumli epidemik kasalliklar va qishloq xo‘jalik zararkunandalarini olib kirishga barham berish bo‘yicha sanitariya chora-tadbirlari.

KASABA UYUSHMALARI – ko‘ngilli jamoat tashkiloti bo‘lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o‘z a‘zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog‘langan mehnatkashlarni birlashtiradi.

KOMPETENSIYA – davlat organining vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javobgarligining tizimi.

KONTROL QILISH FUNKSIYASI – davlat boshqaruvi tizimi va uning tuzilishining o‘rnatilgan standart va normalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini o‘rnatish, davlat organlari faoliyatini va ayrim boshqaruv subyektlari harakatining natijalarini, davlat boshqaruvida belgilangan va amalga oshirilgan holatlarni o‘rganish va baholash.

LITSENZIYA – litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq).

LITSENZIYALASH – litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi.

MAJBURIYAT YUKLOVCHI MA‘MURIY-HUQUQIY NORMALAR – norma gipotezasida nazarda tutilgan sharoitlar mavjud bo‘lgan hollarda, muayyan harakatlarni albatta amalga oshirish lozim bo‘lgan yuridik hokimiyat ko‘rsatmalari.

MAJBURLOV – bo‘ysinuvchi subyektning irodasini rad etish va uning xulq-atvoriga tashqi ta‘sir ko‘rsatish.

MAN ETISH, TAQIQLASH – amalda bu ham ko‘rsatma, ammo u teskari, ya‘ni huquq normaida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatlarni amalga oshirmaslik bo‘yicha yuridik majburiyatni zimmaga yuklash.

MANSABDOR SHAXS – mulk shaklidan qat‘i nazar korxona, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan hamda rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat vazifalari yoki

moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan shaxs.

MAXSUS BOSHQARUV – ma'lum bir sohalarga va tarmoqlarda amalga oshiriladigan boshqaruv.

MAXSUS NORMALAR – aholining muayyan guruhiga yoki aniq belgilangan doiradagi subyektlarga taalluqli bo'lgan normalar.

MODDIY JAVOBGARLIK – qayta tiklash xususiyatidagi sanksiyalarni qo'llash, yetkazilgan mulkiy zararni qoplash.

MODDIY MA'MURIY-HUQUQIY NORMALAR – davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hajmi va mazmunini, javobgarligini belgilovchi normalar.

MODDIY-TEXNIK HARAkatLAR – davlat faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan va ish yuritish, ro'yxatga olish, rasmiylashtirish, hujjatlar, ma'lumotlar, materiallarni ko'paytirish va yuborish, axborotlar bilan ishlash, analitik hisobni yuritish, moddiy-texnik ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv faoliyatining shakllari.

MUASSASA – bu ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tushdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan tashkilot.

MUVOFIQLASHTIRISH FUNKSIYASI – turli davlat boshqaruvi organlari (davlat xizmatchilari) faoliyatini davlat boshqaruvining umumiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun yo'naltirish.

MUQOBIL TEKSHIRISH – operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'liq bo'lgan va turli xo'jalik yurituvchi subyektlardagi yoki bir xo'jalik yurituvchi subyektning turli bo'linmalaridagi hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv.

NAZORAT – maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan o'ziga bo'ysinmagan obyekt faoliyatida qonuniylik va intizomni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyati.

NAZORAT QILUVCHI ORGANLAR – xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralar.

NAZORAT TARTIBIDA TEKSHIRISH – xo'jalik yurituvchi subyektlarning ilgarigi tekshirishda ko'rsatilgan qoidabuzarliklarni

bartaraf etishi ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirish.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromatlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti.

NORMATIV HUQUQIY AKT – davlat vakolatli organining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umumiy majburiy tusdagi qoidalarni o‘rnatuvchi, o‘zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorlik akti.

OBJEKT – subyektga qarama-qarshi bo‘lgan hamda insonning amaliy va bilish faoliyati qaratilgan obyektiv reallik; huquqda qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabat.

PROTSESSUAL MA‘MURIY-HUQUQIY NORMALAR– tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari uchun moddiy ma‘muriy-huquqiy normalarda nazarda tutilgan, davlat boshqaruvi sohasidagi yuridik huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tartibini belgilovchi normalar.

RAG‘BATLANTIRISH – davlat organining, mansabdor shaxsning yoki boshqa subyektning xizmatchi ehtiyojlariga, manfaatlariga, irodasiga, amaliy holatiga, shuningdek, uning davlat-xizmat faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish; manfaatdorlik, ong orqali insonlarning irodasini belgilangan foydali ishni bajarishga yo‘naltiruvchi ta’sir etish uslubi.

RAHBAR – davlat organi, korxona va muassasaning funksiyalarini amalga oshirib: unga bo‘ysindirilgan davlat xizmatchilari apparatining ish faoliyatini yo‘naltiradi; ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish, intizomiy javobgarlikka tortish, moliyaga hamda tovar-moddiy boyliklarga egalik qilish, rag‘batlantirish, mazkur organ nomidan imzo chekish va boshqa yuridik ahamiyatli harakatlarni sodir etish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxs.

RAHBARLIK QILISH FUNKSIYASI – davlat organlari (davlat xizmatchilari), boshqariluvchi obyektlar faoliyatining va ayrim harakatlarining qoidalarni va normalarni o‘rnatish.

REJALASHTIRISH FUNKSIYASI – davlat boshqaruvi tizimidagi u yoki bu jarayonlarning yo‘nalishlarini, rivojlanishning sifat

va miqdor ko'rsatkichlarini, davlat funksiyalarining amalga oshirilishini belgilash.

RUXSAT BERISH – huquq normaida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatlarni o'z xohishi bo'yicha amalga oshirishga imkoniyat yaratish.

SIYOSIY PARTIYA – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasi.

SUBORDINATSIYA (BO'YSINUVLIK) NAZARIYASI – ma'muriy huquq va xususiy huquqni farqlashdagi asosiy nazariya; huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarning xususiyatini belgilab beradi; munosabatlarni normativ hujjatlar bilan tartibga solishning bir tomonlama xususiyatiga ega ekanligi bilan tavsiflanadi; tashkil etish, cheklov va majburlov vositalari orqali davlatning (hokimiyat boshqaruv faoliyatining) ustunligini ifodalaydi.

SUBORDINATSIYAVIY MUNOSABATLAR – boshqaruv subyekti yuridik irodasining avtoritarligiga asoslangan munosabatlar.

SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR – qonuniylik va huquqtartibotni muhofaza qilish, inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash bilan shug'ullanuvchi idoralar. O'zbekistonda ularning faoliyati tegishli qonunlar asosida tartibga solingan ("O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun, "Sudlar to'g'risida"gi Qonun, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun, "Advokatura to'g'risida"gi Qonun va h.k.). O'zbekiston Respublikasida Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlariga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy maktabi, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalari, Davlat xizmatlari agentligi va Intellectual mulk huquqi agentligi, O'zbekiston Respublikasi sud-ekspertiza markazi, O'zbekiston

Respublikasi bojxona organlari, O‘zbekiston Respublikasi soliq organlari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi.

“SUVEREN” BOSHQARUV – ma’muriy-huquqiy majburlov choralarini qo‘llashni nazarda tutuvchi boshqaruv.

TAQIQLOVCHI MA’MURIY-HUQUQIY NORMALAR – u yoki bu harakatlarni amalga oshirishning taqiqlanishini belgilovchi normalar.

TAKLIF – fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarini o‘z ichiga olgan murojaati.

TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASI – davlat boshqaruvi tizimini va uning funktsiyalanishini tashkil etish jarayonida boshqaruv uslublari va usullaridan foydalanish.

TAFTISH – moliya va soliq masalalari bo‘yicha qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliq, davlat statistika organlariga hamda banklarga taqdim etiladigan hisobga olish va hisobot ishlarining to‘g‘riligi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalterlik, moliya va boshqa hujjatlarini tekshirish.

TASHKIL ETISH FUNKSIYASI – o‘rnatilgan tartib va prinsiplarga asoslanib davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, boshqaruv tizimida boshqaruvchi va boshqariluvchining tuzilishini belgilash.

TEKSHIRISH – xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda o‘z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi.

UMUMIY BOSHQARUV – har qanday boshqaruv faoliyatiga (sohasiga) qaratilgan va bir xil mexanizm, shakl va uslublarda amalga oshiriladigan boshqaruv.

FARMOYISH BERISH FUNKSIYASI – davlat organlari vakolatlarini va mansab majburiyatlarini amalga oshirish, davlat faoliyatining belgilangan tartibini ta’minlash bo‘yicha vujudga keladigan boshqaruv munosabatlarini kundalik tartibga solish.

FUQAROLARNING MA’MURIY-HUQUQIY HOLATI – fuqarolarning davlat boshqaruvi sohasidagi (ma’muriy-huquqiy munosabatlardagi) huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari, javobgarligining yig‘indisi.

FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHI – fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyati.

FUQAROLIGI BO‘LMAGAN SHAXS – O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘lmagan shaxs.

XIZMAT – insonlarning, shuningdek, davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq faoliyat yo‘nalishlaridan biri.

SHIKOYAT – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to‘g‘risidagi talabi bayon etilgan murojaati.

YURIDIK FAKTLAR – huquqiy munosabatlar vujudga kelishining shartlarini, holatlarini va mezonlarini belgilovchi harakat, harakatsizlik, hodisa.

QONUNIYLIK – davlat organlari faoliyatining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi; demokratik huquqiy jamiyat mavjud bo‘lishi va rivojlanishining asosiy belgisi.

QONUNIYLIKNI TA’MINLASH – davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida qonuniylik talabidan chega chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik; qonunbuzilishi holatlarini o‘z vaqtida aniqlash; aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish; buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini qayta tiklash; qonunbuzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarni javobgarlikka tortish; qonun buzilishlariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, ma’lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirish.

QO‘SHIMCHA MAS’ULIYATLI JAMIYAT – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati.

HISOBGA OLISH FUNKSIYASI – miqdor shaklida ifodalangan axborotlarni, moddiy resurslar harakatini, boshqaruv faoliyatini amalga oshirish natijalarini, davlat organlari vakolatlarini, davlat boshqaruv qarorlarini, boshqaruv uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlarning mavjudligi va harakatini inobatga olish.

HORIJIY FUQARO – bu O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan va xorijiy davlat fuqaroligi mavjud bo‘lgan jismoniy shaxs.

HUQUQ MANBALARI – huquqiy normalar ifodasining tashqi shakllari, huquq mavjud bo‘lishining shakllari; jamiyat tomonidan huquqni tushunish xususiyati bilan belgilangan ijtimoiy normalarni majburiy deb bilish uslubi.

HUQUQ TIZIMI – huquqning ichki tuzilishi, tarkibi; huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni hamda nisbatni belgilab beradi.

HUQUQ FUNKSIYASI – ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta’sir etishning asosiy yo‘nalishi; huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
-------------	---

1-MAVZU: «SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR» FANINING UMUMIY TAVSIFI

1.1. Huquqni muhofaza qilish faoliyati tushunchasi.....	8
1.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo‘nalishlari (funktsiyalari) va ularni amalga oshiruvchi organlarning umumiy tavsifi.....	14
1.3. «Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining tushunchasi, mazmuni va yuridik fanlar tizimida tutgan o‘rni	16
1.4. Huquqni muhofaza qilish organlari to‘g‘risidagi qonunchilik	21

2-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUD TIZIMI

2.1. Hokimiyatlar bo‘linish tizimida sud hokimiyati	25
2.2. Mustaqil O‘zbekistonda sud hokimiyatining shakllanishi	28
2.3. Odil sudlov va uning demokratik tamoyillari	43
2.4. Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirish. Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish	51

3-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDI

3.1. Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi va uning asoslari	58
3.2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi va uning vakolatlari	59
3.3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi apparati, uning funksiyasi va shakllanish tartibi	62
3.4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari, ularning turlari, mazmuni, yuridik ahamiyati va tuzilishi	65

4-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI

4.1. Sud tizimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tutgan o‘rni	68
4.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi, tuzilishi va vakolatlari	69
4.3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi, Rayosati va hay’atlari	70
4.4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining apparati.....	74

5-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUDLAR HAMJAMIYATI

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi	76
5.2. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining asosiy vazifalari va vakolatlari	79
5.3. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy maktabi	88

6-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARI

6.1. O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi	91
6.2. Prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va prinsiplari	96
6.3. O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tuzilishi va tizimi	98
6.4. Prokuror nazorati. Prokurorning vakolatlari	105
6.5. Prokuratura organlari xodimlari	108

7-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini tashkil etilishi va uning faoliyatining asosiy prinsiplari	111
7.2. Ichki ishlar organlarining vazifalari va huquqlari	114
7.3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatini tashkil etilishi va ular faoliyatining asosiy prinsiplari	116
7.4. Davlat xavfsizlik organlarining vazifalari va huquqlari	118
7.5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi faoliyatining huquqiy asoslari	119
7.6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi vakolatlari va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari	121
7.7. Milliy gvardiyada harbiy xizmatni o‘tash tartibi va shartlari	123

8-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI

8.1. Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalari	125
8.2. Adliya organlari va muassasalari tizimi. Davlat xizmatlari agentligi va Intellektual mulk huquqi agentligi	130
8.3. Respublika sud ekspertiza markazining asosiy vazifalari va huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi o‘rni	137

8.4. Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari.....	140
---	-----

9-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA VA SOLIQ ORGANLARI

9.1. Bojxona organlarning asosiy vazifalari.....	147
9.2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining tashkil etilishi, uning vazifalari, funksiyalari va huquqlari	152
9.3. Soliq organlarning asosiy vazifalari.....	158
9.4. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining tashkil etilishi, uning vazifalari, funksiyalar va huquqlari	165

10-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI

10.1. Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etilishining zarurati va jamiyatdagi ahamiyati	179
10.2. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy faoliyat yo'nalishlari va vakolatlari	181
10.3. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining huquq va majburiyatlari	185
10.4. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligida xizmatni o'tash tartibi va shartlari.....	187

11-MAVZU. SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA XALQARO STANDARTLAR

11.1. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etishning xalqaro standartlari tushunchasi va ahamiyati	189
11.2. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining xorijiy tajribasi	196
11.3. Huquqni muhofaza qilishni tashkil etishning xalqaro standartlarini O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish	200

Adabiyotlar ro'yxati	203
Glossariy	206

**Izzatullo Xusenovich Shoyev,
Sherzod Xolmurodovich Bahronov**

SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR

O'quv qo'llanma

Muharrir M.Talipova
Tex. muharrir N.Niyazova
Sahifalovchi B.Haydarov

Bosishga ruxsat etildi 28.11.2024.
Qog'oz bichimi 60x84^{1/16}. TIMES garniturasida,
Shartli bosma tabog'i 13,75. Nashr tabog'i 10,9
Adadi 100. Buyurtma №19-10/234

«Afzalzoda books» OK nashriyoti
100071, Toshkent sh., Durbek, 2-tor ko'chasi

«Impress media» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100150, Toshkent sh., Qushbegi, 6